




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA TA'LIM
VAZIRLIGI

NUTQ O'STIRISH

FAOLIYATI ISHLANMALARI



1. Mavzu: “Mening jonajon O`zbekistonim”

Faoliyat maqsadi: Mustaqil O`zbekiston Davlati haqidagi tushunchalari kengayadi. Mustaqillik sharofati bilan qayta tiklangan haq-huquqlar, ozodlik, erkinlik, o`z davlat tiliga ega bo`lish, boyliklarning xalq baxt – soadat manfaati yo`lida foydalanib kelayotganligi haqida tushuncha oladilar, DVD disklari orqali vatan xaqidagi kompozitsiyani va ashulalarni tinglaydilar.

O`zbekiston Davlat gerbi, bayrog`I, madxiyasi haqidagi bolalar bilimlari mustaxkamlanadi. Tasvir bo`yicha rasm chizish malakasini rivojlantirish.

Kerakli jixozlar: Bayram tasvirlangan DVD disk, Davlatimiz ramzlari gerbi, bayrog`i, mavzuga oid rasmlar, o`yin uchun jixozlar va va tasviriy faoliyat markazi.

Faoliyatni borishi: Bolalar, bugungi suxbatimiz serquyosh O`zbekiston – ona diyorimiz haqida bo`ladi. Mana O`zbekiston Mustaqilligining 28 yilligini nishonladik. Bu bayram biz uchun katta bayram, milliy bayram xisoblanadi. Kelinglar sizlar bilan birgalikda Vatanimiz haqidagi kompozitsiyani ko`ramiz. (DVD orqali namoyish etiladi.) ko`rsatilgan bayram taassurotlarini so`raydi.

Qani aytinglarchi bolajonlar:

- Bayram dasturida nimalarni ko`rdingiz?
- Mustaqil davlat deganda qanday davlatni tushunasiz?
(o`zgerbi, o`z madhiyasi, o`z bayrog`i, o`z tili, o`z chegarasi bor davlat).
- To`gri, mustaqillik sharofati bilan ozod, erkin bo`ldik. O`z davlat tilimizga ega bo`ldik. Biz boyliklarimizni xalqimiz baxt-saodati, manfaati yo`lida foydalanish xuquqiga ega bo`ldik.
Biz qanday boyliklarga egamiz (paxta, neft, toshko`mir, oltin, pul)

Tarbiyachi: 28 yil unchalik katta muddat bo`lishiga qaramay, O`zbekiston Respublikasi dunyoga mustaqil davlat bo`lib tanildi.

Hozirgi kunda mustaqil O`zbekistonning bayrog`I xilpirab turibdi. Bugungi kunda Ozbekiston mustaqilligini juda ko`p mamlakatlar tan oldi.

Davlatimiz ramzlari – bayroq, gerb, madxiya O`zbekiston xalqlarining shon-sharafi, g`ururidir. O`zbekiston davlat ramzlari haqida kim she`r biladi. (Bolalar javobi).

- Barakalla, bolalar Davlat ramzlarini ezozlash, qadrlash-O`zbekistonning qadr-qimmatini, o`z mamlakatiga va shaxsan o`ziga bo`lgan ishonchni mustaxkamlash demakdir.

O`zbekiston Davlati bilan faxrlanadigan inson juda ko`p narsalarga qodir. Bu esa Vataning shon – shuxratini oshiradi. Bu bizning burchimiz. Buni bizlar ayniqsa sportchilarimizni chet davlatlarida g`alaba erishganlarida bayrog`imizni yuqoriga ko`tarilishidan, madxiyamiz yangrashidan ham bilamiz. Sportchilarimizdan kimlarni bilasizlar:

Bolalar javoblari: (Mashxur sportchilarimiz ishtirokidagi videolavxalar namoyish etiladi.)

O`zbekistonda Prezidentimiz rahbarligida juda ko`p binolar, inshoatlar qurildi. Shaxrimiz kundan kunga tanib bo`lmas darajada o`zgarib boryapti.

Biz O`zbekiston kelajagiga ishonch bilan qaraymiz. Kelinglar bolalar, O`zbekiston diyorimiz haqidagi she`rlani eslab yoddan aytamiz.

Bolalar she`rlarni aytib bo`lgacha, ularga tetiklashtiruvchi mashq sifatida “O`z bayrog`inga bor”xarakatli o`yinini o`ynash taklif etiladi. O`yin mazmuni, signal berilganda,

bolalarga 4 xil rangdagi bayroqlar qo`yilgan, bolalar qo`llaridagi rangdagi bayroqqa borib turadilar.

- Kelinglar bolajonlar sizlar bilan Vatan haqidagi maqollarni aytish qilamiz. Kim ko`p aytar ekan-?

- Ona yurting omon bo`lsa, rangi ro`ying somon bolmas.

- Bulbul chamanni sevar, odam vatanni.

O`yin tugagacha, bolalarga ixtiyoriy rasm chizish taklif etiladi. Bolalar bayram taassurotlari, bayroq, gerb, Xumo qushini tasvirlashlari mumkun.

E'tiborga molik jixat: Faoliyatnakunda bolalar Davlat, uning mustaqilligi, mahallasi, turar joyiga , har bir Davlatga, o`z Vatani – O`zbekistoniga xos mustaqillik omillarini bilib oladilar. Davlat Ramzlarini bilishga, qiziqish, ularni hurmat qilish, ulardan faxrlanish tuyg`ularini uyg`otishga erishiladi.

Mavzu: “Mening shaxrim, mening mahallam”

Faoliyat maqsadi: Toshkent shaxri haqidagi tushunchasi kengayadi, tug`ilib o`sgan mahallasini nomlanishini, nima uchun shunday nomlanishini , nima bilan bog`liqligi haqida ma'lumot beradi. Bolalarni o`z mahallalariga mexr qo`yishga, u yerdagi mavjud an`analarga rioya qilishga va ularni xurmatlashga o`rgatiladi.

Kerakli jixozlar: Mavzuga oid rasmlar, nutq va til markazi, qurish-yasash faollik markazi.

Faoliyatning borishi:

Guruxga chet ellik mehmon (ingliz tilini biladigan yordamchi) kirib keladi.

- Good morning children. (salom bolajonlar).

- where I come. (men qayerga keldim).

Bolalar javoblari:

Kelinglar tanishib olaylik. Men Angliyalik mexmon Ketricman Men O`zbekiston poytaxti Toshkent shaxriga birinchi marotaba kelishim. Sizlar menga Toshkent haqida gapirib beringlar. Men o`zbek tilini yaxshi tushunaman.

Tarbiyachi: kelinglar bolalar Ketricga Poytaxtimiz Toshkent haqida gapirib beraylik. “Mening shaxrim, mening mahallam” mavzusiga oid surat ilib qo`yiladi. Bolalar ko`rgazmali rasmlar orqali Toshkent haqida quyidagilarni gapirib beradilar.

- Toshkent – O`zbekistonning poytaxti. U katta va chiroqli shahar, Uning juda ko`plab chiroqli va baland binolari bor.

- Mustaqillik maydonida ezgulik monumenti va favvoralar joylashgan, kiraverishda esa “Ezgulik arkasi” ustida laylaklar timsoli tushirilgan.

- Oliy majlis binosi, milliy bank, park binolari bir juft kurant soati, teleminora, teatr binolari, sirk binosi, chiroqli metro bekatlari, xayvonot bog`lari va boshqa ko`plab binolar mavjud.

Ketric: shaxringiz juda chiroqli ekan.

Tarbiyachi: bolalar ona shaxrimizni juda yaxshi ko`rishadi. Toshkentimiz va Vatanimiz xaqida ko`plab she`rlarni biladilar hozir sizga aytib berishadi.

Onamdek ardoqlisan, azizsan Toshkentim.

Sen menga qadrondon, tug`ilgan makonim.

Men seni avaylab, asrayman xar chog`.

Vijdonimdek toza, tushirmasman dog`.

Tarbiyachi: tez aytish qilamizmi, bizga Ketricing ham qo`shiladi.

- Toshkent – Shoshkent bo`lganmi?
- Shoshkent – Toshkent bo`lganmi?

Tarbiyachi: - Kelinglar bolalar sizlar bilan baland – baland binolarni quramiz. Ketricingga baland binolarni qurib, Toshkent sitini yasab ko`rsataylik.

Bolalar jamoa bo`lib, binolar yasaydilar, manzaralar bilan bezatadilar. Ketricing bolalarni ishlarini kuzatib, rag`batlantiradi va Toshkentga yana mexmon bo`lib kelishini, boshqa o`rtoqlariga Toshkentni go`zal shahar ekani, u yerdagi bolalar bilimli, aqli, bolalar ekanini aytib berishini aytadi. Bolalar bilan xayrlashadi.

E'tiborga molik jixat: Bolalar O`zbekiston poytaxti Toshkentligini biladi.

Poytaxtimizda qanday binolar joylashganini, mustaqillik maydonida nimalar joylashganini biladilar. Qurishyasashda jamoa bo`lib ishlaydilar.

3- mavzu: Men va mening oilam.

Faoliyatmaqsad: oilasini yaqindan tanishtirib bera olishga, ular kasblarini to`g`ri aytishga, oila muqaddas dargox ekanini o`rganadilar. O`zlaridan kattalarni xurmat qilish tarbiyasi beriladi.

Kerakli jixozlar: tarbiyachi va bolalarni oilasi tasvirlangan rasmlar (oldindan olib kelish aytilgan bo`ladi). Oila tasvirlangan rasmlar. Tasviriy faoliyat markazidan rangli qog`ozlar, qaychi va qalamlar.

Faoliyatni borishi: Bolalar mana bu qo`limdagи tasvirlangan, bu bizning oilamiz, turmush o`rtog`im, katta o`g`lim, kichik o`g`lim va qizim. Ular quyidagi ishlar bilan shug`ullanadilar dadamiz tadbirkor, men bog`chada ishlayman, katta o`g`lim haydovchi, kichik o`g`lim talaba, qizim esa o`quvchi. Biz axil oilamiz. **Sizlarchi?**

Tarbiyachi: Bolalar oila shunday muqaddas joyki, Vatanimiz mana shu oiladan boshlanadi.

Oilalar qanchalik tinch va farovon bo`lsa, yurtimiz ham tinch bo`ladi. Oilada hamma bir-birini hurmat qiladi. Ota-onaga oilaga boshchilik qiladi. Oila xuddi daraxt chizish orqali oilani tushuntirib beradi.

- Kelinglar endi sizlar bilan tasviriy faoliyat markazida ishlaymiz. U yerda oilamizni tasvirlashga harakat qilamiz. Hammamiz yoqtirgan rangli qog`ozimizdan olamiz va kaftlarimizni uning ustiga qo`yamiz va barmoqlar atrofini chizib, qaychi yordamida qirqib chiqamiz. Mana bunday qilib. (Kaft va barmoqlar). Endi har birimiz barmoqlarimizga ota-onamizni, aka-opalarimizni aks ettiramiz. Tarbiyachi bolalarga yoprdamlashadi. Hammamiz o`z oilamizni tayyorlab bo`ldikmi? Tarbiyachi bolalardan izox so`raydi, bilimlarini mustaxkamlab, bolalar ishlarini doskaga huddi daraxt singari yelimlaydi. Mana bolalar har bir oiladan butun bir daraxt bo`ldi, bu esa vatanimizni mana shunday oilalar tashkil etadi, - deb tushuntiradi. Oilani sevishni va kattalarga hurmatda bo`lishlarini ta`kidlab, aks holda daraxt bargi to`kilishini aytadi. Bolalarni rag`batlantirib, mashg`ulotni yakunlaydi.

E'tiborga molik jixat: O'z oilasi haqida gapira oladi. Kasblarni aytib beradi. Faoliyatlar orqali oilasini hurmat qilishga o`rganadi.

4-mavzu: Men va Mening do`stlarim

Faoliyatmaqsadi: Bolalarni o`rtoqlik, do`stlik haqida tushunchalarini aniqlash. Maqollar mazmunini rasmlar orqali ifodalash. Bolalarda insonparvarlik fazilatlari: axillik,mehribonlik,g`amxo`rlik va bir-birini hurmat qilish ruhida tarbiyalash.

E'tiborga moyil jixat: Do`stlar qanday bo`lishi kerakligini tushunadilar.

Kerakli jixozlar: Mavzuga oid rangli rasmlar, tasviriy faoliyat faollik markazi.

Faoliyat borishi:

Tarbiyachi: Bolalar do`stlik, o`rtoqlik deganda nimani tushunasizlar?
(Bolalar javobi)

Tarbiyachi: To`g`ri bolalar, guruhimizdagи bolalar bilan ahil bo`lib, o`ynash, bir-biringizga o`zaro yordam berish, ko`maklashish bu o`rtoqlik, do`stlik deyiladi. Bugun sizlar bilan do`stlik haqida maqollar o`rganamiz.

“Axl bo`lsang, bo`lmaysan baxl”. Bu maqolni mana bu surat orqali o`rganamiz.

- Bolalar nima qilyaptilar? (bolalar surat mazmunini aytib beradilar).
- Qaysi bolalarning xatti-harakatlari sizlarga yoqmad? (Nima uchun?)
- Ularni qanday atash mumkin? (qizg`anchiq)
- Ular to`g`ri ish qildilarmi?
- Do`stlar qande bo`lishi kerak?.

Bolalar javoblari tarbiyachi tomonidan to`ldiriladi. Do`stlar bir-birlarini hurmat qilishlari, mehribon bo`lishlari, og`ir kunlarida yordam berishlari kerak bo`ladi. Do`stlar inoq bo`lganida ko`zlagan maqsadlariga erishadilar. Suratdagи bolalarga qaranglar, ular axil bo`lib o`ynaganlari tufayli o`zaro fikrashib, o`ylashib, buzilgan mashinani tuzatdilar. Qizg`anchiqlik qilgan o`rtoqlarini shirin muomila qilib, qizg`anchiqlik yo`lidan qaytardilar. Haqiqiy do`stni ishini qildilar.

Bolalar, surat mazmunidan qanday xulosa qilamiz?. Surat mazmuni maqolga mosmi? Do`stlik haqida qanday maqollarni bilasizlar? Tarbiyachi maqollar mazmunini yoritib beradi.

Do`st bilan obod uying, gar uying vayrona bo`lsa ham.
Do`stlik sinovda bilinadi.
Do`st ming bo`lsa ham oz,
Dushman bir bo`lsa ham ko`p.
Do`stlik barcha boylikdan afzal.

Kelinglar endi sizlarga do`stlik haqidagi “Yaxshilik yerda qolmas” hikoyasini aytib beraman.

Bir ari suv ustida borar edi. Birdan suvgaga yiqilib ketti. Qanotlari xo`l bo`lib, ucharga kuchi yetmadi. Buni kabutar ko`rib, ariga raxmi keldi, darhol bir cho`pni tishlab, suvgaga

tashladi. Bechora ari bu cho`pni kema qilib, suv balosidan qutuldi. Oradan ko`p o`tmadi. Bir bola tuzoq qoyib, kabutarni tutmoqchi bo`ldi. Ari buni ko`rgan zamon kelib, bolaning qulog`ini chaqdi. Bola qulog`ining alamidan tuzoqni tashlab, qulog`ini ushladi. Kabutar vaqtini g`animat bilib, uchib ketib, tutqunlikdan qutuldi.

Bolalarga hikoya asosida savollar beriladi va tarbiyachi tomonidan to`ldiriladi.

Tarbiyachi:

- Bolalar sizlarni ham do`stinglar bormi?
- Do`stingiz haqida nimani bilasiz?
- Do`stingizni nimasi yoqadi?

Tetiklashtiruvchi o`yin: “Bu kim edi” O`yin qoidasi: Bir bola doskada orqasini qilib turadi. Ikkinci bola uni oldiga kelib, orqasiga qo`lini tekkizadi. Bola uni kimligini topishga harakat qiladi. O`yindan maqsad bolalarni sezgirligini oshirish.

Kelinglar do`stlarimiz uchun sovg`alar chizamiz. Bolalarni tasviriy faoliyati markazlariga taklif etiladi. Bolalar yoqtirgan rasmlarini chizib, do`stlariga sovg`a qiladilar.

5- mavzu: O`lkam relefi (shahar, vodiy, daryolar).

Faoliyat maqsadi: O`lkam relefi (shahar, vodiy, daryolar relefi) tushunchasi bilan tanishish. Mening o`lkam maketini yaratish, shahar, vodiy, daryolar bilan tanishish, bir-biridan farqlash.

Kerakli jixozlar: qum, suv, loy, toshlar, shakllar, chelak, belkurak, xaskashlar, plastmas panjaralar.

Faoliyatni olib borilishi:

“Mening o`lkam” mavzusida videofilm va suratlar.

Bolajonlar men sizlarga o`lkamiz mavzusidagi chiroyli video filmlarni ko`rishga taklif etaman. (tarbiyachi videoni qo`yib beradi, videoda shaharlar, vodiy va daryolar, manzarali tabiat aks etadi.) Video ko`rib bo`lingandan so`ng tarbiyachi bolalarga savollar bilan muroojat qiladi:

- videodan nimalar tasvirlanibdi?
- Bolalar javoblari.
- shahardan kimlar va nimalar ko`p ekan?
- Bolalar javoblari.
- Insonlarga nima uchun uylar kerak?
- Uylar nimalardan quriladi?

Tarbiyachi bolalarni javoblarini to`ldiradi. So`ngra bolalarga shaharlar, vodiyalar, daryolar haqida tushuncha beradi.

Shaharlarda ko`plab odamlar yashashadi. Baland-baland uylar, zavod, fabrikalar bor. Eng muhim davlatimiz o`sha yerdan boshqariladi. Shuning uchun poytaxtimiz Toshkent shahridir. (mavzuga oid rasimlar ko`rsatiladi). Bozorlari ham ko`pgina bo`ladi. Hamma ertalab biror tomonga ishga, mакtabга, о`qishga, bog`chaga shoshilib ketishadi. Shaharlarda qo`ylar, sigirlar, uy hayvonlari kam boqiladi. U yerda uy hayvonlarini boqgani yaylovlari yo`q. Ammo baland uylar juda ko`p. Vodiylarda esa ochiq maydonlar, yashil o`tloqlar mavjud bo`ladi. Daryolar va kanallar mana shu o`tloqlarni suv bilan ta'minlaydi.

Bolalar bilan o`lkamiz relefi maketini rejalashtirish. Kelinglar sizlar bilan mana shunday o`lkamiz relefi maketini yasashga harakat qilamiz. Buning uchun bizga nimalar kerak boladi. (qum, tosh, suv, loy, shakllar, chelak, belkurak, xaskashlar, plastmassa panjaralar).

O`lkamiz mini – relefini yaratish.

Bolalar bilan qum va suvdan foydalanib baland minoralar quriladi. Loylardan, toshlardan, panjaralardan foydalanib, o`lkamiz relefi yaratiladi. Unga qo`shimcha qilinib, plastmassa o`yinchoqlardan ham qo`yish mumkin.

Bolalar ishlarini tahlil qilish va rag`batlantirish:

Mana bolajonlar o`lkamiz maketini yasashni ham o`rganib oldik. Chiroyli uylar, manzarali tabiatlarni yasadik. Sizlarga yoqdimi? Menga juda yoqdi. Katta bo`lganiningizda bundan ham chiroyli maketlarni yasaysizlar.

6- mavzu: Mavsumiy o`zgarishlar

Faoliyat maqsadi: Iqtisodiy tarbiya orqali atrof olam haqidagi to`liq tasavvurlari shakllanadi. Mavsumiy o`zgarishlar jaqida tushunchaga ega boladilar (kuzda meva va sabzavotlarni yig`ishtirib olinishi, burglar to`kilishi, paxtalarni terib olinishi, ob-havoni pasayishi, yomg`irlarni yog`ishi).

Kerakli jixozlar: Kuz fasliga obraz, bobo dexqon, kuz ,evalari va sabzavodlari. Tevarak – atrofga sayr, daraxt barglari (terak, yong`oq, gilos, olma, bexi, tol, archa, sasna va hakazo). Tasviriy faoliyat markazida kerakli jixozlar.

Faoliyatni olib borilishi:

1. Guruh honasiga kuz fasli (obrazi) kirib keladi. Bolalar bilan salomlashib, fasllar haqida bilimlarini so`raydi va mustahkamlaydi.

- Bir yilda nechta fasl bor?
- Fasllarda qanday o`zgarishlar bo`ladi?
- Nima uchun shunday bo`ladi?
- Qushlar baxorda nima qiladi?
- Qushlar kuzda nima qiladi?

Fasllarni ketma ketligi haqida tushuncha berib, bir-biriga kerakligini va o`rin almashish hususiyatini tushuntiradi va bolalarga tevarak – atrof kuzatishini taklif etadi. Bolalar daraxtlar va o`simliklarni tomosha qilib, ularni ko`rinishi qandayligi, avval qanday bo`lganligini mulohaza qildilar. Daraxtlarni renglari sariq, qizg`ish va yashil rangdaligini aytadilar buni sababi sovuqdanligi tushuntiriladi.

2. Yo`lda bobo dexqonni uchratadilar; kuzgi shudgorlash,tozalov ishlari bilan shug`ullanayotgan bo`ladi.

Bolalar bilan salomlashib mehnati haqida tushuntirib beradi.

-Bobojon nimalar qilyabsiz?

- Kuzgi mavsumda yerga ishlov bermasak, mehr bermasak mana bunday mevalar, sabzavodlar yaxshi hosil bermaydi. Shuning uchun dexqonlar yerlarga qaraydilar, yerni chopib, kerakli o`g`itlarini solishadi. Bog`bonlar esa daraxtlarga shakllar beradilar. Daraxtlarga qurt-qumrsqalar tushmasin deb, oxaklab, ishlov beradilar. Bolalar dexqon boboga yordam beradi.

3. Tetiklashtiruvchi o`yin:

“Bargidan top” o`yini

O`yin maqsadi: bolalar daraxtlar barglarini farqlashga o`rganadilar.

Tarbiyachi bargni ko`rsatadi. Bolalar qaysi daraxtga mansubligini aytadilar. Yoki tarbiyachi nomini aytadi, bolalar topib, olib keladilar. Eng ko`p topgan bola rag`batlantiriladi.

San`at markazida:

Tarbiyachi bolalarni xonaga taklif qiladi. Bolalarga daraxt barglarini rasmlarini chizishga taklif etadi. Barglarni ranglari turlicha bo`lganligi sababli, namunaga 2-3 ta barglardan qo`yadi. Bolalar ishlarini kuzatib, rag`batlantirib boradi.

Musiqa markazi:

Kuz ashullasini musiqa yordamida kuylash.

G`ir-g`ir shamol yeladi,

O`lkamga kuz keladi.

O`giradi yerga kuz,

Marhamat kel oltin kuz.

Tarbiyachi bolalarni bilimlarini mustahkamlab, mashg`ulotda yaxshi qatnashganliklari uchun rag`batlantiradi.

7- mavzu: Ko`chmanchi qushlar haqida albom tomosha qilish.

Faoliyat maqsadi: Albomda tasvirlangan rasimlardagi qush turlarini biladi, tabiatdagi qushlarning hayot tarzi haqida ma'lumotlarni yig`adi qushlar o`rtasidagi o`xshashlik va tafovutlarni farqlaydi, o`xshash va farqli tomonlarini taqqoslaydi.

Kerakli jixozlar: qushlarni rasmidan iborat bo`lgan fotoalbom, mavzuli kartochkalar, qushlar siluetlari.

Faoliyatning borishi:

1. “Qushlar” foto albomini ko`rishga taklif etadi.

Tarbiyachi:

- Bolajonlar qanday qushlarni bilasizlar, nomlarini aytinlarchi?

Bolalar qushlarni nomlarini bilganicha aytishadi. (Kabutar, musicha, chumchuq, qarg`a, laylak, bulbul, bedana, turna va hakazo)

Tarbiyachi:

- Bolajonlar qushlar ham bir oila bo`lib yashashadi. Ikki oyog`I, ikkita qanoti, ikkita ko`zları va oziqlanishi uchun tumshug`I bor. Ular tuxum qo`yadilar. Tuxumlari orqali ko`payadilar. Ular don, qurt-qumrsqalar bilan oziqlanadi. Ular ham suv ichadilar. Qushlarni ayrimlari bahorda uchib keladilar va kuz faslida issiq o`lkalarga uchib ketadilar. (Bular haqida tarbiyachi rasmlardan foydalanib tushuntiradi va bolalar bilimlarini mustahkamlash uchun lartochkalar tarqatadi).

Endi oldingizdagidan foydalanib,

2. qushlarning o`xshashliklari va farqlari asosida kartochkalarni klassifikatsiyalashtirish.

- Endi oldingizdagidan foydalanib, bir-biriga o`xshash qushlarni ajratishga taklif etadi. Uylarda yashovchi qushlar, ko`chmanchi qushlar doimiy yashovchi qushlar, tarbiyachi bolalar ishlarini kuzatib, mustahkamlab boradi.

Endi oldingizdagidan foydalanib

3. qushlar sujetlari va rasimlarini taqqoslashga taklif etadi. Patlari qora, rangli oq va qora ranglardan iboratligini bolalar aytadilar. Qanday ovoz chiqarishlarini qiladilar.

4. Tetiklashtiruvchi o`yin:

“Uchdi-uchdi” o`yini. Maqsad: Uchdi-uchdi, nima uchdi deyilganda, aytilgan predmet yoki qushlar nomini eshitib harakat qiladilar. Adashgan bola she`r ayтиб berади.

Qo`shimcha qism: tarbiyachi bolalarga badiiy so`z bilan o`ylantirgan holda qushlar patlari, tuxumlari (sensor tarbiya) bilan tanishishni taklif etishi mumkun.

E’tiborga molik jixat: ilm va turmushni bog`lay olishi, nutq va tafakkurlari rivojlanadi.

8- mavzu: “Serhosil kuz”

Faoliyat maqsadi: Bolalarni kuz fasli haqidagi tushunchalarini kengaytirish va dehqonlar haqidagi mehnati bilan tanishtirish.

Jixoz va materiallar: Meva va sabzavotlar, rasmlar, kuz fasli tasvirlangan rasm plakat, bolalarni mehmon qilish uchun mevalar.

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi bolalarga savol beradi.

- Hozir qaysi fasl?

- kuz faslida qanday o`zgarishlar bo`ladi?

- Kuz fasli haqida kim she`r biladi?

Kirib kelding o`lkamga,
Shamollar bilan kuzjon.
Yomg`irlarni yogdirding,
Barglarni ham toktirding shirt-shitr

(Bolalar o`rinlaridan turib, turgan joylarida yuradilar, shamol harakatlarini qiladilar, yomg`irga sakraydilar, qo`llarini bargchalar qilib, sekin o`tiradilar. So`ng turib guruh bo`ylab tez-tez yuradilar). Shu payt xonaga dehqon bobo kirib keladi.

Bolalar bilan salomlashib, savol-javob o`tkazadi.

- Mevalardan qaysilarni bilasizlar?

- Sabzavotlardan qaysilarni bilasizlar?

- Ular insonlarga nima uchun kerak? Tarbiyachi bolalar bilimini mustaxkamlaydi.

Tarbiyachi: Dehqon bobo siz yetishtirgan mevalar, sabzavotlar haqida bolalarimiz juda ko`plab she`rlarni bilishadi. Keling ularni tinglaymiz.

Men sizlarni olmangiz
Homligimda yemangiz.
Nortojiga o`xshab so`ng
Voy qornim deb qolmangiz.

Donalarim marjoncha
Naqd boshim bir jomcha.
Quritsangiz mayizman
Dasturxonqa fayzman.

Bolalar bilgan she`rlarini ayтиб berishadi.

Tarbiyachi: Bobojon keeling sizga bir topishmoq aytaman, topib ko`ringchi?

Katta bobom ichkarida, quloqlari tashqarida. (Sholg`om)

Bolalar sizlar ham topinglarchi.

Qat-qat bo`yli qarich to`nli. (Karam)

Dum –dumaloq bo`yi bor

Palovda obro`yi bor. (bexi)

O`zi shirin tuklikgina

Mazasi ham totligina. (shaftoli)

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar.

- Qani menga aytinglarchi mevalarni homligida, yuvmasdan yeb bo`ladimi?

- Yo`q, kasal bo`lishni xoxlamaganlar mevalarni doim yuvib yeydi.

- Demak ona tabiatimiz bizga shuncha inomlar berar ekan uni asrab avaylashimiz kerak.

Bu “Bosh qonunimiz”da belgilab qo`yilgan. 50-moddada nima deyilgan edi, bir eslab olaylikchi?

- Juda to`g`ri.

Fuqarolar atrof muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo`lishga majburdirlar. Bu tabiatni asrash degani.

Kelinglar sizlar bilan mevalardan “Ajoyib” salatini tayyorlaymiz.

Avval qo`llarimizni yaxshilab yuvamiz. Mevalarni ham yaxshilab yuvamiz. Taxtacha va pichoqdan foydalanib, mevalarni kubik shaklida to`g`raymiz. Mana shunday qilib. Tarbiyachi bolalarga mevali salatni tayyorlab, bolalarni va dehqon boboni mehmonxonaga taklif etadi. Dehqon boboni davraga tashrif buyurgani uchun rahmat aytadi.

9- mavzu: “Ustoz otangdek ulug`” mavzusida suhbat

Faoliyat maqsadi: Ustoz otangdek ulug` iborasiga hamda usta, ustoz, tushunchasiga izoh berish. Bolalardan ustoz-shogird an`analari haqida qisqacha tushuncha hosil qilish va shu mazmundagi rivoyatni o`qib berish.

Kerakli jixozlar: mavzuga oid rasm, rangli qog`ozlar, yelimlar, qaychilar.

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: Bolalar bugun biz siz bilan ustoz, shogird odobi haqida so`zlashamiz. Xalqimizda “Ustoz otangdek ulug`” degan hikmat bor. Bu hikmatda olam-olam ma’no bor.

Otagiz sizni tarbiyalab voyaga yetkazadi, ustoz esa unib-o`sib kamolotga yetishingiz, ilm ma’rifatlari bo`lishingizga ko`maklashadi. Ustoz o`z umrini, aql-idrokini, tajribasini va bilganlarini shogirdlariga o`rgatadi. Shogirdning yutug`idan quvonadi, muvaffaqiyatsizlikka uchrasa g`am-anduh chekadi. Xalqimizning ustozni ulug`lashida hikmat ko`p. axir kishi ota-onasi sababli dunyoga kelsa, ustoz ta’limi tufayli oyoqqa turadi, katta hayotga qadam tashlaydi. Ustoz bebaxo, ulug`, g`amxo`r, mehribon inson. Shuni qayd qilish kerakki, ustozlar ko`pni ko`rib, ko`pni bilgan, bilimda, mehnatda, aql-zakovatda el orasida tanilgan, o`z tajribasi, bilimini boshqalarga, xususan yoshlarga o`rgatadigan kishilardir. Ular barcha davrlarda ham o`zgacha e;zozlangan va so`zlarining ta’siri juda kuchli bo`lgan. Ayrim vaziyatlarda, yoshlar ustozlarga chuqur hurmat va ehtirom bilan qarab, ularni ham o`z ota-onalari qatori izzat-ikrom qilganlar.

Ustoz-shogirdlik munosabatlari, ularning hunar bobida bellashuvlari, o`z ustozidan o`tib ketgan shogirdlari mahoratini tasvirlovchi “Uchar gilam”, “Ustozdan o`tgan shogird”, “Ustozimning nabirasi”, “Ustoz va shogird”, “Ustoz ishini shogird davom ettirar” kabi afsona, rivoyatlar bag`oyat qiziqarlidir. Ana shulardan ham ko`rinib turibdiki, el orasida ustozlargahurmat cheksiz bo`lib, bunga ular o`zlarining bilimdonliklari, bag`rikengliklari, donoliklari, saxovatlari tufayli erishganlar. Ustozlar hurmatini joyiga qo`yish , ular ishonchini oqlab, umrbod munosib izdosh bo`lib qolish har bir shogirdning muqaddas burchidir. Shogirdlarning ham ustozlari oldida o`z odoblari bor. Eng avvalo ulug` ustozlarga shogird bo`lish ular uchun katta baxt. Lekin shogir ustozi oldida shogirdlik odobini saqlash kerak. Bular quyidagilar:

- shogirdning ustoz oldida o`zini kamtar tutishi;
- ustozning barcha topshiriqlarini a`lo darajada bajarish;
- ustozning gaplarini diqqat bilan tinglash;
- tushunmay qolganda uzur so`rab, tushuntirib berishlarini iltimos qilish;
- ustozini hamisha mammun qilish uchun vazifalaribi sifatli va o`z vaqtida bajarish;
- Hech qachon yolg`on gapirmasligi, ustozning ko`nglini ranjitmasligi kerak.

Siz tarbiyalanayotgan bog`chada ham shogird va ustozlar bormi?

Ular kimlar deb o`ylaysiz?

To`gri bizning ustozimiz – bog`cha opamiz. Bog`cha opamiz bizning ikkinchi onamiz to`g`rimi? Chunki ular mehribonlar. Bizni o`z bolalaridek sevadilar. Bizni aqli, dono, odobli bola bo`lishimiz uchun o`z yordamlarini ayamaydilar.

Bog`cha opamiz bizga kitoblar o`qib beradilar, ertaklar aytib beradilar, turli xil o`yinlar o`ynatadilar. Kiyinishimizga yuvinishimizga yordamlashadilar. Biz doimo bog`cha opamizni hurmat qilamiz, ularning so`zlarini diqqat bilan tinglaymiz, tushunmay qolganda uzur so`rab, tushuntirib berishlarini iltimos qilishimiz, aytganlarini so`zsiz bajarishimiz kerak. Guruhda bog`cha opamiz yo`qliklarida ham odob qoidalarini buzmasligimiz kerak. Shunda bizdan bog`cha opamiz hursand bo`ladilar.

Bugun suxbatimiz ustozlar haqida ekan, men sizga ustozlar haqida bir masalani aytib beraman.

“Ustozdan o`tmagan shogird – shogird emas” masali.

Tovuq tovusni o`ziga shogird qilib olibdi-da, unga rasm solishni o`rgatibdi. Vaqt(soati) kelib, endi o`zing rasm soladigan bo`lib qolding, deya tovusni “Uchirma” qilmoqchi bo`libdi. Oradan bir oz vaqt o`tgach, tovuq shogirdini sinab ko`rmoqchi bo`lib, uyiga mehmonga chaqiribdi. Tovuqning oziq-ovqatlarini xuddi terib qo`ygandek yerga rasmini solib qo`yanini ko`rgan shogird, ustozi qanchalik olin demasin, qornim to`q deb turaveribdi. Ketish oldidan: “Biznikida mehmon bo`sangiz ustoz!” – debdi. “Sezib qolibdi demak yetilibdi” – deb tovuq ham xursand bo`libdi ich-ichidan. Ertasiga tovuq tovusnikiga kelib, eshik oldida turgan tulkivoyni ko`rib, iziga qaytib keta boshlabdi.

Tovus: “Ustoz, axir bu devorga chizilgan rasm-ku”, - deya ustozni bazo`r yo`ldan qaytarga ekan.

- Balli, ustozingdan o`zibsan, men xursandman, - debdi tovuq kerilib va shodligida qah-qah uringdi. Qissadan hissa shuki “Ustozdan o`tmagan shogird shogird emas”.

Tarbiyachi bolalar bilan masal mazmuni bo`yicha savol-javob qiladi.

Bizning bog`chada ham ustozlar juda ko`p. kelinglar sizlar bilan ustozlar uchun sovg`alar tayyorlaymiz. Yelim, qaychi va rangli qog`ozlardan foydalaniib, gullar yasaymiz. Tarbiyachi yordamlashib, mashg`ulotni yakunlaydi.

10-mavzu: “Nonvoylar mehnati bilan tanishtirish” mavzusi

Ta’limiy maqsadi: Bolalarga nonvoylar mehnati haqida tushuncha berish, nonni bug`doy o`simligidan kelib chiqishini tushuntirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Nonni yasash orqali qo`l matorikasini rivojlantirish. Bolalardan nutq, muloqot orqali so`z boyligini oshirish yangi so`zlarni to`liq to`g`ri aniq talaffuz qilishga o`rgatish. Matematik tasavvurlarini kengaytirish nonni shakli, xajmi, sanog`ini bilishga o`rgatish. Ijodkorlik qobilyatini o`stirish

Kutilayotgan natija: Bolaga nonvoylar kasbini qadrlashni o`rganish, bolada nonni yasash orqali qo`l matorikasi rivojlanadi. Bolalarda nutq, muloqot orqali so`z boyligi oshadi.

Kerakli jixozlar: Tandir, surpa, Chekich, yengicha, rapida, oq halat, oq qalpoqcha, fartuk, hampa rangli rasmlar.

Til va nutq markazi: Faoliyatning borishi: Salomlashish

Tarbiyachi: Assalomu alaykum bolajonlar

Bolalar: Assalomu alaykum

Tarbiyachi: Bolajonlar bugungi mashg`ulotimizni boshlaymiz

Tandirchi: stoli ustida yangi uzilgan non turadi

Tarbiyachi: Bolajonlar hozir xonamizdan qanday hushbo`y hid taralyabdi;

Bolalar: Nonni hidi

Tarbiyachi: Juda to`g`ri. Bolajonlar non qanday ne`mat ekanligini bilasizlarmi;

Bolalar: - Non dunyodagi eng aziz ne`mat

Tarbiyachi: Nonni qanday bo`lib bizga yetib kelishi bilasizlarmi?

Bolalar: Ha... (eshik taqillaydi)

Tarbiyachi: Voy bolalar kim keldi ekan? (eshikdan Nonvoy aka kirib keladi)

Nonvoy: Assalomu alaykum bolajonlar

Tarbiyachi: Xush kelibsiz

Bolalar salomlashadi

Tarbiyachi: Guruhimizga hush kelibsiz. Bolajonlar nonvoy aka bizga nonvoychilik kasbi haqida gapirib beradilar.

Nonvoy: Bolajonlarbu kasb eng sharaflı kasbdır, buni men sizlar bilan o`rtoqlashaman, avval sizlar bilan birga kulchalar tayyorlaymiz.

Tarbiyachi: Bolajonlar kulchalar haqida tushunchaga egamisiz;

Bolalar: Ha bilamiz oyim doyim bizga kulcha yopib beradilar.

Tarbiyachi: Kulcha non qanday shaklda bo`ladi;

Bolalar: Doira shaklida

Tarbiyachi: juda to`g`ri. Bolalar nonvoy xolamiz hamiri ko`pib ketibdi, kelinglar birgalashib kulcha nonlar tayyorlaymiz.

Tarbiyachi: Bolalar nonni tayyorlashdan oldin qo`llarimizni yuvib olamiz-a;
(Bolalar qo`llarini birgalikda yuvadilar)

Nonvoy: Bolalar endi hamirimizni zuvalachalarga bo`lib olib undan zuvalachalarga bo`lib olamiz, undan dumaloq qilib zuvalachalar yasaymiz.

(Bolalar ham zuvalachalar yasaydilar)

Nonvoy: Barakalla bolajonlar mana sizlarni zuvalachalaringiz ham juda chiroyli bo`libdi. Endi hammamiz birlashib nonimizni yasaymiz, yasash uchun barmoqlarimiz bilan tekkislab ketamiz, bolalar kulchalarimiz juda chiroyli chiqibdi, unga sedana va kunjutlarni sepamiz bunda nonimiz juda ham mazali bo`ladi.

Tarbiyachi: Bolajonlar nonimiz ham tayyor bo`lib qoldiendi nonvoy opamiz nonni yopishni ko`rsatadilar.

Bolalar nonni yopishdan oldin tandirni qizdirib olamiz, qizigan tandirga kulchalarni bosib yopamiz.

Tarbiyachi: Bolajonlar barakalla, non ham chiroyli bo`ldi, endi nonimizni pishgunga qadar nonga ta`rif beraylik

1-bola: Non ham non non uvog`i ham non,

2-bola: Non rizq ro`zimiz

3-bola: Non aziz ne`mat

Tarbiyachi: Non haqida she`rlar ham bilasizmi;

1-bola: Oyim yopar shirmoy non

Men ham qarab turmayman

O`t yoqaman tandirga

Gul solaman hamrga

Tarbiyachi: -Rahmat bolajonlar nonlarimiz ham pishib qoldi nonlarni olib kelib nonvoy xolaga javob beraylik. Nonvoy xola yana el xizmatiga borish kerak. Nonvoy chiqib ketadi.

Tarbiyachi: Bolalar mana nonimiz ham chiroyli bo`libdi. Endi hammamiz birlashikda non haqida qo`sish quylaymiz.

(Non yopganda qo`sishig`i kuyylanadi)

Tarbiyachi: Mana bolajonlar nonvoychilik kasbi ham zaxmatli kasb, tong saxardan to shomgacha tinmay mehnat qiladilar shuning uchun ularni ham e;zozlashimiz kerak.

Qo`sishma qism: Bolalarga nonvoy mehnati haqidagi videorolik namoyish etish.

E'tiborga molik jixat: Bolajonlarni kasbga bo`lgan mehr muxabbatini uyg`otish

11- Mavzu: “Dehqon mehnati bilan tanishtirish”.

Faoliyat maqsadi: Dehqon mehnati bilan tanishtirish. Bahorda dehqonning mehnatlaridan biri yerga urug` sepilishi haqida bilim berish. Mehnat qilish ishtiyoyqini tarbiyalash.

Kerakli jixozlar: “Tabiat va biz” burchagi va “O`yin va o`yinchoqlar” markazi.

Faoliyatni borishi:

Tarbiyachi: Bolalar bugun guruhimizga dehqon bobomiz keladilar. Kelinglar ular bilan salomlashamiz. Bugun bobomiz bog`chamizga yer maydonchasiga jo`xori urug`ini ekmoqchi ekan. Bizni yordamga chaqiryabdi. Ho`sh bolajonlar yordamlashgani boramizmi?

Bolalar javobi: Ha boramiz

Tarbiyachi: Bolalarni olib bog`cha yer maydonchasiga chiqishadi.

Dehqon bobo: Bolalar men sizlarni jo`xorini yaxshi ko`rishingizni bilib olganman. Shuning uchun yer maydonchasiga jo`xori ekmoqchiman. Bolajonlar sizlar ham menga yordam berasizlarmi?

Bolalar: Ha yordam beramiz

Tarbiyachi: Bolalarga jo`xori suratlarini ko`rsatib so`raydi? Bolajonlar suratda nima tasvirlangan?

Bolalar: Jo`xori

Tarbiyachi: Bolalar jo`xorini urug`lardan o`stirish mumkunmi?

Bolalar: Ha mumkun

Tarbiyachi: Ha biringizga jo`xori urug`ini kaftingizga qo`yaman. Bolajonlar jo`xorini rangi qanaqa ekan?

Bolalar javobi: Rangi och sariq

Tarbiyachi: Bolajonlar dehqon bobo sizlarga jo`xorining usti silliq yoki g`adir –budurligini aniqlash uchun barmoq bilan silab ko`rishni taklif qilmoqchi ekan. Bolalar kaftidagi urug`larni dehqon bobo ko`rsatgan ariqlarga ekishini o`rgatadi. Qiynalgan bolalarga tarbiyachi yordamlashadi. Shundan so`ng dehqon bobo urug`lari ustiga tuproq tashlashni ko`rsatadi. So`ngra urug`larga suvni qanday quyishni o`rgatadi.

Tarbiyachi: Bolajonlar endi men sizlarga topishmoq aytaman.

Bo`yi bir qarich

Soqoli ikki qarich (Jo`xori)

Yangam kelar apillab,

Bilaklari shalpillab. (Jo`xori)

Ekilgan ekinni tarbiyachi bilan bolalar kuzatib boradi.

Bolalar bilimlarini mustaxkamlash uchun savol-javob qiladi.

1. Bolajonlar, bugun nimalarni o`rgandik?

2. Dehqom bobo ekinlari qanday ekan?

3. Jo`xori urug`ini qanday qilib ekdik?

Bolalar kattalar mehnatini qadrlashni, tabiatni sevishni bilib oladilar. Ekin ekishni va parvarish qilishni bilib oladilar.

12- Mavzu: “Sabzavot va mevalarni farqlash”.

Faoliyat maqsadi: Bolalarga meva va sabzavotlarning foydali tomoni haqida tushuncha berish. Meva va sabzavodlarning shakli, rangi, katta-kichikligi, mazasini farqlashga o`rgatish. Topishmoqlar javobini zukkoli bilan topishga va to`g`ri talaffuz etishga o`rgatish. Sabzavot va mevalarni paypaslab ko`rish orqali taniy olishga odatlantirish.

Kerakli jixozlar: Sabzavot va mevalarning muljaylari, mevali daraxtlar, sabzavodlar suratlari. Tarqatma materiallar (o`yin uchun). Bog`bon va dehqon mehnati aks etgan suratlari.

Markazlar: “Tabiat va biz” burchagi va “O`yin va o`yinchoqlar” markazi.

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: Bolalar bilan salomlashadi. Yarim doira turgan bolalarning har biriga to`puloqtirib, ob-havoni, hafta kunini, kuz faslini, undagi o`zgarishlarni savollar berish orqali so`rab oladi. Bolalar javob berib, to`pni qayta uloqtiradi.

Tarbiyachi:

1. Bolalar hozir qaysi fasl?
2. Kuz faslida qanday o`zgarishlar bo`ladi?
3. Qaysi faslda sabzavot va mevalar pishadi?

Tarbiyachi: Barchaga rahmat , endi hammamiz joylarimizga o`tirib olamiz, bugun biz sizlar bilan atrof olam mashg`ulotimizda sabzavotlar va mevalar haqida suhbatlashamiz. Bolajonlar bilasizlarmi biz kuchli va sog`lom bo`lishimiz uchun vitaminlarkerak bo`ladi. Bu vitaminlar sabzavotlar va mevalarda mavjud bo`ladi. Agar biz meva va sabzavotlardan ko`proq iste`mol qilsak albatta kuchli va sog`lom bo`lamiz. Bolalar bu suratlarda nimalarni ko`ryabsizlar?

Bolalar javobi: Mevalar va sabzavotlar

Tarbiyachi: Juda ham to`g`ri qo`limdagи savatchalarda ham meva va sabzavotlar, ularning rangi va shakli turli xil o`lchamda. Kelinglar “Bu nima” o`yini o`ynaymiz.

Tarbiyachi: Bolalar ko`zchalarini mato bilan bog`laydi va savatdagи meva va sabzavotlardan olishni taklif etadi. Bola poypaslab qo`liga savatdanmeva yoki sabzavotni oladi.

Tarbiyachi: Qo`linga nimani olding? U nima, uning shakli qanaqa?

Bola javobi: Olma yoki sholg`om, shakli dumaloq.

Tarbiyachi: Mazasi qanday bo`ladi?

Bola javobi: Shirin va nordon.

(Tarbiyachi savol-javob metodi orqali 4-5 bola bilan o`yinni davom ettiradi, bolalarga sabvzavot va mevalarni farqlashni o`rgatadi, bilimlarini mustahkamlaydi).

Tarbiyachi: Endi bolajonlar sizlarga topishmoqlar aytaman.

Kichkina dexcha,

Ichi to`la mixcha.

1- bola: Anor

Tarbiyachi: Qizil gulday, gul emas,
Hidi guldan kam emas.
O`zi dumaloq tuxum emas,
Yesang shirin, asal emas.

2-bola: olma

Tarbiyachi: Juda to`g`ri bu olma edi, olma haqida she`r ham bilasizlarmi.

1-bola: Ha

Xoy olma, olma, olma
Meni ovora qilma
Bir oz bo`y cho`zay
Olmalarindan uzay

2- bola:

Olchaxonga ustozman,
Nordonlikdan halosman.
Undan katta bir oz man,
Sizlar sevgan gilosman

3- bola:

Olmadir mening ismim,
Biram yoqimli ism,
Ne`mat ichra a'loman
Yetmish dardga davoman

Tarbiyachi: Raxmat barchangizga. Sabzavotlar haqida ham bilasizlarmi?

1- Bola: Ha, men aytsam maylimi. Anvar Obidjonning “Kartoshka”, she`rini aytib beraman.

Goh uxlayman turbada,
Goh pishaman shorvada.
Qovurmada qaynayman,
Mastavada yayrayman.
Lag`monda ham men mehmon,

Hamma joyda tayyorman.
Ko`rinmasam shovlada,
Erinmasdan kovla-da

Tarbiyachi:Rahmat she'r juda qiziqarli ekan , bolalar bilasizlarmi sabzavotlardan foydalanibonajonlarimiz, bog`chamizda oshpaz opalarimiz sizlarga shirin va mazzali taomlar tayyorlab beradilar. Sabzavotlarni mazzali bo`lib yetishtirishda dehqonning mehnati katta, sabzavot ekishda oldin, dehqon yerga ishlov berish kerak, keyin tabiiy ozuqa solib, yerni yumshatadi, so`ng pushtalar tirtilib, urug`lar sepib chiqiladi. Ular ko`karib chiqishi bilan teztez tagini yumshatib turiladi, sug`orib turishi kerak, vaqt - vaqt bilan begona o`tlardan tozalanib, chopiq qilinadi. Bobo quyosh bu ekinlarni serhosil va shirin – shahar bo`lib o`sishi uchun nimalarni ayamay sochadi. So`ng mo`l hosil yig`ishtirib olinadi. Mevalarni yetishtirishda bolalar bog`bonning xissasi katta.

Tarbiyachi: Endi sizlarga Abdulla Avloniy “Aqli bog`bon” hikoyasini o`qib beraman.

Bir bog`bonning uch o`gli bor edi. Ular dangasa va ishyoqmas edilar. Bog`bon bir kuni kasal bo`ldi. O`g`illarini ishga solmoq uchunyoniga chaqirib “O`g`illarim mening ajalim yetganga o`xshaydi. Men sizlarga vasiyat qilib ketayin. Bog`ning ichiga bir ko`za oltin ko`mib qo`yanman. Mendan so`ng ozingiz kavlab, topib, bo`lishib olarsiz” , - dedi. Oradan bir necha kun o`tmay, bog`bon dunyodan o`tdi. O`g`illari oltin axtarib, bog`ni chunon qazidilarki, tuproqlari kul bo`lib ketti , lekin tokning ildizidan boshqa hech narsa topolmadilar. Ammo shu yil tok chunon uzum qildiki, aqchasi necha ko`za to`ladurg`on oltin bo`ldi. So`ngra bu yalqovlar bildilarki, yerdan emas, ishlovdan ekan.

Hissa: Hamma yomonliklarning onasi dangasalik, qo`rroqlik esa otasidir. Bolajonlar hikoya yoqdimi, endi hammamiz boqqa sayohatga chiqamiz.

Markazlar: Milliy burchak, Bolalar kutubxonasi markazi.

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: Bolajonlar kelinglar sizlar bilan bugun nonvoxonaga sayohat qilamiz. Nonvoxonada nonvoylar nima ish qilishini kuzatamiz.

Tarbiyachi: Bolajonlar hamrni nonvoylar undan qoradilar, un bug`doydan bo`ladi, Bug`dohni dehqonlar dalalarda yetishtiradi. Ekilgan bug`doylar o`z vaqtida sug`oriladi, begona o`tlardan tozalanadi, so`ng unib chiqib yetilib, bug`doylar boshoq olib bug`doy bo`lib yetiladi.

To`g`rimi bolajonlar?

Bolalar javobi: To`g`ri

Tarbiyachi: Bolajonlar kelinglar sizlarga non haqida bir rivoyatni aytib beraman.

Hirot sulton Husayin Bayqaro: “Dunyodagi eng yaxshi xidni keltiring!”- deb qolibdi. Unga quchoq quchoq gul keltirishbd. Sulton: “Yo`q”- debdi. Qalampirmunchoqni ro`baro qilishibdi, rad etibdi. Yer yuzidagi jamiki hushbo`y xidli narsalarni nuhayyo qilishibdi. Sulton bo`lsa: “Men aytgan bu emas”, - deb turib olibdi. Keyin: - Uch kun muxlat ichida topsalaring toplaring, bo`lmasa hammangni jazoga tortiraman debdi.

Vazirlar nima qilishni bilmay o`ylayverib, boshlari qotibdi. Husayn Bayqaro istagan xidni topisha olmay oxiri nonvoyning oldiga borishibdi.

- sultonimiz aytgan xidni topib, bizni halokatdan saqlab qolin, - deyishibdi.

Do`stining ko`ngli qanday xidni istaganini bilolmay, Nonvoyning ham boshi qotibdi.

Dehqom bobodan so`ragan ekan, u:

- Yangi yopilgan nonni olib boringlar-chi, otam raxmatli, dunyoda eng lazzatli va yoqimli xid-qayroqi bug`doy unidan yopilgan tandir non, hech qaysi xid unga yetolmaydi, deguvchi edilar, - deb maslahat beribdi.

Nonvoy hursand bo`lib, dehqon aytganini qilib, bir savat non yoptirilibdi-da, saroyga yetib boribdi. Bir zumda saroyga ajib xid tarqab, barchaning dilini yashnatib yuboribdi.

- Rahmat, do`stim, - debdi Husayn Bayqaro nonlarni ko`rib, - ko`nglik yangi yopilgan nonni isini qumsayotgan edi, topib kelibsiz. Dunyoda yangi yopilgan nonning isidan ko`ra yoqimliroq xid yo`q...

- Sultonim, rahmatni menga emas, dehqon boboga aying, ko`nglingizni hohishini shu kishi topdi, - deb javob beribdi nonvoy.

Husayn Bayqaro dehqonga bosh-oyoq sarpo berishni buyuribdi.

Tarbiyachi: Bolajonlar sizlarga rivoyat yoqdimi?

1- bola: Ha yoqdi.

Tarbiyachi: Bolajonlar kimlarning ota-onasi nonvoy?

2- bola: Madinaxon mening dadam nonvoy

Didaktik o`yin: “Mehmon-mehmon o`yini”

Tarbiyachi: Bolalar kelinglar! Sizlar bilan hozir “Non olib keldim” she’rini o`qib beraman.

Yolg`on emas chin so`zim,

Magazinda bir o`zim.

Ko`cha chetida bir o`zim,

Ancha narsani ko`rib.

Qaytimni yo`qotmasdan,

Kuchukka tosh otmasdan.

Olib keldim issiq non,

Uyga kelganda mehmon.

Tarbiyachi: Bolalar she’r sizlarga yoqdimi

Bolalar javobi: Ha yoqdi

Tarbiyachi: Kunning ikkinchi yarmida albatta she’rni yod olamiz. Endi bolajonlar sizlar bilan birgalikda topishmoqlarni topamiz.

1. Bug`doyzorda yog`rilgan

Tandirda tug`ilganman (Non)

2. Eng totli ulug` ne’mat

Dasturxonga ko`rki ziynat (Non)

3. Dengiz emas chayqaladi

Undan bo`lur oshu non (Bug`doyzor)

4. U tiganmas boylik kon

Undan bo`lur oshu non (Bug`doy)

Tarbiyachi: Bolajonlar topishmoq, she’r, rivoyatlar sizlarga yoqdimi?

Bolalar javobi: Ha

Tarbiyachi: (Faoliyatayakunida bolalar rag`batlantiriladi) va tarbiyachi mashg`ulotni tez aytish bilan yakunlaydi.

Nonvoy, nonvoy, non yopar,

Nonni novvot deb sotar.

13- Mavzu: “**Nonvoy mehnati bilan tanishtirish**”

Faoliyatmaqsadi: Bolalarni nonvoy mehnati bilan tanishtirish va nonvoyslar nima ishlar qilishi haqida suhbat olib boramiz.

Kerakli jixozlar: nonlar va nonvoy rasmlari, tandir rasmi, non uchun hamir, o`yin markazi.

Markazlar: Milliy burchak, bolalar kutubxonasi markazi

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: Bolajonlar kelinglar sizlar bilan bugun nonvoxonaga sayohat qilamiz. Nonvoxonada nonvoyslar nima ishlar qilishini birgalikda kuzatamiz

Tarbiyachi: Bolajonlar hamirni nonvoyslar undan qoradilarv un bug`doydan bo`ladi, bug`doyni dehqonlar dalalarda yetishtiradilar. Ekilgan bug`doylar o`z vaqtida sug`oriladi, began o`tlardan tozalanadi, so`ng unib chiqib yetilib, bug`doylar boshqoq olib bug`doy bo`lib yetiladi.

To`grimi bolajonlar?

Bolalar javobi: To`gri

Tarbiyachi: Bolajonlar kelinglar sizlarga non haqida bir rivoyatni aytib beraman.

Hirot sultoni Husayn Bayqaro: “Dunyodagi eng yaxshi xidni keltiring!”-deb qolibdi. Unga quchoq-quchoq gul keltirishibdi. Sulton: “Yo`q”, - debdi.Qalampirmunchoqni roboro qilishibdi, rad etibdi, Yer yuzidagi jamiki hushbo`y xidli narsalarni muhayyo qilishibdi. Sulton bo`lsa: “Men aytgan bu emas”, - deb turib olibdi. Keyin: uch kun muhlat ichida topsalaring toplaring bo`lmasa hammangni jazoga tortiraman debdi.

Vazirlar nima qilishini bilolmay o`ylayverib boshlari qotibdi. Husayn Bayqaro istagan xidni topisha olmay, oxiri Navoiyning oldiga borishibdi. Sultonimiz aytgan xidni topib, bizni halokatdan saqlab qoling – deyishibdi.

Do`stining ko`ngli qanday xidni istaganini bilolmay, Navoiyning ham boshi qotibdi. Dehqon bobodan so`ragan ekan u:

- Yangi yopilgan nondan olib boringlar-chi, otam raxmatli, dunyoda eng lazzatli va yoqimli xid qayroqi bug`doy unidan yopilgan tandir non, hech qaysi xid unga yetolmaydi, deguvchi edilar, - deb maslahat berdi.

Navoiy hursand bo`lib, dehqon aytganini qilib, bir savat non yoptiribdi-da, saroyga etib boribdi. Bir zumda saroyga ajib yoqimli xid tarqab, barchaning dilini yashnatib yuboribdi.

- Rahmat do`stim, - debdi Husayn Bayqaro nonlarni ko`rib, ko`nglim yangi yopilgan non isini qumsayotgan edi, topib kelibsiz. Dunyoda yangi yopilgan nonning isidan ko`ra yoqimliroq xid yoq ...

- Sultonim rahmatni menga emas, dehqon boboga aytning, ko`nglingizni hohishini shu kishi topdi, deb javob beribdi Navoiy

Husayn Bayqaro dehqonga bosh-oyoq sarpo berishini buyuribdi.

Tarbiyachi: Bolajonlar sizlarga rivoyat yoqdimi?

1- bola: Ha yoqdi

Tarbiyachi: Bolajonlar sizlarga rivoyat yoqdimi?

2-Bola: Madinaxon mening dadam nonvoy

Didaktik o`yin:

“Mehmon-mehmon” o`yini.

Tarbiyachi: Bolalar kelinglar! Sizlar bilan hozir “Non olib keldim” she’rini o`qib beraman

Yolg`on emas chin so`zim,
Magazinda bir o`zim.
Ko`cha chetida yurib,
Ancha narsani ko`rib.

Qaytimni yo`qotmasdan,
Kuchukka tosh otmasdan.
Olib keldim issiq non,
Uyga kelganda mehmon.

Tarbiyachi: Bolalar she'r sizlarga yoqdimi

Bolalar javobi: Ha yoqdi

Tarbiyachi: Kunning ikkinchi yarmida albatta she'rni yod olamiz. Endi bolajonlar sizlar bilan birgalikda topishmoqlarni topamiz,

1. Bug`doyzorda yo`g`rilgan
Tandirda tug`ilganman (Non)
2. Eng totli ulug` ne'mat
Dasturxonga ko`rk ziynat (Non)
3. Dengiz emas chayqaladi
Dehqonni u boy qiladi (Bug`doyzor)
4. U Tugamas boylik kon
Unda bo`lar oshu non (Bug`doy)

Tarbiyachi: Bolajonlar topishmoq, she'r, rivoyatlar sizlarga yoqdimi?

Bolalar javobi: Ha

Tarbiyachi: (Faoliyatnakunida bolalar rag`batlantiriladi) va tarbiyachi mashg`ulotni tez aytish bilan yakunlaydi.

Nonvoy, nonvoy non yopar,
Nonni novvot deb sotar.

14-mavzu: “Non ham non, ushog`i ham non”

Faoliyat maqsadi: Bolalarga nonning azizligini, uni isrof qilmaslikka o`rgatish. Kattalar mehnatini tushunishi va hurmat qilishga o`rgatish.

Kerakli jixozlar: Hamirdan tayyorlangan non mahsulotlari, savatchada non, likopchalarida pishiriqlar, bug`doy boshoqlari tasvirlangan suratlar, juva, taxtacha, sochiq va tayyor hamr

Markazlar: Milliy burchak, Bolalar kutubxonasi markazi

Faoliyat borishi:

Tarbiyachi: Bolajonlar sizlar bilan bugun mashg`ulotimizda “Non ham non , ushog`i ham non” mvzusida suxbatlashamiz. Bizning mehnatsevar dehqonlarimiz kuz faslida dalalarga bug`doyni sepib qo`yadilar va yoz faslida hosilni yig`ishtirib oladilar. Bug`doy yoz faslida pishib yetiladi. Yetilgan bug`doyni yig`ib olishib tegirmonlarda yanchib tayyor un holati olib kelishadi. Tayyor un esaqoplarga joylanib nonvoxonalarga, do`konlarga jo`natiladi. Nonvoylar tomonidan va onalarimiz tomonidan turli tuman bir – biridan mazali nonlar pishirib do`kon, bozorlarimizga jo`natiladi. Bolajonlar hammamizning onalarimiz bizga issiq nonlar pishirib beradi-a to`g`rimi? Mana ko`rdinglarmi balajonlar non bizning rizq-ro`zimiz, dasturxonimiz ko`rki. Shuning uchun ham nonlarni isrof qilmaslik, uvog`ini ham yerga tushirmaslik kerak. Bolajonlar non haqida she'r va topishmoqlar bilasizmi?

1- bola:

Non yopganda mening oyim,
Kichik kulcha yopar doim.
Kulcha juda mazali,

Sedanali jizzali.
Yegan sayin yegim kelar,
Rahmat oyi degim kelar.

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar non haqida maqollar ham bilasizlarmi?

2- bola:

Non ham non,
Uvog`I ham non.

Tarbiyachi: Juda to`g`ri aytdingiz nonning uvog`I ham non hisoblanadi. Yerga to`kilgan uvog`larini ham terib olib qo`yish kerak. Hozir esa men sizlarga topishmoq aytaman.

Tog`orada shishadi,
Tandirda pishadi. (Non)

Tarbiyachi: Judayam to`g`ri barakalla. Endi bolajonlar sizlar bilan tayyor hamirdan zuvalachalar yasaymiz va kulchalar qilamiz. Nonlarni yasab bo`lgan bolalar tarbiyachining birinchi ko`rsatmasiga binoan gaz patnisi ustiga terib qo`yiladi. Patnisga terib qo`yilgan kulchalar bog`cha oshxonasida pishirib olib chiqiladi. Bolalar o`zлari pishirgan kuchlarni mazza qilib yeyishadi. Chiroyli bejirim yasalgan kulcha non egalari rag`batlantiriladi.

Tarbiyachi: Bolajonlar charchab qolmadingizmi? Endi bolajonlar sizlar bilan bilimlaringizni mustahkamlash uchun savol-javob qilamiz.

Tarbiyachi: Bug`doy qayerda yetishtiriladi?

Bolalar javobi: Dalada

Tarbiyachi: Yig`ib olingan bug`doy qayerga olib boriladi?

Bolalar javobi: Tegirmonga

Tarbiyachi: Tegirmonda bug`doyni nima qilishadi?

Bolalar javobi: Un tayyorlashadi

Tarbiyachi: Undan nimalar tayyorlanadi?

Bolalar javobi: Non, turli xil pishiriqlar

Tarbiyachi: Afsonadagi boy kishi o`zi bilan nima olgan?

Bolalar javobi: Juda ko`p oltin

Tarbiyachi: Afsonadagi kambag`al kishi o`zi bilan nima olib boradi?

Bolalar javobi: Bir halta qotgan non

Tarbiyachi: Bolajonlar Faoliyatsizlarga yoqdimi?

Bolalar javobi: Ha yoqdi

Faoliyataykunida faol ishtirok etgan bolalar tarbiyachi tomonidan rag`batlantiriladi.

15-Mavzu: “O’zbekistonning oq oltini”.

Faoliyatmaqsadi: Bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini aniqlab, O`zbekiston Davlat boyliklaridan bo`lgan paxta o`simligi haqida ularni tasavvurini kengaytirish. Paxtakorlar mehnati va oq oltindan olinadigon hom ashyolar haqida bilim berish.

Kerakli jihozlar: Paxta mulyaji, paxta, ip, mato, paxta dalalari va paxtakorlar tasvirlari.

Markazlar: “Tabiat va biz” faoliyat va “Milliy” faoliyat burchaklari. Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: Bolalar kelinglar sizlar bilan paxta o`simligi haqida suhbatlashamiz. Bilasizlarmi bolajonlar mirishkor dehqonlarimiz paxta chigitini erta bahorda ekib, suv berib, chopiq qilib, parvarish qilishdi. Kech kuzda mo`l xosil yig`ishtirib olinadi. Ona yurtimiz dalalarida bug`doy, sholi, makkajo`xori, poliz ekinlari, bog`u rog`lardan tashqari paxta ekini ham ekib, yetishtiriladi. Bolalar chigitdan o`sib chiqqan g`o`za juda chiroyli o`simlik. Barglari va gullari yirik, pushti va sariq rangda bo`lib faqat bir kun davomida

ochilib turadi. G`o`zaga yoz davomida dehqonlar ishlov berishadi. Asta sekin gul o`rnida mevalar-ko`saklar kuzda momiq tolalar bilan qoplangan paxta bo`lib ochiladi. Bolajonlar men sizlarga paxta mavzusida judayam ajoyib videorolik qo`yib beraman ko`rasizlarmi unda siz paxtani qanday yetishtiradi, yig`ishtirib oladi, undan nimalar ishlab chiqariladi, o`zingiz tanishib chiqasizlar. (tarbiyachi videorolikni bolalarga namoyish qilib beradi).

Bolalar videorolik sizlarga yoqdimi, ko`rdinglarmi bolajonlar paxta milliy boyligimizni qanday yetishtirishni va undan nimalar qanday tayyorlanishini. Endi sizlarga she`r o`qib beraman: Asom Ziyomatovning “Paxta”

Chanoqlarda oppoq paxta.
Kulib turar qanday baxt-a!
Erkalanib tebranadi,
Yal-yal yonib tovlanadi.
Rahmat senga aziz dehqon,
Uyding bizdan ulkan xirmon.
Mehnatingdan oltin bo`ldik,
Chanoqlarda lim-lim to`ldik.

Tarbiyachi: Bolajonlar sizlar ham she`r bilasizlarmi?

1-bola: Chaman-chaman paxtazor.

Sendan baxtin topdi.
Mehnat qilib paxtakor.

2- bola:

Men O`zbekni old kuchi,
Faxriman, g`ururiman.
Yurtning noni, kiyimi,
Boyligiman nuriman.

Tarbiyachi: Barakalla, bolalar dalalarda paxta yetishtiradigan mehnatkashlarimizni paxtakor deb ataymiz, Ular erta bahorda chigit ekib, yoz faslida g`o`zaga ishlov berib, yozning oxiridan kech kuzgacha mehnatlari mahsuli bo`lgan paxtani qo`lda va mashina yordamida terib olishadi. Bolajonlar paxtani bejiz “Oq oltin” deb atashmaydi, u koni foyda. Kundalik ehtiyojimiz uchun zarur paxta momig`idan ip, mato, matolardan kiyim-kechak, ko`rpa-to`shak tayyorlanadi. Chigitdanesa is’temol uchun paxta yog`i olinadi. Bularning barchasi ehtiyojlarimiz uchun ishlatiladi. Barchangiz tushundinglarmi?

Bolalar javobi: Ha

Muslima: Opa men ham she`r aytsam maylimi?

Tarbiyachi: Marhamat

1. Muslima:

Dehqon bobom yarim yil
Qildi meni parvarish,
Olti oy ertayu kech
Sira tugamaydi ish.

2-Bola:

Shuncha mehnat uchun

Unga eng zo`r mukofot
Yerning farzandi degan
Mo`tabar muqaddas zot

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar juda ko`p she`r yod olibszilar rahmat. Yana kim biladi?

3- Bola:

Oppoqina oshnang- men
Yumshoqqina oshnang – men
Egningdagi shu nimcha
Bari menman bilib ol
Paypoqlaring ham o`zim
Aytsam tugamas so`zim

Tarbiyachi: Judayam yaxshi, she`rlarni baingiz juda yaxshi aytib berdinglar, endi topishmoq aytaman topa olasizlarmikin.

Topishmoqlar:

1. Oq gulim oppoq gulim,
Ushlab ko`rsam yumshoq gulim.
Terib xirmon qilgan edim,
Bo`lib ketti “Oq tog`” gulim.

Bolajonlar javobi: Paxta

2. Tagida bor yulduzi,
Terib olsang bo`lar tog`.
O`rigidan chiqar yog`,
Darrov o`ylang bu haqda.

Bu nimadur ...

Bolalar javobi: Paxta

Tarbiyachi: Juda yaxshi bolajonlar she`rlarni, topishmoqlarni bilar ekansiz, paxtadan olinadigan mahsulotlar haqida bilimga ega bo`ldingiz. Endi “Paxtamizni teramiz” nomli harakatli o`yin o`ynaymiz.

16-Mavzu: “Oq oltindan olinadigan xom ashyolar”

Faoliyatmaqsadi: Oq oltindan olinadigan xom ashyolar haqida tushuncha berish, nutq boyligini va bilim darajasini oshirish. Oq oltindan nimalar olinishi va nimalarga ishlatilishini o`rgatish va o`yin orqali mustahkamlash.

Ko`rgazmali jixozlar: mavzu yuzasida surat va xom ashyolar.

Markazlar: Milliy burchak, bolalar kutubxonasi, o`yin markazi “Ferma”, “Tabiat va biz” faoliyat markazi.

Faoliyatning borishi:

Bolajonlar qo`limdagi suratga qaranglar, bunda oq oltinimiz paxta rasmi tasvirlangan. Bolalar paxtani qanday qilib yetishtirilishini bilasizmi? Paxtani dehqon, fermerlarimiz yetishtiradi. Avval yerni yumshoq qilib traktorda haydatib, yerni ontaradi, so`ng agat oladi, olingan agatiga yana traktorda chigit ya`ni (paxta urug`i) ekadi va ustidan salafan tortib chiqadilar, so`ng unga suv quyib sug`orishadi. Bolalar paxtani ham barpo bo`lishi oson emas ekan, paxtamiz borgan sari unib o`sib chiqadi, katta bo`lgandan so`ng g`o`za bo`ladi. G`ozamizning tagini yumshatib suv quyishadi va gullay boshlaydi so`ng ko`sak tugadi, ko`sakochilib paxta chiqadi.

Tarbiyachi: Bolalar mana paxtamizni ochilishini ham bilib oldik endi esa paxtani qo`limiz bilan teramiz, hosilimizni yig`ib olamiz hammamiz birgalikda paxta terish mashg`ini bajaramiz.

Bolalar qo`llarini harakat qildirib paxta teradilar.

Tarbiyachi: Bolajonlar paxtani rangi qanday bo`ladi?

1-bola: Paxtani rangi oq bo`ladi

Tarbiyachi: Bolalar sizlarga topishmoqlar aytaman!

1. Qorday oppoq

Yungday yumshoq (paxta)

2. Yerda ko`karib chiqar,

Bargida oltin lola (paxta)

3. Momiqqina onasi

Yog`liqqina bolasi (paxta, chigit)

Bola: Paxta va chigit deb javob beradi.

Tarbiyachi: Bolalar kelinglar! Paxta va chigit so`zini bo`ginlarga bo`lamiz

Pax-ta, chi-git

Bola: 2 bo`gindan iborat

Tarbiyachi: Bolajonlar paxta bu bizning oq oltinimiz, undan gazlama yog`,sovun va hayvonlar uchun yemlar olinadi.

Tarbiyachi: Bolalar gazlamalarni nimalar uchun ishlatamiz?

Bolalar: Kiyim – kechaklar uchun

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar oqyog` vasovunlarni nimalarga ishlatamiz?

Bola: Oqyog`ni oshpaz opalarimiz mazali taomlar pishirish uchun,sovundi onalarimiz kir yuvishi uchun ishlatishadi.

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar, bizning eng katta boyligimizdan biri bu paxta hisoblanadi. Kelinglar birgalikda hammamiz sovunda qo`l yuvich mashg`ini bajaramiz. Avval qo`llarimizni yuvamiz so`ng, sovunlaymiz, yaxshilab gupirtirib, so`ng yaxshilab yuvib tashlaymiz.

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar

Bolajonlar kelinglar birgalikda “Paxta” she’rini yod olamiz

Chanoqlarda oppoq paxta

Kulib turar qanday baxt-a

Yal-yal yonib tovlanadi

Rahmat senga aziz inson

Olding bizdan ulkan xirmon

Mehnatindan oltin bo`ldik

Chanoqlarga lim-lim to`ldik

Tarbiyachi: Kelinglar bolajonlar hammamiz o`rnimizdan turib paxtani ochilishini birgalikda bajaramiz. Hammamiz o`tiramiz, qo`limizni oldiga cho`zibboshimizni egamiz. Asta-sekinlik

bilan o`rnimizdan turamiz, boshimizni ko`tarib, qo`llarimizni ochamiz ana shunday paxtamiz ochildi, bolajonlar yana takrorlaymiz.

Hamma bolalar mashg`ulotga yaxshi qatnashdilar.

Tarbiyachi: Faoliyataykunida bolalar rag`batlantiriladi

17-mavzu: “Havo, yer, suv, yer usti transportlari”

Maqsad: Bolalarga transport to`g`risida tushuncha berish hamda transportning havo, suv, yerda harakatlanadigan turlari haqida umumiy ma'lumotlar berish, transportlarni hayotimizdagi ahamiyati, uning qaysi turidan qanday foydalanish kerakligi hamda transport vositalaridan o`zimizni munosib tutishimizni kerakligini o`rgatish.

Kerakli jixozlar:

Mavvuga oid rasimlar, qog`oz, rangli qalamlar. Transport vositalarining rasimlari va o`yinchoqlari.

Markazlar: “Avtomobil turargohi”, “Tasviriy faoliyat” va “O`yin va o`yinchoqlar”.

Faoliyatning borishi: Bolalar stol atrofida o`tirib oladilar.

Tarbiyachi: Assalomu-alaykum, bolajonlar. Hammangizni mashg`ulotga tayyorlanib o`tirib olamiz. O`ng tamonga qaraymiz, chap tomonga qaraymiz. Hammamiz xursand bo`lib mashg`ulotni boshlaymiz. Bolajonlar bugungi mashg`ulotimizda sizlar bilan havo, suv, yer ustki transport vositalari haqida suhbatlashamiz. Hozir men sizlarga topishmoq aytaman.

Uchta ko`zli qarang

Yonar rang barang

Bolajonlar javobi: Svetafor

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar, bolajonlar bilasizlarmi yerdagi barcha transport vositalari svetafor bilan boshqariladi. Hozir men sizlarga rasim ko`rsataman, sizlar uning nomlarini aytasizlar. (**tarbiyachi poyezd, samalyot, mashina, avtobus, kema, vertalyot rasimlarini ko`rsatadi, bolalar ularning nomlarini aytib beradi**).

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar, sizlar transport vositalarining nomlarini yaxshi bilar ekansizlar. Endi ularning qanday vazifa bajarishlarini qisqacha aytib o`taman. Poyezd yer ustki transporti hisoblanib, u odamlar va yuk tashish uchun mo`ljallangan bo`ladi. U maxsus temir yo`llarida harakatlanadi. Kelinglar turgan joyimizda harakatlanib poyezd harakatini o`xshatamiz. (**Bolalar turishadi, turgan joyda, jo`r bo`lib poyezd ovoziga va harakatiga taqlid qilishadi**).

Tarbiyachi: Bolajonlar, uzog`imizni yaqin qilishda mashinalar bilan avtobus ham millionlab odamlarga xizmat ko`rsatadi. Bolajonlar, avtobusda o`zimizni qanday tutishimiz kerak?

1-bola: Avtobusda ko`p kulish, haydovchiga halaqit berish mumkun emas.

2-bola: Baland ovozda gapirmaslik yugurib yurmaslik kerak.

3-bola: Oynadan boshini chiqarish mumkun emas

Tarbiyachi: Judayam to`g`ri bolajonlar, bu bildirgan fikrlaringizga men ham qo`shilaman. Bolalar kim menga havo transporti nima ekanini aytib beradi?

1- Bola: Samolyot va vertalyot

Tarbiyachi: Samalyot va vertalyot qanday harakatlanadi, kim ko`rsatib beradi? Bolalardan ikkitasi turib samalyot va vertalyot uchgandek harakatlanadi.

Tarbiyachi: (jismoniy daqiqo o`tadi)

Xoy samalyot, samalyot,
Seni yaxshi ko`ramiz.
Uchib o`tsang osmondan,
Quvnab qarab turamiz.

Tarbiyachi: Endi bolalar suvda harakatlanadigan transportlar nomlarini aytib beringlar.

1-bola: Paraxod, kema, qayiq

Tarbiyachi: Ikki xil suv ustki va suv ostki kemalari bo`ladi. Biz suv usti kemalari haqida tasavvurga ega bo`ldik. Kelinglar birgalikda suv usti kemasini maketini yasaymiz. (**Bolalar tarbiyachining ko`rsatmasi bilan oq qog`ozdan kema maketini yasashadi**).

Tarbiyachi: Barakalla bolalar, sizlar yasagan kemalar bir-biridan chiroyli chiqibdi. Endi aytinlarchi, Vatanimizda qanday avtomashinalar ishlab chiqariladi. (**Bolalar avtomashinalar markalarini sanashadi**).

Tarbiyachi: O`zbekistonning Andijon, Xorazm, Samarcand viloyatlarida turli xildagi avtomashinalar ishlab chiqariladi. Bolajonlar, kelinglar endi har birimiz o`zimizga yoqqan transport vositalarining rasmini chizamiz. (**Tarbiyachi chizishga qiynaloytgan bolalarga ko`maklashadi, chizdirish davomida bolalar ishini rag`batlantirib turadi**).

18 - Mavzu: “Men haydovchi bo`lamani”

(O`yin tarzida)

Maqsad: Bolalarni haydovchi kasbi haqidagi tushunchalarini aniqlash va mustahkamlash. Ularning faoliyatları haqidagi bilimlarini kengaytirish. Bolalarga yo`l harakati qoidalari bilan tanishtirishni davom ettirish.

Markazlar: Avtomobil turargohi, o`yin va o`yinchoqlar markazlari.

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: Bolajonlar bugungi mashg`ulotimizni sayr tariqasida olib boramiz. (Sayr vaqtida bolalar bilan avtomobillar turargoxi markaziga sayr qilishadi, sayr davomida bolalarga ko`cha harakat qoidalariga rioya qilishlariga ahamiyat berishlari to`g`risida ko`rsatmalar beriladi).

Tarbiyachi: Bolajonlar avtobus, damas, yuk mashinasini boshqaruvchilarini kimlar deb ataymiz?

Bolajonlar javobi: Haydovchilar

Tarbiyachi: Haydovchi kasbi haqida bilganlarizi aytib beringchi!

Bolalar javobi: Transportlarni boshqaruvchi insonlarni haydovchilar deymiz, ular havo, suv, yer trasnportlarini boshqaradi.

Tarbiyachi: Judayam to`g`ri. (Bolalar javobini umumlashtirib haydovchilik kasbiga ta`rif beradi) Bolajonlar transport boshqaruvchilarini biz haydovchilar deb ataymiz. Haydovchilar vazifalariga ko`ra yuk tashish, yo`lovchilik qilish bilan farqlanadi. Haydovchilar nafaqat o`z mashinalarini boshqaradi balki uning ozodaligini, mashinani ichki mehanizimini yaxshi

ishlashini ham ta'minlab, nosozlikni oldini olib turadilar. Chunki haydovchilar, yo'lovchilar havfsizligiga javobgardirlar. Haydovchilar yo'lovchilarni uzog`ini yaqin qilib, ularning manzillariga eltilib qo`yadilar. Yuk tashuvchi mashinalarning haydovchilari insonlarning uyro`zg`or ishlarida nixoyatda kerakdir. Ayniqsa qurilish jixozlarini tashishda yuk tashuvchi mashinalar eng qulay hisoblanadi.

Tarbiyachi: Bolajonlar qaysi biringizni ota-onangiz haydovchi bo`lib ishlaydi?

1-Bola: Mening dadam avtobus haydaydi

2-Bola: Mening akam yuk mashina haydaydi

3-Bola: Mening dadamni damazi bor

Tarbiyachi: Bolajonlar sizlarga ham haydovchilik kasbi yoqadimi?

Bolalar javobi: Ha yoqadi men ham katta bo`lsam mashina haydayman

Tarbiyachi: Bolajonlar haydovchilar uchun yo`l harakatini kim tartibga solib turadi?

Bolalar javobi: Yo`l harakati nazoratchisi, svetafor tartibga solib turadi.

Tarbiyachi: Haydovchilik kasbi juda ham mas'uliyatlilasib. Chunki haydovchilar insonlar hayoti uchun javobgar hisoblanadi. Nima uchunligini tushunib oldinglarmi?

Bolalar javobi: Ha

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar sizlar yaxshi tushunib olibsizlar. To`g`ri haydovchilar yo'lovchilarni, piyodalarni hayotini muhofazasini har doim o`ylab, diqqat e'tiborli bo`lishlari lozim.

Bolajonlar hozir biz sizlar bilan “Diqqat” o`yini o`ynaymiz.

Bolalar doira shaklida turib oladilar. Boshlovchi bola tanlab olinib bolalarga to`pni birin ketin otadi va shunday deyish kerak. “Havo transporti” kim to`pni qo`lga olsa, o`sha bola havo transporti turlarini aytishi lozim yoki bo`lmasa yerda yuruvchi transport to`p qo`liga tekkan bola yerdagi transportni sanab o`tishi kerak. Kimki transportni nomini ayta olmasa u o`yindan chiqadi. O`yin oxirida faol bola aniqlanadi va rag`batlantiriladi. Faoliyat yuzunida tarbiyachi bolalarga haydovchilik kasbi haqida she'r o`qib beradi.

“Haydovchi”

Mashinam yangi,
Qip-qizil rangi.
Minaman shoshmay,
Yo`ldan adashmay.

19-Mavzu: “Yo`l harakati qoidalarini bilasizmi?” mavzusida suhbat

Maqsad: Bolalarda yo`lda yurish madaniyatini, ko`nikmalarini hosil qilish ularda yo`llarda yo`lkalarning o`ng tomonidan yurish, yo`lni belgilangan joylaridan kesib o`tish qoidasiga rivoja qilish va svetafor hamda yo`l harakatini tartibga soluvchilarning boshqarib turishi haqida ma'lumot berish.

Kerakli jixozlar: Turli syujetli rasimlar.

Markazlar: “Bolalar kutubxonasi” markazi, “Avtomobil turargohi”

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: Bolalar safga tizilib Faoliyato`tkaziladigan yo`lga yoki avtomaydonchaga kelishadi.

Tarbiyachi: Yo`l qoidasiga tegishli ba`zi narsalarni bolalarning esiga tushirish maqsadida bir nechta savollar beradi.

Tarbiyachi: Mana bu nima?

1- Bola: Tratuar

Tarbiyachi: Barakalla to`g`ri. Manabu uzuq-uzuq oq chiziqlarchi:

2-Bola: Piyodalar o`tish joyi

Tarbiyachi: Juda to`g`ri bolalar. Bu yerga qanday to`gri yo`l belgisi o`rnatalgan?

3-Bola: Piyodalar o`tish joyi belgisi

Tarbiyachi: Judayam to`g`ri bolajonlar. Qani Muhammad Yusuf, belgilar ichidan ana shu belgini topib berinchi?

Tarbiyachi: judayam to`g`ri. Bolalar piyodalar, ya`ni bizlar yo`lda ketayotganimizda qayerda yurishimiz kerak?

Bolalar javobi: Yo`lkada

Tarbiyachi: To`g`ri, endi Mustafo bilan Robiya yo`lning bir tomonidan, Raxminso bilan Xumoyun esa ikkinchi tomonidan yurishadi. Biz ularning harakatini kuzatamiz.

Tarbiyachi: -Bolalar qaranglar Mustafo bilan Robiya boshqalarga xalaqit bermasligi uchun yo`lakning o`ng tomonidan ketishyapti. Ana ular piyodalar o`tish joyidan o`tishmoqda. Ammo ular bir hatoga yo`l qo`ydilar.

Qani, kim aytadi. Ular qanday xatoga yo`l qo`yishdi.

Bolalar javob qaytarishga qiynalishdi.

Tarbiyachi: Qanday xatoga yo`l qo`yilganini o`zim tushuntirib beraman. Bolalar bilasizlarmi, Mustafo bilan Robiya yo`lni kesib o`tishdan oldin, mana bu rasdagidek chap tomonga, yo`lning o`rtasiga yetganda esa o`ng tomonga qarashni esdan chiqarishdi. Shuning uchun ularni yana bir bor piyodalar o`tish joyidan o`tkazamiz. Qani, yana qayta o`tinglarchi. Endi to`g`ri o`tishdi.

Tarbiyachi: Shundaymi? Bolalar qaranglar, Po`lat, Salima va Ozoda yo`lkada qo`l ushlashib kelishyapti. Ular to`g`ri yurishyaptimi?

Tarbiyachi: Yo`q chunki ular yo`lakni butunlay egallab olib boshqalarning yurishiga yo`l qoldirishmadid. Bu esa noto`g`ri. Bolalar, qishloq yo`llari va yo`lkalari yo`q joylarda yo`lning chap tomonidan yurishga ruhsat etiladi. Bolalar mana bu mashina to`xtab turibdi. Uning faqat orqa tomonidan o`tishimiz kerak. Shunda xavfsiz bo`ladi.

Tarbiyachi: Rasimdagi mashinaning rasmini ko`rsatib so`raydi. Bolalar bu nima?

Bolalar javobi: To`g`ri, to`xtab turgan mashinaning oldidan o`tish kerakmi yoki orqasidanmi?

Bolalar javobi: Oldidan o`tish kerak.

Tarbiyachi: Mashinani oldidan zinxor o`tish kerak emas. Chunki, ikkinchi tomonдан kelayotgan mashina ko`rinmaydi. Uning faqat orqa tomonidan o`tishga ruxsat etilgan.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Piyodalar qayerlarda yuradilar?
2. Yo`lakning qaysi tomonidan yurish kerak?
3. Yo`lning qayeridan kesib o`tishga ruxsat etiladi?
4. To`xtab turgan mashinaning qaysi tomonidan aylanib o`tishi kerak?

20-Mavzu: “Chorrahada svetafor, teatrga sayohat”.

Maqsad: Bolalarga yo`l harakati qoidalarini bilishga va unga riosa qilishga o`rgatish. Yo`l harakati belgilari, svetafor, piyodalar o`tish chizig`I yo`llari haqida bilish ko`nikmalarini mustahkamlash.

Kerakli jixozlar: O`yin va o`yinchoqlar, milliy markaz, tasviriy faoliyat burchagi.

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: bolalar sizlarga topishmoqlar aytaman. Qani topingchi? Chorrahada uch chiroq, xizmat qilar hammaga. Bir-bir yonib, bir o`char, ish qolmas muammoga.

Bolalar javobi: svetafor

Tarbiyachi: Aziz bolajonlar bugun sizlar bilan yo`l harakati qoidalari, chorrahadagi svetafor haqida suhbatlashamiz. (**bolalarining mavzu yuzasidan bilimlarini aniqlash uchun tarbiyachi savol-javoblar o`tkazadi**).

Tarbiyachi: 1. Ko`cha yo`l harakati qoidalarni bilasizmi? 2. Katta asphalt yo`llarda nimalar yuradi? 3. Yo`l harakati qoidalarni kim tartibga soladi? 4. Svetaforning nechta chirog`i bor?

Bolalar javobi: Uchta qizil, sariq yashil

Tarbiyachi: Barakalla bolalar svetaforning uchta chirog`i bor. Bolajonlar svetaforning qizil chirog`i yonsa yo`l berilib, yo`lovchilar harakatlanadilar. Svetaforni sariq chirog`i yonsa bir oz haydovchilar, yo`lovchilar to`xtaydilar. Yashil chiroq yonsa mashinalar o`tadi. Nazoratchi ko`cha harakatini tartibga soladi. Insonlar tomonidan ko`chada yurish tartibi buzilish holati ro`y bersa, nazoratchi insonlarni to`xtatib, ularga ko`chada yurish tartibini tushuntiradi. Bolajonlar eshik taqillayapti? Qani kim u? (**guruhg`a nazoratchi tashrif buyuradi, bolalar bilan salomlashadi, savol-javob o`tklazadi. So`ng ko`chada yurishda nimalarga riosa etilishlari tushuntiriladi. 1- ko`chada faqat yo`lakdan yuring. 2- to`xtab turgan avtomobil orqasidan o`ting. 3- chorrahadan, ko`chaning narigi yuzasiga piyodalar yo`lakchasidan o`ting deb bolalar bilan hayrlashib ketadi**).

Tarbiyachi: Bolalar hammamiz tushunib oldik-a, ko`cha qoidalari buzilsa qanday noxush voqealar yuz berishi mumkunligini? Bolalar javob berishadi.

Tarbiyachi: Bolalar javoblarini umumlashtirib, “Davlat avtomobil nazoratchisi”o`yinini o`ynashni taklif etadi. O`yinning borishi: O`yin matabgacha ta`lim muassasalari hovlisidagi yo`l harakati chizilgan maydonda o`tkaziladi. Bolalardan biri nazoratchi etib tayinlanadi. O`yin jarayoniga tarbiyachi rahbarlik qiladi. (**masalan: Diqqat, diqqat! Qizil chiroq yoqiladi, yengil avtomobillar harakatdan to`xtaydi, yo`lovchilar harakat qiladilar. Svetaforda yashil chiroq yonyabdi, demak avtomobillar harakat qiladilar. Shu tariqa avtomobillar, yo`lovchilar harakati qatiy tartibda nazoratga olinadi**).

Tarbiyachi: Mana bolalar sizlar bilan yo`l harakati haqida ko`proq narsalar bilib oldik. Endi sizlar bilan qo`g`irchoq teatriga sayohat qilamiz. Qani bolalar ketdik. Barchamiz yo`l harakati qoidalariiga amal qilamiz-mi.

Bolalar javobi: Ha

21-Mavzu: “Shoshilinch tezkor harakat xizmatlari”.

Maqsad: Hayotda uchraydigan facqulotda vaziyatlarda shoshilinch ravishda telfondan foydalanishni o`rgatish. “101”, “102”, “103”, “104” kasb egalari haqida to`liq tushuncha berish. Hayotda xavf tug`diradigan voqealari va hodisalarga munosabat bildira olishga hamda o`zini himoya qila olishga oid harakatlarini o`rgatish. Xavf tug`diradigan narsa va buyumlarni bilishga va rasmini chiza olish ko`nikmalarini shakllantirish. Hamkorlikda va

juftlikda ishlashga o`rgatish. Faoliyatdavomida shoshilmaslikka, o`yin jihozlaridan extiyotkorona munosabatda bo`lishga odatlantirish.

Kerakli jixozlar: “101”, “102”, “103”, “104” kasb egalarining tanishtiruvchi ko`rgazmali qurollar , suratlar, o`ynash uchun zarur bo`lgan buyumlar.

Markazlar: “Shifoxona”, “Oshxona”, va “O`yin va o`yinchoqlar” burchaklari.

Faoliyat markazi:

Tarbiyachi: Aziz bolajonlar, bugun sizlar bilan qiziqarli o`yin o`rganamiz. Hozir biz hamkorlikda ishlash uchun guruhlarga bo`linib olamiz. Buning uchun mana bu yerdagi shakl bo`laklarini olamiz va ularning qismlarini birlashtiramiz. Hosil bo`lgan raqamlarni olib, shu raqamlar qo`yilgan stullarga o`tiramiz. Hamma o`z joyini egalladimi.

Bolalar javobi: Ha (**bolalar tayyorlab qo`yilgan stullarga joylashadilar**).

Tarbiyachi: Bolalar, guruhlarda ishlash uchun “Oltin qoidalar”ni eslab olamiz.

Bolalar javobi: 1-mashg`ulotda yaxshi o`tiramiz. 2-diqqat bilan quloq solamiz. 3-savollarga to`g`ri javob beramiz. 4-do`stlarimizga ko`maklashamiz. 5- mashg`ulotda faol ishtirok etamiz.

Tarbiyachi: Barakalla bolalar, qaranglar, stolmizda nimalar turibdi? “101” raqami nimani anglatadi? – Yong`in xavfsizlik xizmatini. “102” raqami nimani anglatadi? – Militsiya xizmatini. “103” raqami nimani anglatadi?- Tez yordam xizmatini. “104” raqami nimani anglatadi?- Gaz xizmatini.

Tarbiyachi: Ularda qanday kasb egalari ishlaydilar? Ular qanday vazifalarni bajarishadi? (**tarbiyachi kichkintoylar fikrini umumlashtiradi va hamkorlikda ishslashning ahamiyatini tushuntiradi**).

Tarbiyachi: Bolajonlar, bugun guruhimizga biz tanishayotgan kasb egalari mehmon bo`lib kelishgan. Hozr ular bilan suhbat o`tkazamiz. (**navbat bilan kasb egalari o`z kasblari haqida gapirib beradilar**).

Tarbiyachi: bolajonlar, bugun sizlar meni juda ham hursand qildingiz. Buning uchun sizlarni shirinlik bilan siylayman. (**Bolalarga konfetlar tarqatiladi. Kichkintoylar konfet qog`ozlariga qarab juftlikka bo`linib olishadi. Har bir juftlik hayotimiz uchun xavfli bo`lgan buyumlarni tasvirlab beradi.** Tarbiyachi bolalar tomonidan tayyorlagan rasmlar ko`rgazmalarini tashkil etadi va bolalarga hayotga xavf-xatar tug`diradigan ashyolarning juda ko`pligini va ulardan hayotda to`g`ri foydalanish qoidalarini tushuntiradi).

Tarbiyachi: (**bolalarni yarim doira shaklida o`tkazib oladi**). Bolajonlar, endi sizlar bilan “Men uchun juda qiziq” o`yinini o`ynaymiz. (**tarbiyachi bolalarga koptokni otib, “Sizga nima eng qiziq bo`lib tuyuldi?”-deb navbat bilan so`raydi.** Bolalar javobini umumlashtiriladi. **Kichkintoylar tarbiyachi tomonidan rag`batlantirilib,**

Faoliyat yuqunlanadi).

22-Mavzu: “Yong`in xavfsizligi” mavzusida suhbat

Maqsad: Bolalarni yong`in xavfsizlik qoidalari bilan tanishtirish va insonlarni xavf-xatarlardan muxofaza qilayotgan tashkilotlari haqida tushuncha berish. Kishilarning hayotlari, mol-mulkulari xavf ostida qolishiga nimalar sabab bo`lishi haqidagi tushunchalarga ega bo`lish. O`t o`chirishda zamonaviy asbob-uskunalar, ularning bevosita vazifalari bilan tanishtirish. Hayot xavfsizligi haqidagi tushunchalarni takomillashtirish.

Kerakli jixozlar: Mavzuga oida rasimlar, suv, qum va yong`in xavfsizligi bo`yicha tarqatma materiallar.

Markazlar: fan va tabiat markazi

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: Aytinglarchibolajonlaryong`in xavfsizligi deganda nimalarni tushunasizlar.

Bolalar javobi:

Tarbiyachi: Bolalar olov deganda nimani tushunasizlar?

Bolalar javobi:

Tarbiyachi: To`g`ri bolajonlar olov issiqlik, yorug`lik demakdir. Shu bilan birga olov xalokat, kulfat hamdir. Ota-bobolarimizolovdan extiyotkorlikbilan foydalanishga harakat qilishgan. Lekin olov har doim ham insonlarga itoat qilmagan ularning boshiga kulfatlar solgan. Keyinchalik yong`in saqlash xizmatlari tashkil qilingan. O`t o`cherish xizmati uchun “101” raqami joriy qilingan. Hozirda zamonaviy asbob uskunalar bilan jixozlangan. Men sizlarga o`t ochirish modulini ko`rsataman. Bolalarning e`tiborini uning rangiga, asbob uskunalariga qaratadi. Yoritgich, o`t o`cherish shlangi nima uchun kerakligi haqida tushuntirib beradi.

Tarbiyachi: Bolalar o`yinchoq mashinasini ko`rib chiqqanlaridan so`ng, o`t o`chiruvchi hodimning, maxsus kiyimda turgan suratini ko`rsatadi. Bolalar o`t ochiruvchining ustiboshiga diqqat bilan qarashni taklif etadi. O`t o`chiruvchilarining ustidagi po`lat qalpog`idan qaysi vaqtida qanday foydalanishlari haqida tushuntirib beradi.

Tarbiyachi: Bolalar sizlar nima deb o`ylaysizlar yong`in nimalardan kelib chiqadi.

Bolalar javobi: Kattalarni e`tiborsizligidan, gugurt o`ynashdan, gazlarni ochiq qolishidan.

Tarbiyachi: To`g`ri bolajonlar. Shuning uchun bor imkoniyatimizni ishga solib yong`in chiqishlarini oldini olaylik. Endi sizlarga “O`t o`chiruvchi” she`rini o`qib beraman.

Eshting o`g`il qizlarim,
Judayam yaxshisizlar.
O`ynamanglar o`t bilan,
O`ynamanglar gugurt bilan.
Degan gaplarni eslang,
Boshqacha o`yin izlang.
Tag`in bir so`z bor sizga
Tushuray esingizga
“01”ga qilsak habar
U bola mard bo`ladi
Ko`pning ko`ngli to`ladi
Tilagi omonlikdir
Ashi qahramonlikdir
Niyatimiz eng katta
Ko`pga maqul albatta
Obod bo`lsin keng jaxon
Yoqilmasin hech qachon
Urushlarning olovi
Topilsin yo`l qalovi

Endi bolajonlar sizlar bilan “O`t o`chiruvchilar mashq”da harakatli o`yinini o`ynaymiz. O`yin o`ynatib Faoliyataykunlanadi. Mashg`ulotda faol ishtirop etgan bola rahbatlantiriladi.

24-Mavzu: “Mening chiroyli kemacham” mavzusida suhbat

Maqsad: Bolalarga suv transportlari haqida tushuncha berish. Mavzuni mustahkamlash, nutq madaniyatini oshirish, lug`at boyligini kengaytirish.

Kerakli jixozlar: Mavzuga oid rasimlar, tarqatma materiallar, bolalar ijodidagi ishlardan namunalar.

Markazlar: Bolalar kutubxonasi, tasviriy faoliyat, qurish yasash, o`yin va o`yinchoqlar markazi

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: Bolalar bugun biz sizlar bilan atrof olam mashg`ulotida “Mening chiroyli kemacham” mavzusida suhbatlashamiz. Bolalar suv usti transportiga qaysilar kiradi. Ularning nomlarini menga kim sanab beradi?

1-bola: kema, qayiq, paravoz

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar, bu transportlarni nima uchun yer usti transportlari deb ataymiz?

2-bola: chunki hammasi suvda yuradi.

Tarbiyachi: To`g`ri bolajonlar men hozir sizlarga “Hazrat Nuxning” kemasni va to`foni hodisasi ibratli hikoyasini o`qib beraman. Bolalar endi ushbu hikoya asosida savol-javob o`tkazamiz.

Tarbiyachi: Bolalar sizlarga bir topishmoq aytaman va javobini topasizlar, keyin bo`ginlarga ajratamiz.

Qanoti bor ucholmaydi

Quruq yerni qucholmaydi

Bolalar javobi: Kema

Tarbiyachi: Endi kema so`zini bo`g`inlarga ajrataylik!

1-bola: Ke-ma ikki bo`g`indan iborat

Tarbiyachi: Barakalla endi bolajonlar hammamiz birligida kema rasmini chizamiz. Chizish uchun bizlarga nimalar kerak bo`ladi?

Bolalar javobi: oq qog`oz va qalamlar

Tarbiyachi: Barakalla kim chizgan kema chiroyli chiqar ekan. Kemani chizishda biz qanday shakldan foydalanamiz?

Bolalar javobi: Yarim doira shaklidan

Tarbiyachi: Raxmat. Bolalar qayiq, kema, paravozlardan nimalar uchun foydalanamiz qani kim menga aytadi?

1-bola: qayiqda o`tirib baliq tutish uchun

2-bola: kemada katta katta yuklarni tashish uchun

3-bola: paravozda sayrga chiqishda, atrofni kuzatishda

Tarbiyachi: To`g`ri bolajonlar bizga suv osti transportlari ham juda kerak ekan! Bolalar kelinglar endi birligida lego o`yinchoqlarimizdan foydalanib qayiqcha yasaymiz. Tarbiyachi birligida qayiqcha yasaydilar. Mashg`ulotga faol qatnashgan bolalarni rag`batlantiriladi.

23-Mavzu: “Bizning yaxshi ishlarimiz”

(Bolalar ijodidan)

Maqsad: Bolalar tevarak atrof haqidagi bilimlarini kengaytirish, qilinayotgan yaxshi ishlar haqida umumiy tushuncha berish. Bajargan ishlariga ijobiy munosabatda bolishga, birlik va ko`plik qo`shimchalari, savollarga aniq va to`liq javob berishga o`rgatish. Topishmoqlarni sezgirlik bilan topib, javoblarini to`g`ri talaffuz qilishga o`rgatish.

Kerakli jixozlar: Mavzuga oid rasimlar, Bolalar kutubxonasi, O`yin markazi.

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: Assalomu alaykum, bolajonlar. Bugungi mashg`ulotimizda sizlar bilan oy mavzusi asosida yaxshi ishlarimiz haqida suhbatlashamiz.

- bilasizlarmi bolajonlar yerdagi barcha transport (turli) vositalar, svetafor bilan boshqariladi. Hozir men sizlarga rasim ko`rsataman, sizlar esa uning nomini aytasizlar.

(Poyezd, samalyot, mashina, avtobus rasimlari ko`rsatiladi).

Bolalar javobi:

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar sizlar transport vositalarining nomlarini yaxshi bilib olibsiz. Endi ularning qanday vazifa bajarishini so`rayman.

- Poyezd qaysi yo`lda harakatlanadi?

Bolalar javobi: poyezd maxsus temir yo`lida harakatlanadi. Kelinglar birgalikda poyezd ovozini o`xshatamiz?

(Bolalar jo`r bo`lib poyezd ovoziga taqlid qilishadi).

Tarbiyachi: Avtobusda o`zimizni qanday tutishimiz kerak?

1-bola: Avtobusda ko`p kulish, haydovchiga halaqit berish mumkun emas

2-bola: Yugurib yurish, oynasidan bosh chiqarish mumkun emas.

Tarbiyachi: Kim menga havo transportlarini nima ekanini aytib beradi?

1- bola: samalyot, vertalyot, raketa

Tarbiyachi: Samalyot qanday harakatlanadi? Qani kim menga ko`rsatib beradi?

(Bolalardan biri samalyot uchgandek qo`llarini harakatlantiradi)

Tarbiyachi: Endi kim menga suvda harakatlanadigan transportlarni aytadi?

2-bola: Paraxod, kema, ayiq

Tarbiyachi: Topishmoq aytaman javobini toping!

1. Navkar otim gub etdi.

 Fazoni yorib o`tdi. (raketa)

2. Keng fazoni quchadi,

 Oylab yillab uchadi (raketa)

Tarbiyachi: Bolalar Faoliyatdavomida nimalarni rasmini chizdingiz

Bolalar: samalyot rasmini chizdik.

1-bola: Plastilindan samalyot yasadik

2-bola: Rangli qog`ozdan kema yasadik

Tarbiyachi: Sizlar yasagan kemalar bir biridan chiroqli

Tarbiyachi: Ko`chain kesib o`tayotganda nimaga e`tibor berib o`tishimiz kerak

Bola: Svetaforni chirog`iga qarab o`tishimiz kerak

Tarbiyachi: Svetaforni nechta chirog`i bor?

Bola: 3 ta qizil, sariq, yashil

Tarbiyachi: Yo`lni kesib o`tganda qaysi chiziqni kesib o`tamiz?

Bola: Zebra chizig`ini bosib o`tamiz

Tarbiyachi: Vatanimizda qanday avtomashinalar ishlab chiqiladi?

Bolalar javobi: (Mashina turlarini sanashadi)

Tarbiyachi: Bolalar kim mashina haqida she`r biladi?

Bola: G`ir-g`ir yurar mashinam

 Viz-viz yurar mashinam

 Vintini burab qo`ysam

Tarbiyachi: Barakalla bolajonim. Kim katta bo`lsa shafyor bo`ladi?

Bolalar havobi:

Tarbiyachi: Bolalar bizlarga kimlar shoshilinch xizmat ko`rsatadi?

Bolalar: Shifokorlar, o`t o`chiruvchilar

Tarbiyachi: Barakalla bolalar shifokorlar qande xizmat ko`rsatadilar?

Bolalar: Birinchi tez yordam beradilar

Tarbiyachi: O`t o`chiruvchilar qande xizmat ko`rsatadilar?

Bolalar: Yong`inni bartaraf etadi.

Tarbiyachi: Faoliyatdavomida nimalarni o`rgandingiz?

1-bola: Tez yordam mashinasini rasmini rangli qog`ozdan yasashni o`rgandik

2-bola: Tez yordam mashinasini rasmini chizdik

Tarbiyachi: Kim shifokor bo`lmoqchi?

Bolalar javobi:

Tarbiyachi: Shifokor nimalar bilan shug`ullandi?

1- bola: tishimiz og`risa davolaydi

2-bola: Issig`imizni o`lchaydi

Tarbiyachi: Bolajonlar biz sizlar bilan transport turlari bilan tanishdik va ular haqidagi bilimga ega bo`ldik. Piyodalar harakati, shoshilinch harakat xizmatlari haqidagi tushunchalarga ega bo`ldik.

Kelinglar bolajonlar endi shifokor o`yinini o`ynaymiz.

25- Mavzu: Men sevgan fasl “Qish fasli haqida suhbat”

Ta'limiy maqsad: Bolalarni qish fasliga oid bilimlarini oshirish, qish faslida tabiatdagi o`zgarishlar haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy maqsad: Bolalarda faoliyat jarayonida jamoada o`zini tuta bilish, tengdoshlari orasida o`zaro hurmat tuyg`ularini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Bolalarda men konsepsiyasini, qo`l mayda motorikasini rivojlantirish.

Kutilyotgan natija: Bolalar yil fasillarini bir biridan farqlashga o`rganadilar.

Kerakli jixozlar: Mavzuga mos sujetli rasimlar, rangli qalam va qog`ozlar.

Fan va tabiat markazi:

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: Assalomu alaykum aziz bolajonlar!

Bugun guruhimizga yil bobo mehmonga kelibdi.

Yil bobo: Assalomu alaykum qarog`larim, dilbandlarim meni taniyabsizlarmi? Mening bir yilda 4 ta nomim bor ularni kim aytib beradi?

1- bola: qish

2- bola: bahor

3- bola: yoz

4-bola: kuz

Yil bobo: bir yil 4 ta fasl ,12 oy bor. Ular doim birin ketin kirib keladilar. Qish bo`lmay turib bahor kelmaydi, bahor kelmay yoz kelmaydi, kuzsiz esa qish kelmaydi. Men hozir o`z fasillarimni guruhingizga taklif etaman.

(hassasini yerga urib) Ketma ket fasillar kirib keladilar. Ko`m k`ok archa ko`targan qish fasli keladi va topishmoq aytadi.

Qish: Yerni qor qoplar,
Soyni muz yopar.
Ayoz be xazil,
Men qaysi fasil.

Bolalar: Qish fasli

(guruh xonasiga etaklariga gul taqib bahor fasli kirib keladi).

Bahor: Jonlanar tuproq,
Kurtaklar uyg`oq.
Toshadi anxor,
Qay fasl?

Bolalar: Bahor fasli

(guruh xonasiga savatchada mevalar bilan yoz fasli kirib keladi).

Yoz: Keldi oltin yoz, mevalar pishdi,
Daraxtlar shoxi, egilib tushdi.
Berdim ko`p hosil, o`rik, olma, nok,
Shahardan asal rosa qildik nok

(guruh xonasiga to`q sariq libosda qizil sariq barglardan gul chambar taqib kuz fasli kirib keladi).

Kuz: Bog`u dalada,
Ushbu pallada.
Ish qizg`in xanuz,
Qaysi fasl bu ...?

Bolalar: Kuz fasli

Tarbiyachi: Mehmonlarimizni tabiat markazimizga taklif qilamiz, faoliyatimizni kuzatib, baho beradilar. Bolalar hozir men sizlarga vaqt o`lchovlari to`g`risida topishmoq aytaman.

Bitta katta daraxt (bir yil)
Unda bor to`rta shox (4 ta fasl)
Har shoxda 3 tadan butoq (3 oy)
Har butoqda 4 tadan novda (1 oyda 4 hafta)
Har novdada 7 tadan barg (hafta kunlari)
Bargning bir tomoni oq, bir tomoni qora (tun va kun)

Bolalar javobi:

Ta'limiylar harakatli o`yin:

Tarbiyachi: Bolalar kelinglar jami harflar o`yinini o`ynaymiz. Har haftada kunlari bir rangda belgilangan 7 ta qatnashching bosqlaridagi chambaraklariga turli xil rangdagi doiralar yopishtirilgan.

Dushanba - ko`k,
Seshanba – sariq,
Chorshanba – yashil,
Payshanba – qizil,
Juma – pushti,

Shanba – oq,
Yakshanba – siyoxrang.
Hafta kunlarining joylari almashtiriladi, bolalar farqlarni topishlari kerak bo`ladi.

Yakuniy qism:

Bolalar o`zлari sevgan fasllar bilan jamoalarga va faollik markazlarida mustaqil faoliyat o`tkazadilar.Qish-qurish, yasash markazida archani;
Bahor-san`at markazida gullar rasmini;
Yoz-fan va tabiat markazida suv bilan tajriba;
Kuz-matematika markazida “Mazasidan top” o`yini.

Yil bobo: Rahmat sizlarga farzandlarim tilida asal qandlarim. Sizlarga olib kelgan sovg`alarimni ulashaman.

Qo`sishimcha qism: A. Oripov “12 oylar” she`ri ifodali o`qiladi. E’tiborga molik jixati: Bolalarda yil fasillariga mexr muhabbatlarini uyg`otish.

26- Mavzu: Konstitutsiya bosh – qomusimiz.

Ta’limiy maqsad: Bolajonlarni Vatanga bo`lgan mehr muhabbatini oshirish, konstitutsiya kuni haqida bilimlarini oshirish.

Tarbiyaviy maqsad: Vatanga bo`lgan faxr tuyg`ularini shakllantirish

Rivojlantiruvchi maqsad: Atrof olamdagи ya`ni bayramlar haqidagi bilimlarini rivojlantirish. Mustaqil fikrlashni, intelektual saloxiyatini oshirish.

Kutilyotgan natijalar: bolada Konstitutsiya bosh qomusimiz ekanligi haqida ilk tasavvurlar xosil bo`ladi.

Kerakli jixozlar: O`zbekiston Respublikasining Davlat Bayrog`i, tamg`asi, xaritasi, rasmi, multimedia vositalari.

Til va nutq markazi:

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: Assalomu alaykum aziz bolajonlar!

Barchangizni ma'lumki Respublikamiz bo`ylab, Vatanimiz O`zbekistonning Konstitutsiya kuni keng miqyosida ko`tarinki kayfiyatda nishonlanmoqda, biz ham bolajonlar bugungi faoliyatimizni Vatanimizning konstitutsiyasiga bag`ishlab o`tkazamiz. Shu baxonada vatanimizni madx etuvchi she`rlarimizni yodga olamiz. Qani bolajonlar vatan o`zi nima? Vatan deganda nimani tushunasiz?

1-Bola: Vatan bu uyimiz

2-bola: Vatan bu mahallamiz

3-bola: Vatan bu bog`chamiz

4-bola: Vatan bu O`zbekistonimiz

5-bola: Onajonim issiq bag`ri Vatanligin bilaman,

Otam mehri qaynoq taftin Vatanligin bilaman.

O`z bag`rida ulg`aytirgan beshik menga Vatandir,

Shu yurtning ostonasi beshak menga Vatandir.

Tarbiyachi: Rahmat bolajonlar! Vatanimizni judayam chiroyli tarifladingiz. Endi qomusimiz haqida ham bir eslab olaylik.

1- bola:

Huquq va burchlarimiz mujassam unda,
Undagi satrlar suyanchdir kunda

O`z himoyasiga olgan bizlarni
Hatto yo`rgakdagagi o`g`il qizlarni
U bizning bosh qomusimizdir
Millatimiz shani nomusimizdur

2- bola:

Adolat bitgan yo`llarimizga
Haqiqatni aytgan tillarimizga
O`z o`rni kuchini doim bildirgan
Qonunlarga qatiy amal qildirgan
U bizning bosh qomusimizdir

3-bola:

Huquq buzarlarga qo`llagan chora
Hatosini anglab yetsa deb zora
No poklarga jazo toptirgan ham u
Adolatni qaror toptirgan ham u
U bizning bosh qomusimizdir
Millatimiz shani nomusimizdir

Tarbiyachi: raxmat bolajonlar, endi qomusimiz zar varag`larine bir varoqlab ko`raylikchi.

1-modda: O`zbekiston suveren demokratik Respublika Davlatning “O`zbekiston Respublikasi va O`zbekiston” degan manoni anglatadi.

Mehr ko`zda muhabbatda,
O`zbekiston nurli bo`ston.
Noming sening dilda doston
Olam ichra yagonasan
Noming ulug` mardonasan

4-modda: O`zbekiston Respublikasini davlat tili o`zbek tilidir.

O`zbek tilim
Jonu dilim
Sensan mening
Baxt iqbolim

5-modda: O`bekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlangan o`z davlat ramzlari bayrog`i, gerbi va madxiyasiga ega.

Qora o`tmish qoldi ortda
Doril omon kunlar yurtda
Porla millat bayrog`i

Tarbiyachi: Bolajonlar, endi dam olish daqiqasini o`tkazib olsak.

Tarlimiy harakatli o`yin.

“Bayrog` ni top”

(stol ustiga turli davlatlarning bayrog`larine maketlari qo`yiladi. Bolalar bayrog`lar orasidan O`zbekiston bayrog`ini topib olishlari kerak bo`ladi.)

6-modda: O`zbekiston Respublikasi poytaxti – Toshkent shaxri

O`lka ko`pdur dunyoda
Bir biridan ziyoda
Lekin Toshkentdan go`zal
Shahar bormi dunyoda

8-modda: O`zbekiston xalqini millatidan qatiy nazar O`zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi.

Kuchlimisan-kuchsizmisan
Oqmi qora qizil tan
Baxtli bo`lishga huquqi
Barchamizga berilgan

Tarbiyachi: Bolajonlar O`zbekiston Davlat Suverineteti inson huquqlari, burchlari va majburiyatları haqida ham aytib o`tay.

40-modda: Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega

Issiqlik juda baland

O`ynamoqqa yo`l qo`ymas

Huquqim bor shifokor

Yordamga chaqirsam bas

41-modda: har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta`lim olish Davlat tomonidan kafolatlanadi.

Kichik qo`limda kitob

Yo`l olamiz mакtabga

Har bolaning huquqi bor

Maktab degan tartibga

50-modda: Fuqarolar atrof tabiiy muxitga extiyotkorona munosabatda bo`lishga majburdirlar

Tabiat bizni onamiz

Biz ham uni sevamiz

Har bir qarich yeriga

Mexrimizni beramiz.

64-modda: Ota onalar o`z farzandlarini voyaga yetgunga qadar boqish va tarbiya qilishga majburdirlar.

Dunyoga keldingmi bas

Bilgin o`z huquqingni

Faxrlanib tanigin

O`zingni o`z ismingni

Yolg`iz yashash juda og`ir

Mehriboning bo`lmasa

Yasha deydi bizga huquq

Ota onang bag`rida

Yakuniy qism:

Tarbiyachi: Ofarin bolajonlar, faoliyatim davomida juda faol ishtirok etdingiz. O`ylaymanki konstitutsiyamiz haqidagi bilimlarimizni yana bir bor mustaxkamlab oldik. Kelinglar endi faoliyatimizni doskamizga jamoa bo`lib bayrog`imizni, rangli qog`ozlardan yasalgan gullar bilan yasash bilan tugallaymiz.

Qo`shimcha qism: Multimedia vositasi orqali O`zbekiston Respublikasi Davlat madxiyasi tinglanadi va birgalikda ijro etiladi.

Etimborga molik jixat: Bolajonlar o`z huquq va majburiyatlarini bilib oladilar.

27-Mavzu: “Sog` tanda – sog`lom aql” mashg`uloti

Ta`limiy maqsad: Odam organizmi, uning salomatligi, gigiena va turli kasalliklar haqida ma'lumot berish.

Tarbiyaviy maqsad: Salomatlik va atrof muxitga nisbatan to`g`ri munosabatda bo`lishini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: Bolalar nutqini gavda, gigiena, salomatlik, atrof-muxit kasalliklarini bilishida faollikni rivojlantirish.

Kutilyotgan natija: Bolalarda shaxsiy gigiena qoidalari haqida tushuncha va tasavvurlarini shakllantiriladi (tana, kiyim, poyabzal) ozodalikka va pokizalikka hamda gigiena qoidalariга riousha qilishga o`rganadi. Tarbiyalanuvchilarda salomatlikka nisbatan to`g`ri munosabat, organizmni chiniqtirish sanitariya-gigiena qoidalariга riousha qilish ko`nikmalari shakllantiradi.

Kerakli jixozlar: monitor, “Sog` tanda sog`lom aql” mavzusida slayd taqdimoti, katta va kichkina qo`g`irchoqlar, gavda qismlari tasvirlangan suratlar

Sog`lomlashadirish markazi: Faoliyatni borishi:

Bolalar bilan salomlashib so`ng bolalar bilan umumrivojlantiruvchi mashqlar o`tkazish so`ng “Sog` tanda – sog`lom aql” slaydi namoyish etiladi.

Tarbiyachi: Bolalar bizlar sizlar bilan juda ko`p mashg`ulotlar o`tganimiz. O`tilgan mashg`ulotlar davomida bir qator ertaklarni, she`rlarni yoddan aytishni, narsa – hodisalar haqida bilimga ega bo`lgansizlar. Bugungi mashg`ulotimiz bizning tana tuzilishimiz va tanamizning salomatligi to`g`risida bo`ladi. Qani endi meni savollarimga javob beringchi, siz o`zingizning salomatligingiz haqida nimalar bilasiz?

Bola: Gripp

Inson salomatligi to`g`risida nimalarini bilasiz?

-Qanday kasalliklarni bilasiz?

-Gigiena nima?

- Ota-onalar sizning salomatligingiz to`g`risida nimalarini aytib berishgan?
(bolalar javoblari)

Sog`lom va chiroyli bo`lish uchun nimalar qilish kerak? To`g`ri kun tartibiga riousha qilish kerak.

Bolalar: Kun tartibiga riousha qilgan kishining kayfiyati chog` va sog`lom bo`ladi.

Tarbiyachi: Siz kun tartibiga riousha qilasizmi? Siz kunni nimadan boshlaysiz?
(bolalarning javoblari).

Tarbiyachi: Bolalar, diqqat bilan eshting. Biz kunni ertalabki badantarbiyadan boshlaymiz. Ertalabki badantarbiya orqali siz muskullaringizni mustaxkamlaysiz, organizmingizni chiniqtirasiz.

Ijodiy ish:

Bolalar mashg`ulotga tayyorgarlik davrida uylaridan qo`g`irchoq olib kelishlari vazifa qilib berilgan edi. Har bir bolaning qo`lida qo`g`irchoq.

Tarbiyachi: Bolalar qo`g`irchoklarga qarang, qo`g`irchoqning gavda qismlari qanday berilgan savoli orqali bilimlarini mustaxkamlash. (tarbiyachi katta qo`g`irchoqni ko`rsatadi).

Bolalarga qo`g`irchoqni boshi va yuzlarini ko`rib chiqish vazifasi beriladi. Ularni nimalardan tashkil topganligini (sochlar, quloqlar, ko`zlar, qoshlar, burun, og`iz) bolalardan so`raladi. Bolalar ko`zdan kechirib berilgan savollarga javob beradilar.

Tarbiyachi gavda to`g`risida topishmoqlar aytadi. Bolalar javob bermasdan o`z qo`g`richoqlarida topishmoqning javobini ko`rsatadilar, bir tarbiyalanuvchi esa, tayoqcha yordamida mos keladigan suratni jadvaldan ko`rsatadilar.

Topishmoq

1. Dumaloq cho`lga mayda tol ekdim. (Sochlar)
 2. Bir otada besh o`g`il. (Qo`l va barmoqlar)
 3. Jar yoqalab tosh qo`ydim, jiyronchani bo`s sh qo`ydim. (tish, til)
- So`ng bolalarga maqollar aytildi, ular nimani anglatishini bolalardan so`rash.

Tarbiyachi:

1. “Sog`lom tanda – sog` aql” Tushuntirib berish va savollar orqali bolalar bilimini mustaxkamlash. Bu nimani anglatadi? Siz buni qanday tushunasiz?
2. “Sog`lijni sotib olomaysan”

Bolalar biz salomatlik, ozodagarchilik, odam tanasi haqida qanday ertak va she`rlarni bilasiz?

Bolalar javobi:

Tarbiyachi: Salomat bo`lishimiz uchun nima qilishimiz kerak? Tana va kiyimlarni toza tutilishi-salomatlilik garovi. Tanamizni toza bo`lishi uchun nimalar kerak? (sochiq, sovun, qaychi, tish yuvish vositasi)

Bolalardan qanday qilib tishni tozalashni, sovun bilan qo`llarni yuvishni, sochni tarab yurishni, dastro`mol bilan artishni ko`rsatib berishni bolalardan so`rash, bolalarni javoblarini to`ldirish.

So`ngra bolalarga toza bo`lib yurmasalar, gigiena qoidalariga riosa qilmasalar bolalarda turli xil yuqumli kasalliklar bo`lishi mumkunligi haqida aytib, gapirib, sariq, sil kasalliklari to`g`risida so`zlab berish.

Bolalarga bosh surati tasvirlangan suratni ko`rsatadi va bolalarga savollar bilan murojaat qiladi.

Tarbiyachi: Bolalar bu nimaga o`xshaydi. (yuzga)

Bu yuz ekanligini qayerdan bildingiz?

Unda nimalar tasvirlangan (sochlar)

Siz ularni nima uchun kerakligini bilasizmi?

(Ko`rish, hid bilish, eshtish uchun)

Bolalar bosh va ko`z qismlarini ko`rsatib bering.

Nimalarni ko`ryabsiz? Ko`zimiz bilan (ko`z rasmi chiziladi)

Nima bilan eshtamiz? (quloq rasmi eshtiladi)

Nima yordamida gapiramiz, ovqatlanamiz? (og`iz va lablar)

Nima bilan hidlarni hidlaymiz, sezamiz (burun)

Nima uchun ter ko`zlarimizga tushmaydi? (qoshlar bor)

Bolalar mana yuzimizni kiyintirib oldik. Biz sizlar bilan sexrgarlarmiz. Siz endi odam organizmi, salomatligi va gigienasi haqida bilib oldingiz.

Faoliyatni yakunlash: Bugun biz nimalar bilan shug` ullandik? Siz qanday yangi narsalarni bilib oldingiz? Sizlarga ko`proq nimalar yoqdi? Biz qanday mavzu bilan tanishdik?

Uyga vazifa: Ota-onalar yordamida bolalarning kun tartiblari bilib kelishlari topshiriladi.

28-Mavzu: Sog`lom tishlar sog`lik garovi

Maqsad: Talimiyl: Bolalarga suvni isrof qilmaslik, tish chotkasidan to`g`ri foydalanish.

Tarbiyaviy: Bolalarni vatanni sevish, o`zimizning milliy boyliklarimizdan foydalanish. Suvni isrof qilmaslikka o`rgatish.

Rivojlantiruvchi: Bolalarni shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilishni o`rganadilar. Tish chotkasidan foydalanib, tishlarini to`g`ri tozalashni bilib oladilar.

Kerakli jixozlar: “Tish yuvish odobi” mavzusida suratlar, tish chotkasi va tish yuvish.

Mashg`ulotning borishi: Bolalarga “Tish yuvish odobi” mavzusida suratlar slaydlar orqali namoyish qilinadi. Tarbiyachi qisqagina kirish suhbat o`tkazadi.

Tarbiyachi: - Bolalar o`z – o`zini toza tutish, ozoda yurish, tishni yuvish, orasta va toza kiyinish, tirnoqlarini ozoda tutish, sochga qarash tushuniladi. Bugun biz tishlarni tozalash kerakligi haqida suhbatlashamiz. Bilasizmi nima uchun tishlarimizni yuvamiz? (Bolajonlar javobi)

Tishlarimiz nima uchun kerak?

(Bolalar javobi)

-Bolalar tishimiz so`glom bo`lishi kasallanmasligi uchun har safar ovqat yegandan so`ng o`zini chayqaymiz ertalab kechqurun tishlarimizni tozalashimiz kerak. Og`iz bo`shlig`ini toza saqlamaslik oqibatida kares kasalligi kelib chiqadi. Kares kasalligida tish yemirilib ichida g`ovak hosil bo`ladi. Bunda tish issiq-sovuq nordon vas ho`r taomlarni iste`mol qilganda og`riydi va ular yalig`lanib asab tizimi zararlanadi.

Tarbiyachi: - Bolalar bugun men sizga tish yuvish qoidasini slaydlar orqali tushuntirib beraman. Hammangiz taqdimotga e'tiboringizni qarating. Tishlarni tozalashda avval og`iz iliq suvda chayiladi so`ngra tish cho`tkasini suvga botirib “Bolalar tish pastasi” surib olinadi. (Bolalar javobi)

Tarbiyachi: Avval og`iz xona haroratida suv bilan chayiladi so`ngra tish cho`tkasini suvga botirib tish parashog`iga yoki pastasiga sal tekkiziladi. Tishlar jipslab turgan holda oldinga ishqalanadi. Bu cho`tkani pastdan tepaga qarab yoki aksincha yurgizish kerak. Shundan so`ng kichkintoy og`zini ochib jag` tishlarini va tishlarning ichki yuzasinitozalash kerak. Tishlarni tozalab bo`lgach og`iz pasta zarralari qolmagunga qadar chayiladi. Barcha tashqi tishlarning yuzlarini mulkdan tishning chetiga qarab tozalanadi.

Nima qilindi?

(Bolalar javobi)

Tioshlarni ichki yuzasini mulkdan tishning chetiga qarab tozalanadi. Nima qilindi (Bolalar javobi)

Til va lunjning ichki yuzasi tozalandi.

Nima qilindi?

(Bolalar javobi)

Bolalar tish yuvish vaqtida suvni isrof qilmaslik uni tejash kerakligini unutmang. Tish yuvayotgan paytdan suv behuda oqib turmasligi lozim. Biz suvni tejab ishlatischimiz kerakligini doimo yodda saqlang.

Tarbiyachi: - Endi bolajonlar stolingizdagи suratlarning ketm-ketlikda joylashtirib chiqing. (Har bir guruh a'zosi ketma-ketlik bilan o`zining surati haqida gapirib beradi)

Tarbiyachi: Bolajonlar sizlar tish yuvish odobini juda yaxshi bilib oldingiz. Keling endi tish yuvishni amalda bajaramiz. Diqqat bilan eshting amalda bajaring.

(Tarbiyachi bolalar bilan birgalikda tish yuvishni bajaradilar)

Tetiklashtiruvchi mashq: Tish yuvish harakatini bajaramiz. Faraz qilamiz o`limizda tish yuvish cho`tkasi bor. Chotkani erinmay pastga tepaga qarab yurgizamiz. Oldin o`ng tomondagi tishlarni so`ng chapdagi tishlarni yuvamiz. Tishlarning orqa tomonini ham tozalaymiz. Bolajonlar endi ushbu she'rni eshting.

Tishlar qo`shig`i:

O`ttiz ikki o`rtoqmiz
Durdonamiz oppoqmiz
Past-u baland joylashib
Biz tishlarmiz- tishlarmiz
Bizlar o`tkir ishchimiz
O`z ishiga izchilmiz
Aytaylik shartimizdan
Asranglar sovuq muzdan
Birgalikda ishlarimiz
Tishlarmiz ishlarimiz

Askarlarday saf tortib
Saqlaymiz odob tartib
Xizmatdamiz sog`liqqa
Sidqidildan chog`likka
Uchratganmiz ba`zini
Yuvmas tish-u og`zini
Toza tutsa egamiz
Dildan xizmat etamiz
Biz tishlarmiz tishlarmiz
Birgalikda ishlarimiz

- Aziz bolajonlar she'r nima haqida ekan?

(Bolalar javobi)

Tarbiyachi: Mashg`ulotni yakunida barcha bolalar rag`batlantiriladi.

29- Mavzu: “Mening paltocham” Shaxsiy hayotdan suxbat mashg`uloti

Maqsad: Bolajonlar bilan kiyimlar haqida suhbat uyuştirish, qishki kiyimlarning ham har xil turlari borligini mavsumga moslab kiyinish ham bir san'at ekanini tushuntirish ozoda va husbichim kiyinishga o`rgatish.

Kutilyotgan natija:

Mashg`ulotning borish:

Kiyimlarning har xili. Bolalarning kiyimlari kattalarning kiyimlari yumshoq, qalin yupqa bosh oyoq va maxsus kiyimlar borligini bilib oladilar.

Kerakli jixozlar:

Rasmi tushurilgan kartochkalar.

Kichik qo`g`irchoq kiyimlari.

Turli xildagi qalin mat obo`laklari.

Mashg`ulotning borishi:

Ta'limiylar maqsad: Bolalarga suvni isrof qilmaslik, tish cho`tkasidan to`g`ri foydalanish.

Tarbiyaviy: Bolalarni Vatanni sevish, o`zining milliy boyliklaridan foydalanish. Suvni isrof qilmaslikka o`rgatish.

Tarbiyachi: bolajonlar kelinglar men sizlarga topishmoq aytaman topasizlar.

Tanasi bor boshi yoq

Qo`lib or oyog`i yoq

Bolalar javobi: (Palto`)

Tarbiyachi: Bes hog`ayni ko`rpasi bir xonasi har xil

Bolalar javobi: (Qo`lqop)

Bolalar kiyimlari bizga nima uchun kerak?

Bolalar javobi:

To`g`ri biz kiyimlarsiz ko`chaga chiga olmaymiz, kiyimlarimiz bizlarga tashki ta`sirlardan ob-havoning noqulayliklaridan asrab turadi. Yana kiyimlar insonni bezatadi, sog`ligimizni asraydi. Kiyimlar turli xildagi qalin va yuqqa matolardan tayyorlanadi. Bolalar kiyimlarni moslab kiyish maqsadga muvofiq. Bolajonlar yoz mavsumida yengil kiyimlar kiyiladi, qishda esa issiq tutuvchi qalin kiyimlar kiyiladi. Yomg`ir yoqqanda plash kiyiladi, qor yoqqanda palto` kiyiladi. Bolajonlar bugun bizning xonamizga bilmasvoy tashrif buyuradi.

Bilmasvoy:

Salom bolajonlar

Bolalar:

Assalomu alaykum

Bilmasvoy:

Vaalaykum assalom yaxshimisizlar, men hech ham tushunmadim bu yerda sizlar nimalarni o`rganasizlar.

Tarbiyachi:

Bilmasvoy siz manabu yerda o`tirib mashg`ulotimizni kuzating bilib olasiz.

Bolalar hozir qanday fasil

Bolalar javobi: Qish

Tarbiyachi: qishda havo qanday bo`ladi?

Bolalar: Sovuq

Tarbiyachi: Qishda nima yog`adi?

Bolalar: Qor

Tarbiyachi: Biz qishda qanday kiyimlar kiyamiz?

Bolalar: Issiq kiyimlar

Tarbiyachi: Bugun sizlar qanday ustbosolar kiyib keldingiz?

Bolalar: Palto`, shapka, etik, qo`lqop

Tarbiyachi: Bilmasvoy bugun siz qanday ustbosolar kiyib keldingiz?

Bilmasvoy: Voy men fudbolka bilan kelibman

Tarbiyachi: Bilmasvoy sen shuning uchun sovuqqotgansan

Bilmasvoy: Oyoq kiyimlarim ham yuqqa

Tarbiyachi: Bilmasvoy bizni senga savolimiz bor.

Hozir eshikda qor yog`yapti qor bo`ron o`ynash uchun qanday kiyimlar kiyiladi?

Bilmasvoy: Jemper, tapichka, sho`rtik

Tarbiyachi: Bolajonlar bilmasvoyni javobi to`g`rimi?

Bolajonlar: noto`g`ri

Tarbiyachi: Bilmasvoy sen savolimiz to`g`ri javob bera olmading endi bu savolimizga Oyatillo o`g`lim javob beradi.

Oyatillo: Palto`, shapka, qalin shim, etik, qo`lqop, sharf.

Tarbiyachi: Barakalla Oyatillo judayam to`g`ri javob berding.

Tarbiyachi: Bolalar kelinglar hozir bilmasvoy bilan birgalikda ajoyib haltacha o`yinini o`ynaymiz.

Tarbiyachi: Bimasvoy sen manabu haltachani ushlab undagi bornarsalarni olib ko`rsatasiz bolalar javob beradi.

Guruhimiz bolalarini ikki guruhgaga bo`lib nomlab olamiz.

“Epchillar” va “Chaqqonlar”

Tarbiyachi: Bolalar sizlar ajoyib haltachadan chiqqan kiyimlarni mavsumlarga moslab javob berasiz.

O`yindan so`ng:

Bilmasvoy: Voy bolajonlar yaxshiyam kelganim sizlar menden kichik bo`lsangiz ham menden ko`proq narsalarni bilar ekansizlar.

Bolalar bilimlarini mustahkamlash uchun savollar

1. Hozir qanday fasl?
2. Kiyimlar fasllarga moslab kiyiladimi?
3. Kiyimlar bizga nima uchun kerak?
4. Qishda qanday kiyimlar kiyiladi qalin yoki yuqqa?

Tarbiyachi: Faol ishtirok etgan bolalarni Faoliyat yakunida rag`batlantiriladi.

30-Mavzu: “Ustki bosh va oyoq kiyimlar tayyorlash uchun matoni nimadan tayyorlaydilar” (surat asosida suhbat) mashg`uloti

Maqsad: “Ustki bosh va oyoq kiyimlarni tayyorlash uchun matoni nimadan tayyorlaydilar” O`zbekistonimizning milliy boyligi bo`lgan oq oltindan va pilla mahsulotidan olinadigan hom ashyolardan tayyorlanadigan kiyim boshlar haqida tushunchalar berish, nutq boyligini va bilim darajasini oshirish. Oq oltindan nimalar olinishi, va nimalarga ishlatalishini o`rgatish va o`yin orqali mustahkamlash.

Kerakli jixozlar: Mavzu asosida surat va hom ashyolar

Markazlar: Milliy burchak, bolalar kutubxonasi, O`yin markazi, Savdo do`konlari, Tabiat va biz faoliyat markazi

Nutq va til markazi. Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: Assalomu alaykum aziz bolajonlar, hozir o`lkamizda qish fasli. Qishda kunlar so`vuq bo`ladi. Daraxtlarda burglar yo`q bo`ladi. Qor yog`adi. Odamlar issiq kiyimlar kiyadilar. Bugun bolajonlar, “Ustki bosh va oyoq kiyimlarni tayyorlash uchun matoni nimadan tayyorlaydilar” mavzusida suhbatlashamiz. Sizlar bilan bugun kiyimboshlarimiz haqida va ularning tayyorlanishini tushuntiradi.

Rasimlar yordamida savol-javob o`yini o`ynaymiz.

“Kiyimlar nomini ayt” o`yini orqali bolajonlarni nutqi ustida ishslash.

31-Mavzu: “Bayramona yangi yil”

Ta’limiy maqsad: Bolalar nutqini faollashtirish, tafakkur olamini, lug`atini boyitish. Qish fasli, yangi yil bayramiga oid bilimlarini mustaxkamlash. Yangi yil bayramini nishonlash, ertak qahramonlari to`g`risida bilim berish.

Qish faslida qorlar yog`ishi, ayrim o`rmon hayvonlari uyquga ketishi, havo harorati pasayishi, qishgi o`yinlar, qorbobo yasash, qorbo`ron o`yini, qishgi kiyimlar haqida bilim berish.

Tarbiyaviy maqsad: Bolalarda hamkorlik, bir biriga do`stona munosabatda bo`lish, jamoada o`zini tuta bilish, bolani “Men”ini rivojlantirish, Faoliyatjarayonida o`zini tuta bilish, jamoaga tayyor inson qilib tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: Bolalarda Men konsepsiyasini rivojlantirish, mustaqil fikrlashni, nutqini faollashtirish, bundan tashqari mayda qo`l motorikasi, yirik motorika va sensomotorikalarni rivojlantiriladi, mo`ljal olish qobilyati orqali mashg`ulotni bajara oladi.

Kutilyotgan natija: Bolada mustaqil fikrlash, narsa, buyumlarni tanlab olish, shu yo`nalishda harakatlanishga qarab, bolaga tashxis qo`yish, u kelajakda qaysi soxa yo`nalishiga qiziqishini aniqlash, bir biridan qizg`onish xissini yo`qotish, jamoa bo`lib do`stona ishlashga undash va bunga erishish.

Kerakli jixozlar: noutbuk, proyektor, archa, archa uchun o`yinchoqlar, qish fasli tasvirlangan rasmlar, tabiat hodisalari (qor, muz, qor parchalari, bulut).

Nutq va til markazi. Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi:

Yurtimga hush kelding salom yangi yil
Qadamlaring qutlug` qorqiz qorbobo
Oq harir libosdan quvonadi dil
Yangi orzu havas o`ylar marhabo

Tarbiyachi: Assalomu alaykum aziz bolajonlar, hozir o`lkamizda qish fasli. Qishda kunlar sovuq bo`ladi. Daraxtlarda burglar yo`q bo`ladi. Qor yog`adi. Odamlar issiq kiyimlar kiyadilar. Bugun bolajonlar, “Yangi yilni kutamiz” mavzusida suhbatlashamiz. Sizlar bilan bugun bog`chamizda qish faslidagi o`zgarishlar haqida rasmlar yordamida savol-javob o`yinini o`ynaymiz.

Tarbiyachi bolalarga tabiatdagi o`zgarishlar haqida rasmlar ko`rsatadi:

Tarbiyachi: Qishda nima yog`adi?

Bola: qor yog`adi

Tarbiyachi: Barakalla. Daraxtlarda burglar bo`ladimi?

Bola: bo`lmaydi.

Tarbiyachi: Qishda ob-havo qanday bo`ladi?

Bola: Sovuq bo`ladi

Tarbiyachi: Qishda odamlar qanday kiyimlar kiyadi?

Bola: Issiq kiyimlar kiyadi

Tarbiyachi: Barakalla, bolalar siz rasimlarni to`g`ri tarifladingiz. Hozir men sizga qish faslida maydonchamizda tushgan rasimlarni beraman. Siz rasmni yaxshilab qarang. Qish faslida maydonchada qanday o`yinlar o`ynaymiz? Qishdaqoladigan qushlarni qanday ovqatlantiramiz? Rasimga qarab aytib bering.

“Bu men. Men (chanada uchayabman)” deb, qish faslidagi o`yinlardan biri aytib berasiz va rasmni olib devordagi mana bu katta qog`ozga yopishtirasiz.

(Vatmanqog`oz bolalar bo`yiga mos qilib ilingan bo`ladi. Hamma bolalar rasimlarini yopishtirganlaridan so`ng tarbiyachi shunday deydi: “Bolajonlar, qaranglar mana bu suratda qish faslida biz maydonchada qushlarga don berayotganimizni ko`ryabsiz”).

Tarbiyachi: Bolajonlar, kelinglar birgalikda mana bu she`rni takrorlaymiz.

4. Jismoniy daqiqa: “Qo’shiq asosida harakatli mashq”

Qor yog`adi guppillatib
Qorbobo dukkillatib
Kirib keldi bog`chaga
Soqolin silkillatib
Olib keldi sovg`asin
Tangacha, to`pcha, o`rdak, g`oz
Bizga berdi barchasin.

Tarbiyachi: Bolajonlar, kelinglar hozir birgalikda qishgi ustki kiyimlarning rasimlarini topamiz.

(tarbiyachi bolalarga birma-bir turli fasllarga mos kiyimlarni ko`rsatadi. Bolalar qishgi kiyimlarni topishlari kerak bo`ladi).

Tarbiyachi: Bolalar yaqinda biz qaysi bayramni nishonladik?

Bola: Yangi yil bayrami. Archa bayrami

Tarbiyachi: To`g`ri, boshqa bayramlarga o`xshamaydigan archa bayramini nishonlaymiz. Bu bayramni kutib olish uchun hamma o`z uyida, ko`chalarda, bog`chalarda ham archa chiroyli o`yinchoqlar bilan bezatiladi. Archa atrofida she’rlar, qo’shiqlar kuylaymiz, raqslarga tushamiz. Men sizlarga archa haqida she’r aytib beraman.

Tarbiyachi: Qani bolajonlar Sizlar ham archa, yangi yil to`g`risida she’r, topishmoqlar bilasizlarmi.

Bola: O`rmondan kelgan mehmon salom senga archajon

Yil bo`yi kutdik seni biz yana quvnoq shodon

Bola: Axil bo`lib, shod bo`lib xur yoshlikdan o`rgilib

Ming ochilib, ming kulib yangi yilni kutamiz

Bola: Dilimizda orzu mo`l, yuzimizda kulgu mo`l

Ming ochilib, ming kulib yangi yilni kutamiz.

Bola: Qishin, yozin bir xil kiyimda (archa)

Tarbiyachi: Rahmat bolajonlar! Judayam chiroyli she’rlar bilar ekansizlar! Bolalar men sizlarga topishmoqlar aytaman kim topsa ularga sovg`alar beraman. Diqqat bilan tinglang!

Tarbiyachi: Qo`lsiz oyoqsiz gul soladi

Bola; Ayoz bobo

O`tda yonmaydi suvda cho`kmaydi (muz)

Kim u sizlarga mehmonga kelgan shunday chiroyli go`zal

Tepasida yulduzcha yonar, shohlarida qorlar yaltirar

Pastdan yuqorigacha har xil o`yinchoqlar ancha

Bu nima bolajonlar? (Archa)

Tarbiyachi: Bolajonlar sizlar, bilan birgalikda har xil o`lchamdagagi shakllardan qor odam yasaymiz. Buning uchun bizga (Oq qog`oz, qaychi, kley, qalam, rangli qog`ozlar) kerak bo`ladi. Qani bolajonlar oldimizdagagi oq qog`ozlarga qalam yordamida har xil o`lchamdagagi doira shakllarini chizib olamiz. Endi qaychini olib doiralarimizni qirqib olamiz. So`ng stol ustidagi rangli qog`ozlarimizni ko`k rangini olib unga katta kichik doiralarni ketma-ketlikda kley bilan yopishtirib olamiz. Barakalla qaranglar qor odam shakli hosil bo`ldi endi qog`ozlarimizni qor odamimizni havorangdan ko`zlarini, olovrangdan burnini, qizil rangdan

og`zini, kulrangdan boshidagi qirqib olamiz. Qirqib olgan shallarimizni ketma-ketlikda yopishtiramiz. Bolajonlar har bir guruh o`zlari yasagan qor odamlarini qani yuqoriga ko`taringlarchi. Qarang qanday chiroyli qor odamchalar paydo bo`ldi. Endi bolajonlar hamma o`zining qor odamchalarini stol ustiga qo`yinglar. Raxmat bolajonlar endi sizlarni qarsaklar ostida bir-birimizni rag`batlantiramiz.

Qo`shimcha qism: Endi bolajonlar guruximizdagi san`at faollik markazimizga qilgan ishlarimizni olib borib tartib bilan joylashtiramiz.

Etiborga molik jixat: Bolajonlar birgalikda jamoa bo`lib ishlashni o`rganishi

32-Mavzu: “Qorbobo va qorqiz”

Ta’limiy markaz: Bolajonlar tafakkurolamini boyitish, bilimini oshirish, “Men” konsepsiyasini rivojlantirish, atrof olam, qish mavsumidagi hodisalarni anglash. Hamma sevhan qorbobo , qorqiz qahramonlari bilan tanishish.

Tarbiyaviy maqsad: Bolalarni bir-biriga do`stona munosabatda bo`lishiga, bir-birlari bilan jamoa bo`lib ishlashiga va do`stlik xissini uyg`otish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Birinchi navbatda bola “Men”ini rivojlantirish va nutqini ravon, tiniq bo`lishi ko`zda tutilgan. Bundan tashqari qorbobo va qorqizga bo`lgan mehr muhabbat tuyg`ularini rivojlantirish.

Kutilyotgan natija: O`rmon hayvonlarini ajrata olish, o`zlariga yoqqan o`brazlarga kirishi va mustaqil fikrlay olishi.

Kerakli jinoxlar: Yasalgan daraxtlar, bo`ri, tulki, quyon, ayiq, olmaxon, qorbobo va qorqiz kiyimlari. Savatchada yong`oqlar va rangli sharlar.

Syujetli-rolli o`yinlar va drammalashtirish markazi: Favoliyatning borishi:

Tarbiyachi: (bayramona kiyimda): Assalomu alaykum bolajonlar sizlarga qiziqarli ertak aytib beraman: Bir bor ekan, bir yo`q ekan, qadim qadim zamonda katta o`rmon tomonda musiqa ostida o`rmon daraxtlarini bolajonlar ko`tarib chiqishib, o`rmon shaklini hosil qiladi.

Tarbiyachi: O`rmon juda katta ekan. Unda ko`p hayvonlar, qushlar bo`lgan ekan. Bulardan bo`ri, tulki, quyon, ayiq, olmaxon bo`lgan ekan.

Bolalar: Mana shu ertak qaxramonlari kiyimida saxnadagi o`rmonga musiqalar ostida kirib keladilar. Bu qahramonlardan olmaxonlar savatchada yong`oq olib keladilar.

Tarbiyachi: Bolajonlar sizlarga olmaxonlar yong`oq olib kelibdi. Musiqa ostida olmaxonlar bolajonlarga yong`oqlarni tarqatadilar. Bolalar hursand bo`lishadi. Qolgan bolalar ikki guruhga bo`lindi.

Birinchi guruh bolalari: Zumrad qish

Ikkinchi guruh bolalari: Qorparchalari

Tarbiyachi: Bolajonlar 31- dekabr qanday bayram?

Bolalar: Yangi yil bayrami

Tarbiyachi: Juda to`g`ri topog`on bolajonlarim. Ertagimni asosiy qahramonlari qorbobo va qorqiz.

Bolalar: Bo`ri bilan tulki musiqa sadolari ostida kirib keladi.

Tulki: Hoy bo`rijon bo`rijon
Eshitdingmi oshnajon
Yo`lda kelyotgan ekan
Qorqiz va qorbobojon

Kel birgalashib bayraminibuzamiz, qorqizni o`g`irlab ketamiz.

Tarbiyachi: Uzoq o`lkalarni, shaharu qishloqlarni, daryo va ko`llarni oshib qorqiz va qorbobo yo`lda kelishyabdi. Jim-jim eshiting, dupur-dupur ot kelyapti. Sabr qiling bolajonlar. Musiqa sadolari ostida huddi archaga o`xshab kiyangan qizchalar “Archa” raqsiga tushadilar.

Tarbiyachi: Bo`rivoy bilan tulki qani kelng yonimga davramizga qo`shilling. Shartimizni bajarsangiz sizga sovg`a beramiz. Tulki bilan bo`ri bir-birini imlab shartiga rozi bo`lishdi.

Tarbiyachi: Qani kim birinchi sharni ishirib yorish o`yinini o`ynaymiz. Bo`ri va tulki sharni rosa ishirishdi. Tulki ayyorlik qilib birinchi sharni yordi. Qarsaklar!!!!!! Tulkijon ayyorlik qilma bu yomon odat to`g`ri bolajonlar?

Bolalar: Ha

Bolajonlar barchamiz birgalikda

Qorbobo qobobo

Davramizga marhabo!!! Musiqa sadolari ostida qorbobo va qorqiz kirib keladilar.

Qorbobo: Assalomu alaykum bolajonlarim, qora ko`z ko`zmunchoqlarim. O`rmondagи archani tanimay qoldim, juda chiroyli qilib bezatibsiz.

Mening go`zal qorqizim

Qorqiz: Men qorqizman, qorqizman

Osmondagi yulduzman

Kirib keldim bog`chaga

Salom berdim barchaga

Tarbiyachi: Bobojopn qorqiz bilan birgalikda o`tiring. Bolajonlarni she`r, qo`sinq, raqslarini tomosha qiling marhamat. Ikkala guruh bolalari meni yonimga kelng. Baxru bayt o`yinini o`ynaymiz. “Zumrad qish” va “Qor parchalari” guruhlari ketma-ket qish fasliga oid she`rlarni aytib berishdi. Ikkala guruh ham faol ishtirok etdilar. Do`stlik g`alaba qozondi. Barakalla qarsaklar !!!

Kelinglar bolajonlar qorparchalar raqsini tomosha qilamiz.

Qorbobo: Qani meni qorparchalarim.

Qorparchalar musiqa sadolari ostida kirib keladilar. Juda chiroyli raqs namoyish etdilar.

Yakuniy qism: Tarbiyachi: bolajonlar sizlarning syujet-rolli o`yinlaringiz menga judayam yoqdi. Sizlar haqiqiy o`rmon qahramonlariga o`xshabsizlar.

Etiborga molik jixat: Bolajonlar o`zlariga ro`llar olib jamoa bo`lib ishlay oladilar.

33-Mavzu: To`kiladigan maxsulotlarni hajmini o`lhash

Maqsad: To`kiladigan maxsulotlar haqida tushunchaga ega bo`ladi, to`kiladigan narsalarni hajmini biladi, to`kiladigan narsalarning hajmini o`lchay oladi, o`lchov asboblarini bilib oladi, o`lhash usullarini o`rganadi, tabiat narsa va predmetlarga o`z munosabatini bildiradi.

Kerakli jixozlar va materiallar: Shakar yorma maxsulotlari, tarqatmalar, rasmlar, shartli o`lchovlar

Fan va tabiat markazi: Faoliyatning borishi:

1. To`kiladigan maxsulotlar haqida tushunchaga ega bo`lish
2. To`kiladigan maxsulotlarni hajmini o`lhash
3. O`lhash usullari va asboblarni o`rganish
4. Rasmlar va tarqatmalar bilan ishslash
5. Rasmlar va tarqatmalarni ketma-ketlikda qo`yish

6. Bolalarni rag`batlantirish

Qo`shimcha qism: Og`irlikni o`lchaydigan va tarozi haqida malumotga ega bo`lish. Bolalarda faoliyat jarayonida sezgi, idrok, tafakkur faollashadi va kuzatish va xulosa qilishni o`rganish

E'tiborga molik jixat: Bolalarda tabiatga va atrof olamga qiziqishini oshirish hamda to`kiladigan jismlarni hajmini bilish, o`lchov asboblari haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

Tabiat va fan markazi:

Tarbiyachi:

Mening bilimdonlarim rasimda nimaning rasmi tasvirlangan?

(Bolalar jo`r ovozda shahar deydilar) keying rasimni ko`rsa (Bolalar tarozi deydilar) qarang aziz bolajon, shahar qanchaligini qanday bilay qaqajon? (Hammalari birgalikda tarozida o`lchab deydilar) tarozida nelar bor, aytib bergin Saidjon? (Saidjon deydi – “Ikki pallasি bordur, sotuvchiga dastyordur” deydi) Tarbiyachi bolajonlarga “Tarozini toshi har bir ishni boshi” deb aytadi. (Bolalar bu momolar o`giti deydi bilog`on bolalar)

34-Mavzu: Buyumlar, anjomlar va asbob

Maqsad: Bolalarni atrof-olam to`g`risidagi bilimlarini boyitib boorish, jonsiz tabiat to`g`risidagi tasavvurlarini shakllantirish, tuproq va suvdan mustaqil loy tayyorlashga o`rgatish. Ularda go`zallik tushunchalarini shakllantirish, qog`oz pape mashe usulida idish yasashga qiziqishini oshirish, o`zi yasagan narsadan zavqlanish hissini uyg`otish.

Kerakli jixoz va materiallar: Idishlar jamlanmasi, ko`rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, tajriba o`tkazish uchun tuproq, suv, qog`oz, yelim.

Qo`shimcha qism: Pape mashe usulida yasashni taklif qilish.

E'tiborga molik jixat: bolalar jamoa bo`lib idishlar jamlanmasini tayyorlashga o`rganadilar.

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: Bolajonlar qarang xonamiz to`risida ajoyib sirli sandiqcha turibdi. Sandiqchamizda bir qancha buyumlar yashiringan. Sirli sandiqni ustida esa topishmoqlar yozilgan. Agar shu topishmoqlarni to`pa olsakgina sandiqchamiz ochiladi.

Bu topishmoqlarni sizlarga aytaman.

1- topishmoq

Ro`parada turibdi
Bir qulog`i bor bir burni
Boshiga kiygan do`ppi

Bolalarning javoblari (choynak)

2-topishmoq

Ona bola yemas-ichmas
Dasturxonidan nari ketmas

Bolalarning javobi (choynak piyola)

Tarbiyachi: To`g`ri bolajonlar “Sirli sandiqcha”miz ham ochildi. Qarang uning ichida, choynak, payola, tovoqlar, likopchalar bor ekan. Hozir ular haqida sizlarga aytib beraman. Shu payt eshikdan Bilmasvoy kirib keladi. Bolalar salomlashadi.

Tarbiyachi: Bolalar guruhimizga mehmon tashrif buyurdi. Uyimizga mehmon kelsa nima qilamiz.

Bolalar: Dasturxon bezatamiz, mehmon qilamiz.

Tarbiyachi: Kelinglar biz ham mehmonlarni dasturxonga taklif etamiz.

Buning uchun nima qilish kerak?

Bolajonlar: Dasturxon yozib turli-xil ne'matlar va choynak payola, shirinliklar qo'yiladi.

Tarbiyachi: Mehmonlarga choy quyib uzatamiz.

Bilmasvoy: Ustoz bu idishlar juda ham ajoyib ekan, ular qanday tayyorlanadi?

Tarbiyachi: Bolajonlar aytinchi, choynak va payola bizga nima uchun kerak?

Bolalar: Choynak choy damlash uchun, payola esa choy ichish uchun kerak bo'ladi.

Tarbiyachi: To`g`ri aytdingiz ko`p yillardan beri choynak piyolalar bizga xizmat qiladi, choydan tashqari shifobaxsh giyohlarni, dorivor o'simliklarni ham damlab ichamiz. Bu choynak, piyolalar turmushimizda juda ko`p ishlatiladi. Ularni usta kulollar ona yurtimizning tuprog`idan tayyorlashadi. Tuproqdan loy tayyorlanadi va unga ko`p ishlov beriladi. Unga shakl berib, maxsus issiqlikda, chiroyli va bejirim choynak va piyolalar tayyorlanadi.

Bilmasvoy: Ha tushundim loydan shunday chiroyli idishlar tayyorlansa-ya

Bolalar: Biz mashg`ulotlar davomida har xil idishlar yasaymiz.

Bilmasvoy: Mana bu choynak va piyolani bezagini qarang, qanday chiroyli ekan!

Tarbiyachi: Ha bolajonlar, idishlarni kulollar mahsus loydan aylana dasgohda tayyorlab olovda toblaydilarva serjilo bezaklar berib halqimizga taqdim etadilar

Bolajonlar bundan tashqari idishlar metaldan va yog`ochlardan ham tayyorlanadi. **Masalan:** qoshiq, lagan, choynak shu kabilar.

Shu payt Bilmasvoy qiziqib so`radi idishlarni yana qanday turlari bor?

Tarbiyachi: shisha va palsmassa idishlar ham bor

Bilmasvoy: Bu idishlar qanday tayyorlanadi?

Tarbiyachi: Bolajonlar Bilmasvoy bu idishlarni qanday tayyorlanishini bilmas ekan biz hozir shu haqida gaplashdik sizlar aytib beringlar

Bolalar javoblari:

Bilmasvoy: Rahmat bolajonlar sizlardan juda ko`p narsani o`rganib oldim.

Endi birgalikda ajoyib o`yin o`ynasak o`yinimizni nomi "Ajoyib quticha" o`yin shu tarzida olib boriladi. Bilmasvoy quticha ichidagi idishlarni olib bolalardan idish nomlarini soraydi, bolalar idish nomlarini aytadilar. Faol bolalar tarbiyachi va Bilmasvoy tomonidan rag`batlantiriladi.

Fan va tabiat markazida: amaliy tajriba o`tkaziladi.

Bolalar quruq tuproqqa suv quyib loy hosil qilib, yasash uchun tarbiyachi tomonidan pishitiladi. Keyingi faoliyat san'at markazida olib boriladi.

Bolalar pape mashe usulida tarbiyachi yordamida idishlar yasaydi. Bilmasvoy ham bu jarayonda ishtirok etadi. Bilmasvoy bolalardan ko`p narsalarni o`rgangani uchun rahmat aytadi.

Bolalar va tarbiyachi Bilmasvoy bilan hayrlashadi.

35-Mavzu: Milliy naqsh

Maqsad: Bolalarning atrof-olam haqida tushunchalarini kengaytirish, xalqimizning ma'naviy merosi bo`lmish milliy naqsh va naqqoshlik san'ati haqida tushunchalar berish, milliy ananalarimiz kelajak avlodlarga asl holatida yetkazib berish va ularga bo`lgan qiziqishlarini oshirib asrab avaylashga o`rgatib borish, Vatanga muhabbat, milliy qadryatlarimizga nisbatan hurmat hissini oshirish, ulardan zavqlanish, namunalar chiza olishga o`rgatish, badiiy va estetik didini oshirish.

Kerakli jixozlar va materiallar: mavzuga oid rasmlar va slaydlar, tarqatma materiallar, naqshlar aks ettirilgan gazlamalar, mato, salfetka, rangli qalamlar va bo`yoqlar.

Faoliyatning borishi:

1. Bolalarga tarixiy obidalar va xalq amaliy san'ati aks ettirilgan video lavha qo'yib ko`rsatiladi.
2. Bolalar guruh xonasidagi milliy burchakdagi buyumlar bilan tanishadilar.
3. Bolalar milliy naqshlar aks ettirilgan rasmlarni tomosha qiladilar. O`zlarining tarelkalari uchun naqsh namunalarini tanlab oladilar.
4. Bolalarning mustaqil faoliyati
5. Tayyor ishlar asosida “Ko`rgazma” tashkil etish. Bolalar ishlarini o`zaro tahlil qilish.

Qo`shimcha qism: Bolalar o`zlariga yoqqan naqsh namunalarini tanlab oladilar va qog`ozga chizadilar.

Faoliyat borishi: Tarbiyachi bolalarni tarixiy obidalar va xalq amaliy san'ati aks ettirilgan video lavhani ko`rishga taklif etadi. Video lavha yuzasidan bolalar bilan savol-javob o`tkazadi.

Tarbiyachi: Bolalar yuqorida video lavhadan nimalar tasvirlangan ekan?

1-bola: Xalqimizning boy tarixi, tarixiy obidalari, turli xil buyumlar, idishlar, matolar tasvirlangan ekan.

2-Bola: Bu jixozlarning barcha turlari milliy naqshlarimiz bilan bezatilgan ekan.

Tarbiyachi: To`g`ri bolajonlar kelinglar men sizlarga xalqimizning amaliy san'ati va milliy naqshlar haqida ko`proq tushunchalar beraman. Qarang mana bu milliy burchagimizga bugun yana ham ko`proq yangi buyumlar qo`yanman. Ular bilan tanishamiz. Ularda xalqimizning orzu umidlari, istak hohishlari, turmush tarsi aks ettirilgan. Bizning xalqimizning juda qadimdan manaviyatli va marifatli bo`lishgan. Ular o`zlarining kundalik hayotlarida kulolchilik, zardo`zlik, ganchkorlik, naqqoshlik kabi ko`plab hunar turlari bilan shug`ullanishgan. Bu hunarlari bilan ular madrasalarni, shohlarning saroylarini, karvonsaroylarini bezashgan. Ganchkor ustalar binolarni devorlariga, peshtoqlariga bezak bergan bo`lsa, naqqoshlar esa ustunlarni, eshik va derazalarni naqshlar bilan bezagan. Chevar momolar esa turlipalaklar va so`zanalar bilan xona ichini jixozlaganlar. Xalqimizning bu meroslaridan ayrimlari xozirgi kungacha bizgacha ham yetib kelgan. Naqsh milliy san'at turlaridan biri bo`lib, gazlamalarga, yog`ochlarga va chinni idish tovoqlarga bezak sifatida ishlatiladi. Milliy naqshlardan yurtimizning tarixiy obidalarida juda ko`p foydalanilgan. Ular go`zalligi, betakrorligi sababli turli davlatlardan kelgan sayyoohlarni jalb qilgan. Naqshlarda milliy hunarmandchilik, o`ymakorlikda ko`p foydalaniladi. Naqshlarda to`g`ri va to`lqinsimon chiziqlardan ham foydalaniladi. Masalan mana bu sochiqlarni chetlari to`lqinsimon, doira va to`g`ri shakllar bilan bezatilgan. Idishlarga esa paxta guli, atlas nushada, mayda gullari bilan bezatish mumkun. Sizlarga ulardan namunalar ko`rsataman.

Tarbiyachi: Bolalar bilasizlarmi qadim zamonda bir usta to`quvchi bo`lgan ekan. Uning yakkayu yolg`iz qizi bor ekan. To`quvchi qiziga hech kiymagan ajoyib bir mato to`qib berishni orzu qilar ekan. To`quvchi ko`p izlanibdi. Bir kuni gulhan yonida o`ylanib o`tirib qolibdi. Shunda to`quvchining diqqatini gulhanning suvdagi aksi tortibdi. Gulhan suvda oyning shulasida juda ham betakror jilovlanar ekan. Shundan ilhomlangan to`quvchi darhol uni matoga aks ettira boshlabdi. Shunday qilib bolajonlar milliy atlas matosi yaratilgan ekan.

Tarbiyachi: Bolajonlar zerikib qolmadingizmi. Kelinglar jismoniy daqiqa o`tkazamiz. Chiq chiq soatim chiq (bolalar yelkalarini o`ng va chapga buradilar).

Sakkiz bo`ldimi qarang (qo`llarini yuqoriga ko`tarib qimirlatishadi).

Sakkizta urdi jarang (qo`ng`iroq harakatini bajaradilar)

O`rnimdan tura qolay (o`tirib, turadilar)

Bog`chamga bora qolay (Yurish harakatini bajaradilar)

Tarbiyachi: Bolalar naqshlarni nimalarga chizish mumkun ekan?

3-bola: likopchalarga, tavoqlarga

4-bola: Piyolalarga, choynaklarga

Tarbiyachi: - To`g`ri bolajonlar. Naqshlar yana ko`zalarga, eshik va romlarga, gilamlarga, palaklarga, so`zanalarga ham chiziladi. Bolajonlar sizlar hozir oldingizda turgan namunalardan foydalanib naqsh chizishingiz mumkun. Buning uchun avvalo oldingizdagi likopchani, piyolani, choynakni, ko`zachalarni sathini aniqlab olamiz. Qarang likop piyolaga nisbatan sayozroq, choynak piyoladan balandroq, ko`za esa barcha buyumlardan balandroq. Endi naqshlarni qanday joylashtirish kerak ekanligini ko`rib chiqamiz.

Tarbiyachi: Bolalarni endi san'at markazida o`zingizga yoqqan naqshlarni likopchaga chizishingiz mumkun. Bolalarni faoliyatini so`ngida “Milliy naqshlar ko`rgazmasi” tashkil etiladi. Bolalarning ijodiy ishlari o`zaro tahlil qilinadi. Faoliyat “Sherikingni top” o`yini bilan yakunlanadi. Kechki soatda tarbiyachi bolalar bilan tarixiy obidalar haqida suhbatlashadi.

36-Mavzu: Askarlar so`ziga tushuncha top

Maqsad: Tarbiyalanuvchilardan Vatan tuyg`usini shakllantirish, 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni ekanligi va bolalar qalbida milliy armiyaga nisbatan muhabbat, Vatanni himoya qilish har bir yigitning burchi ekanligi va askarlar, Vatan posbonlariga bo`lgan mehrini uyg`otish, ularni havas va hurmat qilishga o`rgatish.

Kerakli jixoz va materiallar: “14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni” mavzusidagi rasim.

Fan va tabiat faoliyatning borishi:

Tarbiyachi:

- Bolalar 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni. Vatan himoyachilari bu – bizning askar yigitlarimiz, sizning akalaringiz bo`ladilar. Siz esa ularning o`rinbosarlari bo`lasiz, chunki tez kunda ulg`ayib, Vatanimiz posbonlariga aylanasiz. Askar yigitlar Vatanimizni dushmanlardan himoya qiladilar va chegaralarimizni qo`riqlaydilar. Ular yurtimiz tinch bo`lishi uchun kecha-yu kunduz sergak turadilar. Men sizlarga askarlarimiz haqida she`r o`qib beraman.

Yurt qalqonlari
Dilshod rajabi

O`zbekiston – hur Vatan

Baxtimiz ayvonidir

Armiyamiz mustahkam

Ona yurt qalqonidir

Harbiy xizmat faxrimiz

Bu-mardlar maydonidir

Jasur askar akalar

Ona yurt qalqonidir

She'rim sizlarga yoqdimi? Kelinglar, hozir sizlar bilan "Askar so`ziga tushuncha top" o`yinini o`ynaymiz. Men sizlarga savollar beraman. Qani kim aytadi. Yurtimizni kimlar qo`riqlaydi?

Bolalar: Askarlarimiz

Tarbiyachi: - Askar qanday bo`lishi kerak

Bolalar:

-Askar - qo`rqmas.

Askar – botir

Askar – baquvvat

Askar – jasur

Askar – chaqqon, epchil.

Askar – o`z Vatanini sevishi kerak

Askar – harbiy bilimga ega bo`lishi kerak

Askar – harbiy texnika va qurollardan foydalana olishi kerak

Tarbiyachi: - Harbiy bilim – mahorat, askarlar haqida qanday hikmatlar bor?

1-bola: - Askari baquvvat mamlakat boy bo`ladi

2- bola: - Askarning intizomi – armiyaning tayanchi

3-bola: - Mashqda qiyin bo`lsa, jangda oson bo`lmaydi

4-bola: - Har bir askar – tinchlik posboni

Tarbiyachi: - Askarlar qanday texnikalardan foydalanadi?

Bolalar: - Raketa, samalyot, vertalyot, tank, yuk mashinalari.

Tarbiyachi: - Harbiy unvonlardan qaysilarini bilasiz?

Bolalar: - Oddiy askar, serjant, starshina, leytenant, kapitan, general, mayor, podpolkovnik, polkovnik

Jismoniy daqiqa:

Bir, ikki, uch (qo`llar oldinda, yuqorida, yonda)

Birlikdadur kuch (qo`llar bir biri ustida)

Bir, ikki, uch (qo`llar oldinda, yuqorida, yonda)

Bizga kerak yangi kuch (qo`llar yoyiladi)

Mana bolalar askarlar haqida ham ko`p malumotlar bilib oldik.

- Kelinglar bolalar hozir sizlar bilan "Chegarachi va chegara" mavzusida plastilindan chegarachi itni yasaymiz. Bolalar biz o`z tana qismlarimizni bilamizhayvonlarni ham tana qismlari bo`ladi. Biz itni qismlarga bo`lib yasaymiz.

- Bolalarni yasashga taklif qilish. Bolalar san'at faoliyati markazida askar va itni plastilindan yasaydi. Bolalar ishlari tahlil qilinib faoliyat yakunlanadi.

37-Mavzu: 14-yanvar Vatan himoyachilar kuni

Faoliyatning maqsadi: Tarbiyalanuvchilarga o`zbek milliy armiyasi haqida tushuncha berish, milliy armiyamizga nisbatan g`urur hissini singdirish, askar akalarimizga bo`lgan mehrni uyg`otish, ularga havas va hurmat qilishga o`rgatish, bolalarda Vatan himoyachisi bo`lish tuyg`usini shakllantirish.

Bolalarga "Temurbeklar qasamyodi"ni yod oldirish, bolalarni sog`lom, baquvvat qilib tarbiyalash, askarlarni fidoyiligini ulug`lovchi she`rlar o`rgatish. Ularda g`urur va iftixor tuyg`ularini shakllantirish, Vatanni himoya qilish har bir yigitning burchi ekanligini va

askarlar, Vatan posbonlariga bo`lgan mehrini uyg`otish, ularni havas va hurmat qilishga o`rgatish.

Kerakli jixozlar va materiallar: “14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni” mavzusidagi rasmlar.

Faoliyatdagি markazlar: nutq va ta’til, qurish va yasash, san’at markazi

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi:

- Bolalar, mustaqil Davlat bo`lganimizdan so`ng, o`z ramzlarimizga, o`z tilimiz, o`z armiyamizga, o`z Prezidentimizga ega bo`ldik. Bugun biz sizlar bilan 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni haqida suhbatlashamiz. Bizning milliy armiyamiz 1993-yilning 14-yanvar kuni tashkil topgan. Armiyamizda oddiy askardan boshlab bosh qo`mondongacha xizmat qiladilar. Bizning bosh qo`mondonimiz Sh.M. Mirziyoyev. Askar yigit kim? Askar yigit Vatanimizni dushmanlardan qo`riqlaydi. Ular yurtimiz tinchligi uchun kecha-kunduz sergak turadilar. Askarlarning o`z liboslari bor. Bu liboslar o`zlariga yarashib turadi. Milliy armiyamiz mard askarlari baquvvat qurollari, raketa, pulemyot, tank, samalyotlari bor. Ular Vatan tinchligi uchun xizmat qiladilar. Milli armiyamizni rivojlantirishda buyuk sarkarda Amir Temurning “Temur tuzuklari” asaridan foydalanilgan. Ushbu asarda bobomiz armiyani qanday shakkantirish qonun-qoidalari haqida yozib qoldirgan. Amir Temur bobomizning o`gitlaridan foydalanib, Z.M.Bobur yurt tinchligi, xalq farovonligi uchun xizmat qilgan. Shu jumladan, Jaloliddin Manguberdi ham o`z Vataniga sodiq bo`lib, jasorat ko`rsatgan.

- Barcha o`g`il bolalar bizning “Temurbeklar to`garagi” qasamyodini yod olishgan va bu qasamyodiga sodiq qolishadi.

Men “Temurbeklar to`garagi”ga qabul qilinar ekanman, o`z ona yurtimni sevish, ardoqlash, uni qo`riqlash uchun mard, jasur, ziyrak va qo`rmas o`g`lon bo`lishga tantanali VA`DA BERAMAN! O`bekiston Respublikasiga xizmat qilaman.

Mavzuga oid she’rlar.

O`zbekona g`ururi baland,
Temuriylar nasliga monand.
Xalqi bilan yuragi payvand
Fidoyilar kerak Vatanga!

Vatanim, deb o`zin unutgan,
Yov kelganda ko`ksini tutgan.
Farzand bo`lib jonini tikkan
Fidoyilar kerak Vatanga.

Tarbiyachi:

“14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni” mavzusi yuzasidan suhbatlashamiz.

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti kim?

(O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev, O`zbek Armiyamizning Bosh Qo`mondoni)

2. Milliy armiyamizda kimlar xizmat qiladi?

(Milliy armiyamizda mard va jasur askarlar xizmat qiladi).

3. Milliy armiyamizni qanday texnika va qurollari bor?
(Baquvvat quollar, raketa, samalyot, tank, pulemyotlari bor)

Jismoniy daqiqa

Tarbiyachi:

- Bolalar, faraz qiling, siz askarlarsiz, o`quv mashqidasiz. Sanama aytib ikki guruhga bo`lining. Bolalar, predmetlar orasidan ilon izi bo`lib harakatlaning. Marraga kim birinchi bo`lib yetib boorish. Ikkinci shartimiz – ikkala guruh arqon tortish. Qaysi guruh kuchli ekanligini bilib olamiz.

Bolalar san'at markaziga o'tib, “Bizning jonajon armiya” mavzusida rasm chizishadi. Faoliyat markazida bolalar loydan va aplikatsiya usulida foydalanish mumkun.

- Kelinglar bolalar Vatanimiz himoyachilarini tasvirlab mustaqil rasm chizamiz.

Syujetli rolli o`yin “Chegarachi”

Tarbiyachi: Faol ishtirok etgan bolalarni rag`batlantirib faoliyat yakunlanadi.

38-Mavzu: Men va mening tanam

Maqsad: Bolalar inson tanasi turli xil shaklda hujayralardan tashkil topganligi haqida tushunchaga ega bo`ldi. Inson hayotida sog`lom ovqatlanishni ahamiyatihaqida tushunchaga ega bo`ladi, sezgi a`zolari tuzilishini ahamiyatini biladi. Bolalar o`z sog`ligi haqida qayg`urish xissini o`rganadilar.

Syujetli – rolli o`yinlar va drammalashtirish markazi.

“Oilaviy shifoxona”

Tabiat markazi: “Sezgi organlari”

Ijodiy markaz: “Quvnoq masxaraboz” aplikatsiyasi

Resurslar: Konstruktor, mozaikalar, qutilar, syujetli o`yinlarjamnanmasi. Mavzuga oid predmetli rasmlar va ilyutratsiyalar, loto, pazllar, rangli qog`ozlar, kley, qaychi, qog`oz.

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi:

- Vatanim – jonajonim senga fido jon tanim,
Mustaqil diyorimsan, quvonchdan yayrar dilim.
Vatan asl nimadir? Vatan – bu onajon,
Vatan o`zi nimadir? Vatan bu mening o`zim.

Bolajonlar she'r yoqdimi?

(Bolalarning javobi)

She`rdan tushungan bo`lsangiz kerak, bugun suhbatimizni oila a`zolarimiz bilan mazza qilib yashayotgan qadrdon go`sha Vatan ichra Vatan qadrdon ko`chamiz, obod va hamisha go`zal viloyatimiz Andijon hammamiz uchun faxr, iftixor bo`lib kelgan aizi Vatanimiz haqida suhbat quramiz. Biz uchun doim o`z bag`rini ochgan, bizning yaxshi va yomon kunlarimiz guvohi bo`lmish ko`chamiz, uning mehnatkash, bag`ri keng insonlarini maqtamay, tilga olmaslikni hech iloji yo`q.

Ko`chamizning Uzumzor deb nomlanishi mirishkor, zahmatkash mehnatsevar bog`bonlarimizning nomlari elga dostondir.

Ko`chamizda yetishtirilyotgan turli xil uzum navlarini aytmaysizmi Andijon qorasiyu, kishmishini, naychasi-yu xusayni, toifasi-yu Rizamat ota.

Go`zaloy: - Ustoz mening dadamlar ham o`z bog`larida turli xil uzum navlarini yetishtiradilar.

Tarbiyachi: -Barakalla Go`zaloy, Kamoliddin ota, Olimjon ota kabi bog`bonlarimizni faqat Uzumzor ko`chasi emas, balki Andijonda ham juda yaxshi taniydlilar. Aziz bolajonlar, biz o`z ko`chamiz bilan qanchalik faxrlansek arziydi.

Bolajonlar: -Vatan so`zining ma`nosini bilasizlarmi

Javoxir: - Men onajon Vatan arabcha so`z bo`lib, tug`ilgan joy degan ma`noni bildiradi.

Tarbiyachi: Kim Vatan haqida she`r ayтиб berади.

Muhammadaziz

Vatanim onamdek, munis makonim

Andozam olingen payvandi jonim

Ona tilim, ota tarixim shonim

Vatanim – g`ururim sha`nim, iymonim

Kelajagi buyuk hur O`zbekistonim!

Shu payt eshik ochilib guruhga sexrgar momo kirib keladi.

Tarbiyachi: - Assalomu alaykum buvijon hush kelibsiz

Sexrgar momo: Va alaykum assalom xushvaqt bo`linglar. Sizlarning suhbatingizni eshitib, bu bilimdon bolalar yana nimalarni bilar ekan deya kelaverdim.

Tarbiyachi: -Juda soz, qani davramiz to`riga marhamat qiling buvijon. Biz sizga go`zal va navqiron viloyatimiz Andijon haqida gapirib beramiz.

Qani Nigoraxon Andijon haqida she`r ayтиб bering.

Nigoraxon:

- Tuprog`ingda unib, kaftingda o`sdim

Oftobim erkabal taftingda o`sdim

Ildizin joningga, qoningga tutash.

Sening shon shavkating shaxdingda o`sdim

Otamga o`xshaysan jonim Andijon

Onamga o`xshaysan jonim Andijon

Tarbiyachi: Barakalla Nigoraxon

Aziz bolajonlar tobora gullab yashnayotgan go`zal Andijonimizga hech qachon ko`z tegmasin. Buyuk sarkarda, shoh va shoir bobomiz bir umr ko`rmoq ilinjida yashagan Boburning yurtidir bu. Bu zaminda buyuk, insonlar, olimlar-u, hofizlar, shoirlar, qo`yingki buyuk Vatanimizni dunyoga bo`y cho`zilishiga hissa qo`shgan olim-u fuzalolar yetishib chiqqan viloyat hisoblanadi. Biz ularning davomchisi sifatida ularning boy madaniyati, san`at va ular qoldirib ketgan ma`naviy boyliklarini avaylab asrashimiz kerak.

Muhtaram Prezidentimiz 2018-yil 19-20 may kunlari viloyatimizga qilgan tashrifi davomida ular Andijon haqida shunday fikrlarini bildirgan edilar.

- Andijonning o`zini o`rni bor, bizning davlatimizda Andijonning o`zini yo`nalishi bir, bizning davlatimizda. Mening eng katta maqsadim Andijon har safargidek yuqori va birinchi o`rinlarda bo`lishi kerak , hamma soha bo`yicha.

- Andijonliklar bunga javoban o`z mehnati, bilimi salohiyati, intilishi bilan “labbay” deb javob beradilar.

Sexgar momo: - Barakalla qizim, bu suhbatdan so`ng menin sizlarga yana havasim ortdi. Viloyatingizda bundanda yuksaklarga ko`tarilishiga ishonaman.

Tarbiyachi: - Onamdek ardoqli, azizsan Vatan

Sen menga qadrdon tug`ilgan makon
Men seni avaylab asrayman har chog`
Vijdonimdek toza, tushirmasman dog`

Bolalar charchab qolmadinglarmi. Bo`lmasam biz sizlar bilan jismoniy daqiqa qilib olamiz.

Tarbiyachi:

Oyog`imiz taq-taq-taq
Qo`limiz chapak-chapak
Boshimiz sarak-sarak
Qo`limizni ko`tardik
Sekin yonga uzatdik
Endi ehtiyyot bo`lib
Joyimizda aylandik
Qo`lni pastka tushurdik
Doira bo`ylab yugurdik
Joyimizga o`tirdik

Bolajonlar, mana charchoqlarimizni ham oldik. Qani endi suhbatimizni yana davom ettirsak. Kim menga Vatan mavzusida maqollar ayтиб beradi.

Firdavs – Vatan ostonadan boshlanadi.

Muazzamxon – Ona yurting – oltin beshiging

Madina – Ona yurting omon bo`lsa, rangi-ro`ying somon bo`lmas.

Muslimbek – Vatanni sevmoq iymondandir.

Sexgar momo: - Barakalla bolajonlarim sizlar ko`p maqol va hikmatli so`zlar bilar ekansizlar, Men juda ko`p yurtlarni kezdim, lekin sizning yurtingizdek go`zal vat inch, yurtboshingizdek adolatli xalqingizdek mehribon, tinchliksevar ko`rmadi. Ayniqsa yurtboshingizning siz kichkintoylarga alohida e`tibor qaratayotganligi, maktabgacha ta`lim sohasini rivojlantirish uchun qator-qator qaror va farmonlarini qabul qilib, ijrosini qat`iy nazoratga olayotganligi, go`zal bog`chalarda yayrab-yashnab maktabga tayyorlanishingiz uchun jon kuydurishni hech bir yurtda yo`q.

Tarbiyachi: Rahmat buvijon, biz ham muhtaram “Prezidentimizning qaror va farmonlariga” labbay deb javob berib, muassasamizda 30 ta bolani maktabga tayyorlayabmiz. Guruh qoshida ingliz tili, orasta qizlar, temurbeklar to`garage faoliyat olib bormoqda. Kelajakda farzandlarimiz bundanda yuqori cho`qqilarini zabit etib, Vatanimiz bayrog`ini bundanda baland-balndlarga ko`taradilar. Vatanimiz o`zining mard va jasur o`g`lonlari, buyuk siymolari, hadisshunos olimlari –yu hofizlari, ajdodlarimizdan qolgan boy, noyob meroslari she`riy durdonalari bilan doimo faxrlanadi. Biz ham yurtimizning har tamonlama ravnaq topishi, farzandlarimizni o`z oilasi, ko`chasi, viloyati, Vatanini sevishi, avaylab asrashi, Vatan uchun qalqon posbon farzandlar bo`lib yetishtirishlari uchun bor kuch, bilim, va imkoniyatlarimizni ayamaymiz.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalarini ijrosida qo`schiq.

39-mavzu: To`kiladigan jismlar hajmini o`lchash.

Maqsad: Shartli o`lchovda to`kiladigan jismlarning hajmini o`lchay oladi.

Kerakli jixozlar: qum, suv, qumli qoliplar, maxsus konteynerlar

Faoliyatning borishi: Bolalar ushbu markazning vazifasi bilan tanishadilar va uskunalarini ko`rib chiqadilar.

Qo`shimcha qism: Og`irlikni o`lchadilar va tarozi haqida malumotga ega bo`ladilar. Bolalarda faoliyat jarayonida sezgi, idrok, tafakkur faollashadi va kuzatish va xulosa qilishni o`rganadilar.

Faoliyat mobaynida tarbiyachi bolalarga to`kiladigan jismlarni hajmini o`lchaydilar.

Shakar va krupalarni o`lchaydilar, Bolalar to`kiluvchi jism, og`irlik, tarozi, o`lchov haqida ma'lumot oladilar. Bolalarda matematik tasavvurlarini ham rivojlantiradi.

Tarbiyachi Faoliyatdavomida bolalarga maqol va topishmoqlar o`rgatadi.

“Yetti o`lchab bir kes” (Xalq maqoli)

“Tarozini toshi har bir ishni boshi” (Momolar o`g`iti)

Topishmoqlar

Ikki pallasi bordur,

Sotuvchiga dastyordur (Tarozi)

Paxtadayin oppoqina u

Darxol eritadi suv (Shakar)

Har joyda o`rnatar adolat, sen to`g`ri foydalan faqat

Uning nomi tarozi barcha bo`ldi rozi.

40- Mavzu: Mening xaq-huquqim

Faoliyatning maqsadi: Bolalarga xos fazilatlardan biri hushmuomalalikdir. Bu fazilatni bolalar ongiga xalq maqollari, ibratli so`zlardan, ertaklardan foydalanib singdirib borish. Kutilyotgan natijalar bolalar nima yaxshiku nima yomon tushunchalariga ega bo`ladilar. Ijobiy va salbiy ertak qaxramonlarini farqlashni o`rganadilar.

Kerakli jixoz va materiallar: ertak qahramonlari: Mavzuga oid rasimlar

Qo`shimcha qism: Ta`limiy o`yin (Zanjir)

E`tiborga molik jixati: Bollar o`z xaq huquqlari haqida tushunchaga ega bo`ladi.

Faoliyatning borishi: Faoliyat Qimmatning guruh xonasiga kirib kelishi bilan boshlanadi. Qimmatoy e bolalar maxmadonalik qilishingiz jonga tegdiku axir men uhlay olmayabman shovqin ko`tarasiz, qiy-chuv qilasiz, jonga tegib ketingiz. Guruhga Zumratoy kirib keldi: voy bolajonlar Assalomu alaykum meni kechiringlaru sizlarni faoliyatizingizni bo`ldim, opam Qimmatoyni ko`rmadingizmi? Bolalar ko`rdik ana u voy opajon bu yerda nima qilyabsiz axir bolalarga halaqt beryapsizku e qo`ysangizchi qanaqasiga shunda tarbiyachi Zumratoy Qimmatoy kelinglar bugun sizlar ham mashg`ulotimizga qatnashinglar keeling opajon juda ham qiziqib ketyabman bolajonlar nimalarni o`rganishar ekan. Qimmat ha mayli o`tirishimiz mumkun.

Tarbiyachi: bolalar bugun men sizlarga buyuk siymolarimizning Ibn Sino haqida hikoyani o`qib beraman qani eshtinglar.

Ibn Sino bergen dorim shifo bo`ladi desang hato qilasan, davo avvalo shirin til hush muomalali kulgu tabassum bilan qilinadi. Bemor qo`pol bo`lsa tabib muloyim bo`lishi, bemor zaxar bo`lsa tabib shirin zabon bolishi, bemor noumid bo`lsa tabib umidli bo`lishi. Bemor xo`mraysa tabib kulishi kerak. Tabibda shular bo`lmasa u tabib emas, balki o`limni yaqinlashtiruvchi bir kimsa ekan.

1. Bolalar tabib qanday bo`lishi kerak ekan.
2. Bemor qanday so`z bilan davo topar ekan.
3. Qaysi so`zlar shirin so`zlar.

Bolalarga yaxshi so`z she'rini yod oldiramiz

Gapirganda sizlab gapir

Sen senlama hammani ham

Sen o`zingga teng sanama

Katta kichik degan axir

So`zimiz bor

Qarshimizda kim turibdi ko`zimiz bor

Hurmat degan gap bor elda yodinda tut

Zumrat bolalar menga va rivoyat juda yoqdi O`zbek xalq maqollaridan ham bilasizlarmi?

Bolalar ha bilamiz

1) til bor bol keltirar

Til bor balo keltirar

2) Til yaxshisi bore tar

Til yomonni xor etar

3) tig` jaroxati bitar

Til jaroxati bitmas

Rahmat bolajonlar men o`zimga juda kerakli odob axloq tushunchalariga ega bo`ldim.

Tarbiyachi: Zumrat Qimmat agar sizlar ho`p desangiz siz haqingizda ertak aytib beraman.

Zumrat va Qimmat biz rozimiz axir bu zorku.

Tarbiyachi: Bolalarga Zumrat va Qimmat haqidagi o`zbek xalq ertagini aytib berdi, o`qib bo`lib bolalar sizlarga ertak yoqdimi bolalar ha yoqdi, sizlargachi Zumrat Qimmat. Qimmat men o`zimni juda odobli hush muomila deb o`ylagan ekanman. O`ylab k`orsam juda odobsiz ekanman men o`zimga kerakli xulosani oldim. Endi hech ham yog`on gapirmaslikka o`rtoqlarim bilan urushmaslikka so`z beraman.

Tarbiyachi: Juda yaxshi bugungi mashg`ulotimiz sizga yoqqanidan xursandman.

Faoliyat so`ngida bolalar rag`batlantirib boriladi.

41-Mavzu: Hushmuomilalik alifbosi

Maqsad: Bolalarga xos fazilatlardan biri xushmuomilalik. Bu fazilatni bolalar ongiga xalq maqollari, ibratli o`gitlaridan foydalanib, singdirib borish

Kerakli jixoz va materiallar: ko`rsatish, tushuntirish, savol-javob, rag`batlantirish.

Tarbiyachi: bolalar bilan oldingi o`tilgan mavzularni takrorlab olamiz. Tarbiyachi bolalarga buyuk simolardan Ibn Sino haqida hikoyani o`qib beradi.

Ibn Sino bergen dorim shifo bo`ladi desang hato qilasan, davo avvalo shirin til hush muomalali kulgu tabassum bilan qilinadi. Bemor qo`pol bo`lsa tabib muloyim bo`lishi, bemor zaxar bo`lsa tabib shirin zabon bolishi, bemor noumid bo`lsa tabib umidli bo`lishi. Bemor xo`mraysa tabib kulishi kerak. Tabibda shular bo`lmasa u tabib emas, balki o`limni yaqinlashtiruvchi bir kimsa ekan.

1. Bolalar tabib qanday bo`lishi kerak ekan.

2. Bemor qanday so`z bilan davo topar ekan.

3. Qaysi so`zlar shirin so`zlar.
 Bolalarga yaxshi so`z she'rini yod oldiramiz
 Gapirganda sizlab gapir
 Sen senlama hammani ham
 Sen o`zingga teng sanama
 Katta kichik degan axir
 So`zimiz bor
 Qarshimizda kim turibdi ko`zimiz bor
 Hurmat degan gap bor elda yodinda tut
 Bolalar bilan o`zbek xalq maqollaridan namunalar keltirdik
 1) til bor bol keltirar
 Til bor balo keltirar
 2) Til yaxshisi bore tar
 Til yomonni xor etar
 3) tig` jaroxati bitar
 Til jaroxati bitmas

Bolajonlar o`zbek xalq ertaklaridan Zumrat va Qimmat ertagini aytib ularni taqqosladik. Bolalar qanday muomilada bo`ldi. Qimmat qanday muomilada bo`ldi. Ertak qanday yakun topdi.

Faoliyatnakunida faol qatnashgan bolalar rag`batlantirib boriladi.

42-Mavzu: O`zbekiston millatlar aro tinchlik o`chog`i

Faoliyatning maqsadi: Bolalarni o`z ona yurtimiz haqida, bizga chegaradan qo`shti mamlakatlar haqida hamma malumotlarga ega bo`lishga yordam berish, ularni barcha davlat bayramlarini, udumlarini urf-odatlariga hurmat, o`z Vataniga nisbatan faxr-iftixon tuyg`ularini shakllantirish.

O`z boyligimiz, milliy kiyim, an-analarimiz bilan faxrlanish, ko`z-ko`z qilish, butun dunyoga namoyish etish kabi.

Faxrli tuyg`ularni o`stirish, sayoxat orqali bolalarni bir-biriga, qo`shti mamlakat bolalariga nisbatan ham do`sht-o`rtoq bo`lish, ularni hayot tarsi bilan tanishish, o`zbek xalqi hamda chegaradosh davlatlar qadimda qardosh, urug` aymoq bo`lib yashagani, bir-birlari bilan inoq yashagani, hozir ham shunday ekanini bolalarga tushuntira olish

Kerakli jixoz va materiallar: Bizning Davlat – hamdo`stlik davlati mavzusida video lavha, mavzuga oid rasimlar, “Mehmon keldi” syujetli rolli o`yini uchun jixozlar.

E'tiborga molik jixatlar: Bolalar o`z ona yurtiga bo`lgan mehr muhabbatini hissi oshib boradi, g`urur tuyg`usi shakllanadi.

Faoliyatning borishi:

Shirindan shaker erkatorlarim. Hammangiz sog` va omonmisiz. Kayfiyatingiz yaxshimiz?

Bolalar: ha deyishadi

Tarbiyachi: bolalar men yo`lda kelayotib butun qishlog`imizni tomosha qilib keldim. Chiroqli ko`chalar, baland binolar qishlog`imiz chiroyiga chiroy qo`shib turibdi. Men yo`lda sizlar uchun dunyo xaritasini sotib oldim. Negaki xaritani hamma bilgani yaxshi. Biz qaysi joyda yashaymiz? Vatanimiz xaritani qaysi qismida joylashgan? Shuni kuzatib boramiz. (Shu payt eshik taqqillab qoladi, tarbiyachi eshikni ochadi). Pochtachi aka kelgan ekan. U xat olib tarbiyachiga tutkazdi. – bu sizga rahmat po`chtachi amaki. Bu qanday xat bo`ldi ekan.

Xatni oshib o`qiy boshladи. Xurmatli O`zbekistonday chiroqli vatanda yashayotgan aziz insonlar, shirindan-shakar bolajonlar. Biz sizlarni yurtingizda juda ko`p mehmon

bo`ldik. Qadimiy shaharlaringizni, chiroli, aziz maskanlaringizni ziyorat qildik. Ular Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo`qon va poytaxtingiz go`zal Toshkent juda yodiqdi.

Milliy taomlaringiz osh, norin, manti, chuchvara, xonim, kabob, sumalak aytib sanog`iga yetolmaymiz. Juda mazza qildik. Mexmonxonalaringiz juda shinam, insonlaringiz, mehmondo`st, ko`ngli ochiq, transportlaringiz bizga ko`ngildagidek xizmat qildi. (shu paytda yurtimiz yutuqlari, shu aytilgan manzaralar bo`yicha videolar ekranda namoyish etiladi). Endi sizlarni biz mehmonga chorlaymiz, bolajonlarni olib bizning Davlatimizda ham mehmon bo`lib sayoxatga kelsangiz, boshimiz ko`kga yetardi. Sizlarga qo`shti bo`lib yashovchi Qirg`iziston, Turkmaniston, Qozog`iston, Tojikiston hamda Avg`oniston davlatlari xalqlari. (Xatni tugatib tarbiyachi bolalarga yuzlandi).

Qarang bolajonlar bizning Davlatimiz qanchalik insonlarga yoqibdi, ularning ham mehrini qozonibdi. Xatni ichida taklifnomalar ham bor ekan. Bolajonlar kelinglar xaritadan ushbu davlatlar Vatanimizning qaysi tomonida joylashganini ko`ramiz, va aniqlaymiz. (Xaritadan O`zbekistonni chegaralab ko`rsatiladi so`ng qolgan davlatlar joylashishini kuzatiladi.)

Bolajonlar keeling bo`lmasa hammamiz mamlakatga sayoxatga chiqamiz. O`zbekistonimizning AFROSIYOB tezyurar poyezdida boramiz, ungacha biz o`zimizning mashinalarimizga o`tirib poyezd turar joyiga yetib olamiz. O`zimizning yurtimizda ishlab chiqilyotgan mashinalar juda shinam va tez yurar to`g`rimi?

Biz yo`lga nimalar olamiz. Albatta aziz nonimizni chunki u risq ro`zimiz. Mezbonlarga sovg`a salomlar mevalarimizdan olamiz, chunki ular serquyosh O`zbekistonimizda asal qand bo`lib pishgan, milliy kiyimlarimizni kiyib, boshda do`ppi, atlas, adres liboslarimiz bilan yo`lga otlandik.

Sayoxatga otlandik biz
Sevinib shodlandik biz
G`ildirakli shinada
Ajoyib mashinada
Qaranglar O`zbekistonimiz ko`chalari, yo`llari tekkis ravon. Mashinalar esa bir-biridan chiroli, binolar baland, ko`rkam.

Bog`lar bor gullar o`sar
Tog`larda suvlar oqar
Tangrim suyib bergen husning
Buncha go`zal, buncha go`zal
Shu vatanning erkasiman
Ochilganing g`unchasiman

(Poyezd turargohiga yetib borildi. So`ngra poyezdlarga joylashildi. Afrosiyob poyezdlari. Tarbiyachi poyezd bilan tanishtiradi.) Bu O`zbekistonda ishlab chiqarilgan tez yurar poyezd. Uinsonlarni bir zumda manzilga eltilib qo`yadi. (So`ng poyezda sayoxat davom etadi). Mana bolalar yurtimizdan uzoqlashib yurt sog`inchini xis qilyabmiz. To`g`rimi?

Buyuk allomalar bekorga aytishmagan. Vatan qadrini undan uzoqlashganda bilasan deb, ana bolajonlar, Qirg`iziston davlatiga yetib keldik. Qirg`iziston O`zbekiston bilan chegaradosh. Xozirda ikki davlat axolisi bir-biri bilan axil-inoq.

Qig`iziston nomi yozilgan plakatlar, qirg`iz liboslari kiygan bolalar, ular o`z davlati xaqida bolalarga ma'lumotlar beradi.

Qirg`iziston poytaxti – Bishkek Qirg`izistonda katta oloy tog`lari, issiq ko`llari bor. Oltin, ko`mir, neft boyliklari mavjud. (Shu joyda videoroliklar qo`yiladi. Chanqovuz chalgan momolar, milliy kiyimda). So`ng bolalar bir-birlari bilan qo`l berib do`stlashadi. Sizlar do`st – o`rtoq bo`lishingiz kerak. Ular o`z she`rlarini aytib beradi bolalarga sovg`alar berilib so`ng

ular bilan hayrlashamiz endi qo'shni Qozog`istonga yo'l olamiz. Bolalar yana poyezdlarga joylashadi.

Poyezdlarga joylashdik

Siz bilan hayrlashdik

Mana yuramiz asta

Yetib bordik bir pasta

Bir zumda Qozog`iston Respublikasiga keldik. Bolalar man Qozog`iston Respublikasi. U joyda ham bolalar non tuzi bilan kutib oladi. Ular Qozog`iston milliy kiyimida. Qozog`iston ham Qирг`изистон ham, O`zbekistonga o`xshab mustaqil davlat. (Davlat bayrog`i ko`rsatiladi.)

Qozoq bolalari o`z yurti haqida so`zlab beradi. Qozog`izton poytaxti Astana. Ular qozoq tilida so`zlashadi. Qozog`iztonda ko`b jun, paxta, kartoshka g`alla yetishtiriladi. U joyda baland tog`lar, cho`llar juda ko`p, ular ham o`z milliy madaniyatiga ega. (Bolalar ular bilan ham sovg`a salomlar ulashib so`ngra hayrlashamiz).

Bolalar endi samalyotga joylashamiz. (bolalar kamarlarni qadaydi, so`ngra osmon uzra parvoz qilamiz. Yuqoridan tabiatni tomosha qiladilar).

Keyin o`yladik bir oz

Qilsak bo`lardi parvoz

Samalyotga joylandik

Va parvozga shaylandik

Bolalar qochinglar, samalyot kelyabdi guv-guv-guv

(Bolalar bilan samalyotdan tushamiz. So`ngra Turkmanistonga yetib kelganimizni aytaman). (uzun liboslar kiygan, sochlari uzun qizlar non, tuz bilan mehmonlarni siylashadi. Ular qo`lga to`qilgan gilamlar bo`lgani bois gilamlar to`shab qo`yilgan).

Turkman bolalari salomlashadi, biz ham ular bilan salomlashamiz. Ular o`zlarining kuy-qo`shiqlarini namoyish qiladilar.

Yurtni madx etuvchi video ro`liklar orqali Turkmaniston Nilan tanishamiz. Turkmaniston azaldan O`zbekiston bilan qardosh, inoq bo`lib yashaydi. Turkmaniston poytaxti Ashxabod. Turkmanistonda neft, gaz, qalay, rangli noyob metal ishlab chiqariladi. Turkmaniston ham mustaqil davlat. Ma'lumotlardan so`ng bolalar ular bilan hayrlashib, Tojikiston tomonga yo'l oladilar. Tojikistonga yetib borilgach, ular bilan salomlashamiz. Tojikiston ham juda ko`rkam chiroyli joy. Yaylov tog` o`simpliklari archa yong`, olcha, jiyda o`sadi. Tojikcha qo`shiqlarni eshitganmiz-a bolajonlar. Ular juda yoqimli ham inson ko`nglini ko`taradi. Tojikiston poytaxti Dushanbe ular Tojik tilida suhabtlashadi. Ularga ham sovg`a salomlar berib, Avg`oniston tom'on yo'l olamiz. Avg`onistonlik bolalar o`z liboslarida turadi.

Ular bilan salomlashib so`ng ular videorolik orqali vatani haqida ma'lumotlar olamiz. Avg`oniston poytaxti Qobul. Avg`onistonda ko`p tog`lar ularning milliy bayramlari mustaqillik hamda xotira kunlari bor. Ularning boyligi pahta, gilamlar, gaz kabilardir. Bolalar ma'lumotlar olgach qiziqib tomosha qiladi. So`ngra ular bilan ham do`stona hayrlashib o`z ona yurtimiz tom'on yo'l olamiz. Samalyot qo`ngach, ona yurtimiz hushbo'y tabiat, manzarasi bizni hursand etadi. Bolalar bilan yurtimiz xaritasini chegaralab ko`rsatamiz, so`ngra hammamiz birga O`zbekistonim qo'shig`ini xo'r bo`lib aytamiz. Bolalar o`z taassurotlari bilan o`rtoqlashadilar. Birgalikda ushbu she'rni yod olamiz.

Turkman, Tojik, Avg`on, Qирг`из

Yaqin o`rtoq do`st, o`g'il qiz

Shu do`stlikning bog`ida

O`ynab kulib shod o'samiz

Bizlar axil elatlarmiz
Tinchlik uchun kurashamiz
Shodon inoq millatlarmiz
Axillikda birlashamiz

43-Mavzu: O`tgan zamonga sayoxat “Lampochka” tarixi

Maqsad: Bolalarni o`tgan zamonga sayoxat qilish, birgalikda ota-bobolarimiz chiroqsiz yashash turmush tarsi haqida, bolalarni bilimiga ega bo`lish, o`tgan zamon bilan hozirgi zamonni farqlay bilishga, chiroqlar orqali uylarimizni yorug` bo`lishi va dillar ravshan bo`lishi haqida bolalarni ongiga tushunchalar berish.

Bolalarga elektr toki haqida uni qayerdan kelishi katta mexnatini qadrlash, chiroqni tejab-tergash undan oqilona foydalanish. Kunduz kunlari uyda, bog`chada chiroqlarni o`chirib yurish. Chiroqlarni tugmalarini o`ynamaslik undan to`g`ri foydalanishni o`rgatish. Plastilindan to`g`ri foydalangan holda ko`rgan, eshitgan elektr jixozlaridan lampochka, chiroq, fonar , kompyuter, telvazorlarni qo`l panja muskullarini harakatga keltirilgan holda gigienik qoidalarga rioya qilib berilgan topshiriqni aniq yasay olishga o`rgatish. Yasagan narsalarni o`zlarini ifodalab izoxlab berish.

E'tiborga molik jixati:

Bolalar chiroqlardan to`g`ri foydalanib shunday farovon zamonaviy shukronalar aytib yashashga o`rganadi.

Kerakli jixoz va materiallar: Mavzuga oid rasimlar: Plastilin, taxtacha, klyonka va boshqa narsalar.

Qo`llaniladigan usullar: Ko`rsatish, tanishtirish, savol-javob, rag`batlantirish.

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: - Bolajonlar sayoxatga chiqishni xoxlaysizlarmi.

Bolalar: Ha

Tarbiyachi: - Bu sayoxatimizda sizga bolalar ota-bobolarimiz, ajdodlarimiz chiroqsiz yorug`liksiz qanday yashagani haqida bilimlarga ega bo`lasiz.

Tayyorlanamiz 1.2.3.4.5.6.7-ketti

Bolalar yo`lga chiqdik.

Tarbiyachi: - Bolalar yo`llar qanday ekan

Bolalar: - Notekkis, chuqur, loy, yurishga juda qiyin

Tarbiyachi: - Voy ko`lmak suvlardan extiyot bo`lib o`tinglar, daraxt shaxlari yuzlaringizni tilib yubormasin. Bolajonlar biz qayerga kelib oldik. Yo`lda adashib qoldik shekili. Qani bolajonlar atrofga qaraylikchi. Mana uzoqda yorug`lik ko`rinyapti. Qani bo`lmasa o`sha tomonga boraylikchi. Bolalar yo`lda davom etdi va bir uyga borib qolishdi. Bu uyni taqillatishdi va bu uydan sexregar kampir chiqdi.

Sexregar kampir- kelinglar bolalar hush kelibsizlar bu yerda nima qilib yuribsizlar.

Bolalar – Biz adashib qoldik

Sexregar kampir – Kelinglar uyga kirinlar bolajonlarim

Bolalar – Buvijon uyingiz namuncha qorong`ir chiroqni yoqmaysizmi.

Sexregar kampir- Bu yerlarda chiroq nima qilsin bolalarim, chiroqsiz yashaymiz, olov yorug`idan foydalanamiz.

Bolalar – Buvijon mana bu kashtalarni kim tikkan, juda ham chiroqli tekis tikilgan ekan.

Sexgar kampir- Voy bolajonlarim bu kashtalarni albatta men tikkanman.

Bolalar- Uyingiz qorong`iku qanday tikkansiz, ninalar qo`lingizga sayilmaganmi.

Sexgar kampir - Olov yorug`ida, oy shulasida, tosh chiroqlaridan foydalanib tikkanman. Bu kashtalarni tikib bozorga sotib farzandlarimni boqib uyli-joyli qildim. Kashtalarni aytasizlar bolalar, kitoblarni oy shulalari, olov yorug`ida o`qishadi. Shunda ham buyuk allomalar yetishib chiqqan.

Tarbiyachi: - Bolajonlar qiyinchilik bilan hayot kechirar ekan. Bizning hayotimiz juda ham yaxshi ekanda. Uylarimiz ko`chalarimiz charog`on, dillarimiz ravshan biz hayotimizga shukronalar aytamiz. Hammamizni uylarimizda, bog`chalarimizda elektr jixozlari bor. Masalan televizor, kompyuter, planshet, telefonlarsiz hayotimizni tasavvur qilolmaymiz.

Sexgar kampir – Sizlar she`rlar ham bilasizlarmi.

Tarbiyachi – Qani buvijon chiroq haqida she`r aytamiz

Marhamat Ziyodaxon

Chiroqchilikni ba`zilar

Juda oson deb biladi

Elektr toki juda zo`r

Ravshanroq bilish zarur

Umidjon

Elektr toki faqat

Bitmas tuganmas qudrat

Shunday zo`r ekan demak

Chiroq albatta kerak

Asadbek

Chiroq yoqsa yarqirar

Ko`rinib turar yo`llar

Ravshan bo`lar ko`ngillar

Tun-kunduzday yarqirar

Tarbiyachi: Bolajonlar buvijon bilan hayrlashib o`z zamonamizga qanday qaytsak ekan.

Buvijon yordam berasizmi.

Sexgar kampir: Albatta yordam beraman. Ko`zlarimizni yumamiz 1.2.3 deganda ko`zlarimizni ochamiz.

Bolalar ko`zlarini ochib o`z zamonasiga qaytganiga hursand bolib ketishdi.

Tarbiyachi: Bolajonlar mana o`z zamonamizga qaytdik. Biz zamonamizdan olloxga shukronalar aytib yashaymiz. Mana bog`chamiz ham yorug` chiroqlar, kompyuterlar yetarli.

Bolalar joylaringizga o`tirib oling stolni ustida plastilindan foydalanib ko`rganlarimizni, eshitganlarimizdan ixtiyoriy telvizor, kompyuter, elektr chiroqlarini yasaymiz. Qani bolajonlar birgalikda yasashni boshlaymiz.

Men sizlarga she`r aytib beraman.

Lampochkalarga qarang

Tovlanadi rang-barang

Yerdagi gullar go`yo

Tunda sochilar ziyo

Bolalar she`r nima haqida ekan, Ha juda to`g`ri lampochka haqida. Bolalar ishlarini kuzatib chiroqli yasagan narsalarni bolalar o`zları izoxlab beradi. Qiynalgan bolalarga yordam berishdi. Sifatli va chiroqli yasagan bolalarni rag`batlantirish.

Qani bolajonlar sizlar bilan tun va kun o`yinini o`ynaymiz. Faoliyatyoqdimi juda yaxshi o`yinni sayr davomida takrorlaymiz.

44-Mavzu: O`tgan zamonga sayoxat. Tarixiy muzeyga sayoxat haqida (Pilisos)

Maqsad: Bolalarga o`tgan zamonga sayoxat davomida milliy urf odatlar va qadryatlar haqida umumiy bilim malakasini mustaxkamlash ajdodlarimizning yashash tarsi ularni foydalangan buyumlari haqida o`z zamonasining urf odatlari, maishiy buyumlari haqida umumiy ma'lumot berish.

Bolalarni aqliy qobilyatlarini o`stirish tevarak atrofdagi buyumlar voqeysalarni zamon o`zgarishlari texnikalar rivojlangan davrda yangi maishiy buyumlardan pilisos bilan tanishtirish.

Bolalarga rasm chizish orqali o`z tasavvurini boyitish ranglarda foydalana olishga o`rgatish. Mustaqilijodiy fikrlash qobilyatini tasviriy faoliyat jarayonida ishining rejalash oxirigacha yetkazib harakat qilish malakasini rivojlantirish topshiriqlari orqali mantiqiy fikrlashni takomillashtirish.

Berilgan vazifalar aniq va ravon chiroyli chiza olishga o`rgatib borish.

E'tiborga molik jixat: Bolalarni pilisos bilan tanishtirish bilan malaka va ko`nikmalar shakllanadi, o`yinlar amalda bajariladi.

Faoliyatning borishi: Bolajonlar mana bugun sizlar bilan qishlog`imizda joylashgan bizga yaqin bo`lgan tarixiy muzeyga sayoxatga boramiz. Biz avlod va ajdodlarimizning yashagan davrini o`z zamonamizdagи buyumlar jaqida ularni o`z ko`zimiz bilan ko`rib zamonlarni bir biri bilan taqqoslaymiz. Men muzey hodimlari bilan kirishimiz uchun ruxsat oldim. Hozir biz bolajonlar sayoxatga mashinada emas balki ot aravada boramiz bir birimizni qo`limizni ushlagan holda ot aravalarda sayoxatga ketmoqdamiz.

Tarbiyachi: Bolajonlar qaranglar yo`llarimiz loy o`ydim chuqur noteks bolajonlar qish fasli bo`lganligi uchun har bir honadondan tutunlar chiqib atrof olamni o`z tasirini ko`rsatmoqda. Mana tarixiy muzeyga ham yetib keldim. Bolalar qiyalmadinglarmi yo`q opajon qiyalmadik.

Tarbiyachi: Mana tarixiy muzeyga ham yetib keldik. Marhamat kelinglar
Muzey hodimlari iliq kutib oldilar. Bolajonlar ota-bobomiz yashagan sharoitni ko`ryabsizlarmi. Mana shunday sharoitga ham shukrona qilib yashaganlar. Bolajonlar uylarni devorlari guvaladan sariq loylardan qurilgan uy ichlarida paxollar solib ustidan kigizlar solib o`tirganlar.

Mana bolajonlar, ularni yashash sharoitlarini ko`ryabsizlar-a ular sandallarda o`tirishgan. O`choqlarda pirmiz choy qaynatib ichganlar. Ularni yashash sharoitlari juda ham qiyinchilik bilan yashaganlar. Ularni tozalash uchun daraxt novdalaridan sava cho`plardan uydagi kiygizlarni savalashgan. Ular davrida xattot supurgi bo`lmagan, keyinchalik supurgilar paydo bo`lgan.

Tarbiyachi: gul emas u bog`langan dasta yerni gulag aylantirar bir pasda
Topishmoq nima haqida ekan?

Bola: supurgi

Barakalla umidjon.

Tarbiyachi: supurgi haqida kim she'r biladi a

Ziyoda: Bo`g`in qilib bog`lanib

Toza xizmat qilaman

Hammayoqni supurib orasta qilib qo`yaman

Bolajonlar zamonamiz tarixiy o`tgan ota-bobolarimiz kigizdan sholchaga o`tishdi. Hozirgi kunda esa turli tuman chiroyli gilamlarga o`tishgan. Mana sayoxatimiz ham yakunlandi endi

biz bog`chamizga qaytamiz. Biz ot aravada kelgan edik. Endi biz damas mashinasida qaytamiz.

Qani bolalar mashinaga chiqib joylashib oldinglarmi tarbiyachi mana bolajonlar guruh xonamizga yetib keldik. Zamonaviy chang yutgich va supurgi qo`yilgan xona tozalashda bu changyutgichdan foydalanib u elektr to`ki bilan xonalarni tozalaydi, uni foydali tomoni bu changni o`z ichiga oladi. Xonani chang qilmaydi. Ayrim allergiyasi bor bolalarga o`zidan chang chiqarmaydi. Qani bu uskunani ishlatish uchun zumradoylar davrasida ishtirokchilarni taklif etamiz. Xola-xola o`yini birgalikda o`ynaymiz.

Qizlar: yuringlar biznikiga yordam berib yuboringlar bugun bizlarnikiga mehmonlar kelar ekan, tarbiyachi yordamidapilisosni qanday ishlashini bolalarga tanishtirib, u texnikani og`ir yengil qilish foydali tomonlarini aytib o`tadi.

Tarbiachi: Kim pilisos haqida she'r biladi?

Muhayyo:

Pilisos egalladi zamonaviy texnika

Ishlarni egalladi bekajonlar

Ishlarni bir pastda yakunladi

Tarbiyachi: Bolajonlar buni foydali tomonlari juda qulay. Mana pilisosni ishlatishni ham o`rganib oldik. Buni kattalar yordamisiz hech qachon ishlata ko`rmang. Doimo kattalar yordamida foydalaning. Yangi pilisosni o`g`il bolalar yordamida yig`ishtirib olib qo`yamiz. Uylarimiz saramjon-sarishta bo`ldi.

Bolalar san'at markaziga taklif qilinadi.

Endi bolajonlar sizlarni stol yoniga taklif qilaman. Sizlarni ixtiyoriy spurge yoki pilisos rasmini chizishga taklif qilaman, marhamat. Bolajonlar chizishni boshladi. Bolalar ishlarini chiroyli chizgan bolalarni rag`batlantirib borish.

Bolalar bugungi sayoxatimiz sizlarga yoqdimi. O`tgan zamon bilan hozirgi zamonni farqlay oldinglarmi. Muzey haqida o`z fikrlaringizni bir biringiz bilan o`rtoqlashing. Mashg`ulotimiz davomida bilm va ko`nikmalarga ega bo`lasiz. Biz mammunmiz. Endi sizlar bilan sayr davomida ZAG`IZG`ON harakati o`yinini o`ynaymiz.

45-Mavzu: Idish buyumlarini (oshxona anjomlari)

Maqsad: Oshxona idishlar va anjomlarini farqlashga nomlarini to`g`ri aytishga o`rgatish. Bolalarni Vatanni sevishga uni ardoqlashga kattalarga doimo hurmatda bo`lishga kichiklarga esa izzatda bo`lishga o`rgatish. Bolalarni nutqini o`stirish so`z boyligini rivojlantirish.

E'tiborga molik jixat: Bolalar oshxona idishlari va anjomlarini nomini vazifasini bilib oladilar.

Kerakli jixozlar: Oshxona anjomlari, qozon, tovoq, kapkir, cho`mich, kosalar, lagan, elak, hamr yoyadigan taxta, o`qlov, pichoq, tovoq, likopchalar.

Faoliyatning borishi:

Bolalar bugun men sizlarni bir joyga olib boraman. Bu bog`chamizni oshxonasi, bolalar bu yerda oshpaz opalarimiz inoq, axil kelishib sizlar uchun shirin taomlar tayyorlaydilar. Bolalar atrofdagi oshxona jixozlari bilan sizlarni tanishtiraman. Elektr, plita ya`ni qozondan

yuz kishilik taom tayyorlanadi. Sabzavotlarni tozalaydigan qirqadigan asbob elektr termiz, pichoqlar, taxtakachlar bor ekan.

Tarbiyachi: Bolalar bugungi suhbatimiz qaysi mavzuda ekanligini tushunib yetdingizmi, demak bugun oshxonada idishlari bilan tanishamiz. Oshxonada nima qilinadi.

Bola: Ovqatlar qilinadi

Bola: Sabzavotlardan salatlar qilinadi

Bola: Kompotlar qilinadi

Tarbiyachi: Ovqat pishirish uchun qanday idishlar kerak bo`ladi. Albatta qozoq kerak ovqat solingen masalliqlarni almashtirish kovlash uchun kapkir kerak bo`ladi. Qovurib bo`lgacha qozonga suv quyish uchun paqir va cho`mich kerak bo`ladi. Ovqat pishib bo`lgach kosaga suzamiz buning uchun bizga cho`mich kerak bo`ladi. Agar biz hamir ovqat qilamiz desak albatta bizga elak, hamr yoyadigan taxta, o`qlov kerak bo`ladi.

Hamr ovqatni tovoqqa solamiz, suyuq ovqatlarni qoshiq bilan, quyiq ovqatlarni sanchiq bilan iste'mol qilish qulaydir.

Tarbiyachi: Bolajonlar endi suhbatimizni honada davom etaylik. Oshpaz opalar bizga oshxonada tushlik tayyorlaydilar. Hammangiz joy-joyingizga o`tirib oldingizmi.

Bolalar: Ha

Tarbiyachi: Bolalar men hozir sizlarga topishmoq aytaman kim epchil va topqir ekan.

O`zi bitta

Qulog`i to`rtta

Bola: Qozon

Tarbiyachi: to`g`ri

Tap-tap etadi

Tagidan karvon o`tadi

Bola: Elak

Tarbiyachi: tog`ri

Kosaga sho`ng`ib qaytadi

Og`izga yetib boradi

Bola: Qoshiq

Tarbiyachi: to`g`ri

Laylak uyada quyrug`i ziyoda

Bola: Cho`mich

Ro`parade turibdi

Yuzi yumshoq lo`ppi

Bir qulog`I bor, bir burni

Boshiga kiygan do`ppi

Bola: Choynak

Tarbiyachi: To`g`ri

Onalar tokchadan tushadi, bolalar yugurib keladi

Bola: Piyola

Tarbiyachi: To`g`ri. Barakalla bolajonlar sizlar hammangiz epchil, chaqqon zexnli bolalar ekansiz. Bolalar zerikib qolmadingizmi kelinglar bir o`yin o`ynaymiz.

Stol ustida turli xil o`yinchoq oshxona jixozlari, kitoblar bor.

Men oshxona idishlari va boshqa turli narsalarni nomini aytaman. Oshxona idishlarini nomini aytsam sizlar 3 marta chapak chalasizlar. Boshqa nomini aytsam oyoqlaringizni tapillatasizlar. (o`yin 3-4 marta takrorlanadi)

Rahmat bolajonlar sizlar aytgan topshirig`imni to`g`ri bajardinglar. Bolalar kelinglar hozir men sizlarga sabzavotlardan salat tayyorlab bermoqchiman. Salat tayyorlashim uchun menga

pichoq, taxtakach, sabzavotlar, likopchalar mana salatim ham tayyor bo`ldi. Endi men ishlatga pichog`imni, taxtakachimni keraksiz bo`lganidishlarni yuvib artib joyiga qo`yishimiz kerak. Agar shu ishlatgan narsamni tez yuvib qo`ymasam tez yaroqsiz xolga keladi, demak oshxona idishlarini va anjomlarni extiyot qilib avaylab ishlatish kerak.

Faoliyatdavomida va yakunida bolalarni shirin so`zlar bilan rag`batlantirish.

46-Mavzu: Idishlarni ezozlash

Maqsad: Bolalarni narsa buyumlarini qadrlashga, extiyot qilishga, ezozlashga o`rgatib boorish.

Ta'limiy: Bolalarni Vatanga bo`lgan mexr muhabbatlarini, uni ardoqlashga, oila azolariga hurmat, do`stlarga sadoqat kichiklarga esa izzatda bo`lishga o`rgatish.

Tarbiyaviy: Bolalarni nutqini rivojlantirish, so`z boyligini oshirish, uy ro`g`or buyumlarini bilan tanishtirish ularni extiyot qilishga ezozlashga o`rgatish.

Rivojlantiruvchi: mustaqil fikrlash qobilyatini o`stirish

Kerakli jixozlar: O`yinchoq idishlar jamlanmasi, mavzu asosida rasmlar.

Mashg`ulotning borishi:

Tarbiyachi: Bolalar bizning Vatanimiz qayer

Bolalar: O`zbekiston Respublikasi

Tarbiyachi: Bolajonlar buyuk tarixga ega o`zbek xalqimiz. Ajodolarimiz analarini va o`gitlari bilan yashaymiz. O`zbek oilasi borki mehmon kutishni yaxshi ko`radi. Mehmonlar oldiga dasturxon tuzaydi shirinligu nonlarni maxsus idishlarga soladi.

Tarbiyachi: Sizlarga topishmoq aytaman sizlar javobini topasiz. Topishmoqlar javobini o`yinchoq idishlar ichidan topishingiz va ularni nomlarini o`zbek va rus tilida aytasiz. Stol ustiga oshxona buyumlarini qo`ygan xolatda topishmoqni aytaman.

1. Kosaga shoshilib qaytadi

Og`izga borib yetadi

Bola: Qoshiq (lojki)

2. Laylak uyida, quyrug`i ziyoda

Bola: cho`mich (polovnik)

O`yin shu tarzda davom etadi.

Tarbiyachi: Bolajonlar sizlar o`yinda juda faol qatnashdingiz, kelinglar ayni paytda yan bir o`yinni o`ynaymiz. Idishlarni xurmati deb nomlanadi.

Tarbiyachi: Idishlar nomini aytadi bolalar esa ularni hurmatini aytib beradi.

Tarbiyachi: Choynak

Bolalar: choy qaynatadi

Tarbiyachi: Qozon

Bolalar: ovqat pishiradi

Tarbiyachi: payola

Bolalar: choy quyiladi

Tarbiyachi: savat

Bolalar: meva sabzavotlar solinadi

Bolalar bir joyda o`tirganligi sababli jismoniy mashq bajarishadi.

Jismoniy daqiqa: Yablochki sarvali (rus tilida)

Mish shli shli

Yablochki nashli

Vetochki podneli
Yablochki sarvali
V karzinki polejeli
Raz, dva, tri, chteri

Tarbiyachi: Hamma o`z joyini egallasin. Rahmat bolajonlar sizlar men bergan barcha savollarimga to`g`ri javob berdinglar. Hammanglarga rahmat sizlar epchil, chaqqon, zexinli bolalar ekansizlar. Oshxona jixozlarini doim extiyotkoronalik bilan foydalaninglar. Kattalar ruxsatisiz kesuvchi narsalarga tegmanglar. Uyda ham bog`chada ham shu tartibda amal qilinglar.

Hamma bolalar aktiv qatnashdinglar. Hammangizga rahmat.

Barcha faol qatnashgan bolalarni rag`batlantirdik.

47-Mavzu: Amir Temur hiyoboni

Maqsad: Jismoniy rivojlanish va sog`lom turmush tarzini shakllantirish. Bolalarga odob-axloq qoidalari asosida o`zaro munosabatda bo`lishga yo`naltirish. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish. Buyuk siymolarga hurmat, ularni yodga olish vatanni sevish, uni qadrlashni bilish. Hiyobon aks ettirilgan suratlar haqidagi tushunchalarni nutqida so`zlab berish. Kattalar bilan erkin muloqotda bo`la olish. Buyumlarni nomlash va bilish jonli va jonsiz narsalardan qiziqish bolalarni favqulotda o`zini bilish ko`nikmalarini shakllantirish. Buyuk siymolargaextiromini tarbiyalash.

Kerakli jixozlar va materiallar: Mavzuga oid suratlar, Amir Temur hiyoboni haqida videolavha syujetli rolli o`yinlar va drammalashtirish “Chavandozlar o`yini” .

E'tiborga molik jixati: Sohibqron Amir Temur hiyoboni haqidagi tushunchalarga ega bo`ladilar.

Faoliyatning borishi:

Bolalar harbiy kiyimlarda saf tortib maydon bo`ylab mardonavor shaxdam qadamlar bilan kirib keladilar.

O`zbekiston qo`shig`i yangraydi.

Tarbiyachi:

Alpomish-u, Barchinoy, Rustam-u dostonlar
Yurtimning kelajagi ey bag`ri osmonlari
Davralarda o`zbekcha so`zligingiz muborak
O`zbekona lutfingiz o`zligingiz muborak

Bolalar: She`rni eshitdingizmi?

Bolalar: Ha

Tarbiyachi: Vatanimizning jasoratlari mart o`g`loni buyuk sarkarda Amir Temur bobomiz 1336-yil 9-aprelda Kesh qishlog`ida (xozirgi Shaxrisabz) shaxrida tavallud topgan. U yoshligidan jasur, aqilli, irodali bo`lgan.

Bola: Taragay botir o`g`lon

Mulki Turonning sultoni
Shamshirini maxkam tutgan
Yurtini yovdan ozod etgan.

Bola: Jasoratlari lashkarboshi

Ilmu ma'rifat lashkarboshi
Imon o`g`li Klovixo
Dermush uni buyuk daxo

Bola: Ulug`bek va Bobur Mirzo
Qo`shqanotdir unga goxo
Soxibqron Temur bobom
Lol qolgandur butun olam

Bola: “kuch adolatdadir”

“Mashqda qiyin bo`lsa jangda oson bo`lmaydi”

Tarbiyachi:

Barakalla bolajonlarim
Bobomizdek daxolarim
Chiroqli she'r aydingiz, slaydlarni ko`rsatamiz.

Endi navbat rasmlar orqali Amir Temur hiyobonini kuzatamiz. Turli xil rasimlar ko`rsatamiz.

Amir Temur siymosidagi bola

Bola: Men Temurman Sohibqron

27 mamlakat sultonima men
Millatning dardiga darmon bo`lgan
Buyuk sarkardaman men.

Tarbiyachi: Amir Temur siymosini ham ko`rib oldik, juda chiroqli qilib tasvirlab berdi. Mana bolalar suratda Amir Temur Hiyobonini tasvirlangan bobomiz otda o`tirishlari yuz ko`rinishlari savlatlari uning mard jasurligi, irodali, qattiyatliligin aks etdirib turibdi. Bobomizning hiyoboni poytaxtimiz Toshkent shaxrida joylashgan. Keling soxibqron bobomiz Amir Temur harakatlarini o`yin orqali bajarishga harakat qilamiz.

“Chavandozlar o`yini”

Tarbiyachi: Bolajonlar kurash va konstruksiyalash matematika markaziga jalg qilish.

Markazda geometrikshakllardan foydalanib Amir Temur davridagi minoralarni yasash.

Bolalar: minoralarni rasmlar tarbiyachining ko`rsatmalari asosida bajaradilar va rag`batlantiriladi.

Tarbiyachi: Bolalar bobomizning mard, jasurligi mavx etuvchi she`rlarini aytamiz.

Bola: Kirob yulduzi kabi

Porlab tarix saxnida
Siz buyuk ajdodimiz
Mard va jasur aslida

Tarbiyachi: Barakalla siz bugun o`zligingizni buyuk sarkarda syujeti soxibqron Amur Temurning haqiqiy ajdodlari jamlanganligingizni nomoyon etdingiz, bobolarimiz izidan Temurbeklar bo`lib ulg`aying mard va jasur bo`ling.

Bolalar: Mard va jasur bo`lamiz

Yurtga xizmat qilamiz
Yovlarni keltirmaymiz
Vatanni qalqonimiz

Faoliyatayakunida tarbiyachi bolalarni hammasini yaxshi so`zlar bilan rag`batlantiradi.

48- Mavzu: Baxorgi tomchilar

Maqsad: Bolalarga atrof olam haqida bilim va tasavvurlarini boyitish ularning mantiqiy tafakkurini lug`aviy boyligini oshirish, tabiat xodisalari va ularni mehnatdagi ahamiyati haqidagi qiziqishlarini oshirish sayoxat va o`yinlar orqali bilimlarini mustahkamlash.

Bolalarga suhbatda faol ishtirok etish, tinglash, o'rtoqlari javobini bo'lmaslik, bir-biriga o'zaro xurmatini tarbiyalash.

Kerakli jixoz va materiallar: Bahor fasliga oid rasimlar, tabiat hodisalari aks ettirilgan rasmlar, tabiat mo'jizalari haqidagi video roliklar, rag`bat tasmalar.

Faoliyatning borishi: "Davomini ayt", ta'limiy o'yin orqali faoliyatni boshlash va quyidagi savol javoblarini o'yin orqali o'tkazish.

Tarbiyachi: bolalar o'lkamizga qaysi fasl tashrif buyurdi

Bolalar javobi:

Tarbiyachi: Baxor faslida kunlar qanday bo`ladi.

Bolalar javobi:

Tarbiyachi: Baxor faslida qanday bayramlarni nishonlar ekanmiz

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar

Bolalar baxor fasli kelishi bilan dalalarda dexqonlar mexnati boshlanadi. Baxorning ilk kunlaridan boshlab dehqonlarimiz yerga ishlov berib, milliy boyligimiz bo`lgan paxta ekini, sabzavot ekinlarini ekish uchun xozirlik ko`radilar. Qishning qorlari yerdan baxorning tafti kelishi bilan eriy boshlaydi.

Tarbiyachi: Bolalar baxor haqida kim she'r aytadi.

1-bola:

Tezroq baxor kelsaydi

Binafshani ko`rsaydim

Tezroq baxor kelsaydi

Momaqaymoq tersaydim

2-bola:

Keldi baxor, gul baxor

Erib ketdi oppoq qor

Tarbiyachi: Bolajonlar raxmat sizlarga endi sizlar bilan sayoxatga chiqamiz. Sayoxatda sizlar bilan baxorgi dala hayotini dexqonlar mehnatini kuzatamiz. Sayoxatga boorish uchun tez yurar poyezdni yordamga chaqirganman. Hozir bizni ko`z ochib yumguncha manzilimizga olib borib keladi. Qani bo`lmasa yo`lga otlanamiz.

Tarbiyachi: Vatanimiz dalalari go`zalligi, chiroylar manzaralarini kuzatishim uchun qishning qorlaridan to`yingan yerlarni ko`rish uchun bog`ga kimning yordami kerak bo`ladi.

Bolalar: Sexgar momo

Tarbiyachi: Sexgar momo deyishi bilan sexgar momo xozir bo`ladi. Katta ekran orqali dexqonlarni baxordagi mehnatlarini, tabiatimizdagи baxorgi o`zgarishlar aks ettirilgan videorolik taqdim etiladi. Bolalar vedorolik orqali kattalar mexnatini qadrlashga, mehnat qilishga o`rgatish, shuningdek baxordagi uyg'onish davri haqida tabiat xodisalari haqida bilimlar berishga erishish.

Tarbiyachi: Namoyish etilgan lavhalarni tushuntirib beradi.

Tarbiyachi: Bolajonlar baxor fasli va mehnati haqida ko`plab maqollar o`rganganmiz, keeling hozir shularni eslab olamiz.

Bolalar:

1. Vatani borning baxti bor

Mehnati borning taxti bor

2. Bir boshdan bir savat non

3. Daraxt ildizi bilan kuchli

Odam do`sti bilan

4. Daraxtdan meva olaman desang

Nixolligida parvarish qil

Tarbiyachi: Ofarin bolajonlar sizlarni chiroli maqol va she'rlaringiz juda ham yoqdi. Sexgar momoga ham juda yoqdi. Endi guruhimizga qaytish uchun sexgar momodan yana yordam so`raymiz.

Sexgar momo: Bolalar sizlarga yordam beraman. Avval meni shartimni bajaringlar.

Bolalar: Bajaramiz

Sexgar momo: Men sizlarni hammangizni baxorgi gullardan beraman, siz menga baxordagi tabiat hodisalarini aytishingiz kerak bo`ladi.

Bolalar: Biz tayyormiz

Shamol,yomg`ir, do`l, chaqmoq,momaqaldiyoq, sariq qor, quyoshbobo,

Sexgar momo: Barakalla bolalar sizlar juda bilimdon ekansiz.

Tarbiyachi: sexgar momo shartingizni bolalar bajardimi, endi guruhga qaytsak.

Sexgar momo: Bolalar bizning o`lkamizda dalalar, bog`lar bilan birgalikda yana nimalar ko`p.

Bolalar: Tog`lar, adirlar, yaylovlar.

Sexgar momo:Baxorda ular qanday o`zgaradi.

Bolalar: yerdagi qorlar erib, o`t-o`lanlar, lolalar yerdan chiqadilar va juda ham chiroli bo`ladilar.

Sexgar momo: Juda ham yaxshi, deb yana tog`lardan oqayotgan suvlar, gullarga burkangan qir adirlar aks ettirilgan video rolikni qo`yib beradi va bolalarni guruhga yetkazib qo`yadi.

Tarbiyachi: Bolalar mana sayoxatimiz juda ham maroqli o`tdi. Sayoxat ta`surotlarini o`rtoqlaringizga aytib berasiz. Endi charchoqlaringizni yozish uchun bir o`yin o`ynaymiz. Boxor tomchilari.

Mazmuni: Bolalar 2 guruhga bo`linadilar, 1-guruh tomchilar, 2-guruh maysalar

Maysalar yerda o`tiradilar, tomchilar ko`zlarini yumib borib maysalarni ushlab oladi. Kim maysani ushlay olmasa o`yindan chetlatiladi. Ushlagan tomchilar o`yini davom etiradi. O`yin so`ngida yaxshi ishtirok etganlar rag`batlantiriladi.

San`at faoliyat markaziga o`tib bolalar ihtiyyoriy bahoriy ko`rinish va tomchi aks etgan rasmlarni chizashadi va ko`rgazma tashkil qilinib faoliyat yakunlanadi.

49-Mavzu: O`yinchoqlar haqida suhbat

Maqsad: O`yinchoqlar haqida tarbiyalanuvchilarga tushuncha berish. Qadimgi va xozrigi o`yinchoqlarni ixtirochilari haqida bolalarni bilimini shakllantirish.

Bolalarda o`yinchoq va uning ixtirochilariga va xavas uyg`otish ularni qolgan me`rosini asrab avaylashga o`rgatish.

O`yinchoqlarning nomini. Ularning rangi va kattaligini to`g`ri aytishga o`rgatish.

E'tiborga molik jixat: Tarbiyachi bilan bilan birga qisqa hikoya tuzishga o`rganadilar.

Kerakli jixoz va materiallar: O`yinchoqlar, yuk mashinasi, oq va qora ayiqchalar, echki, turli kattalikdagiarchalar, qo`g`irchoqlar (o`g`il bola va qiz bola).

Faoliyatning borishi:

Bugun sizlar bilan o`yinchoq va uning ixtirochilari haqida gapirib o`tamiz. O`yinchoqlar qadim zamonlarda Xamri buva tomonidan yaratilgan o`yinchoqlar bo`lgan. Hozirgi ma'lumotlarga qaraganda yer yuzidagi eng ko`p tayyorlanadigan o`yinchoqlar Xitoyning zimmasiga to`g`ri keldi. Yanada aniqroq aytadigan bo`lsak, million turdag'i o`yinchoqlarni tayyorlash uchun qancha ishchi kuchi kerak eklanligini tasavvur eta olamiz?

Balki bu cheksiz ishlab chiqarilish jarayonida qandaydir texnologiya yoki robotlar ishtirok etadi, deb o`ylashingiz mumkun. Ammo bunday emas. O`yinchoqlarning barini odamlar qiladi. Ularning hammasini qo`l mehnatida bajariladi.

Tarbiyachi xonaga o`yinchoqlar solingan yuk mashinasini olib kiradi (ayiqcha, echki, qo`g`irchoqlar, archalar solingan).

Qaranglar, mashinada qanday o`yinchoqlar olib kelibman?

Bolalar javobi: To`g`ri, ayiqchalarni, echkini va archalarni olib keldim. Siz bu o`yinchoqlarni o`ynashni yaxshi ko`rasizmi? Bular nima? To`g`ri ayiqchalar. Bitta archa qanday rangda (oq). Boshqa archa qanday rangda? (qora). Ayiqchalar qanday qichqiradi? (eeee). Said, oq ayiqcha qanday qichqiradi? Ko`rsat-chi? (Tarbiyachi o`yinchoqni bolaning qo`liga beradi). Qora ayiqcha qanday qichqiradi? Mana bular nima? (Archalar). Qaranglar-chi hamma archalar bir xilmi? Mana bu archalar baland, bular-chi, qanday? To`g`ri, ular past, keyin tarbiyachi ikki bolani chaqiradi va bittasiga stul ustiga baland archalarni, ikkinchisiga past archalarni qo`yishini buyuradi.

So`ngra tarbiyachi o`g`il va qiz qo`g`irchoqlarni oladi va “Qizning ismi E’tibor”, deydi. Qizning ismi nima ekan? (umumiylar va yakka-yakka javoblar). Bolaning ismi Erkin. Uning ismi nima ekan? (umumiylar va yakka-yakka javoblar).

Qaranglar-chi, mashinada qanday o`yinchoq kelibdi? (echki). Echki qanday maraydi? (mee). Keyin tarbiyachi bolalarning uylarida qanday o`yinchoqlari borligini so`raydi. Kam faol bolalarni faollashtirish uchun ularga savollar bilan murojat qiladi. Doniyer, sen qaysi o`yinchoqlar bilan o`ynashni yaxshi ko`rasan? Lola, sening o`yinchog`ing qaysi? O`yinchoqlar nima uchun kerak? va x.k

Tarbiyachi bolalarga o`ynashni taklif qiladi: Sizlar hammangiz ayiqchalar bo`lasiz, men ona ayiq bo`lamani. Mana, ayiqchalar inlaridan chiqib, sayr qilishga ketdilar. Ular o`rmonda yuradilar va “eee” deb qichqiradilar. (bolalar xona bo`ylab yuradilar va “e” tavushini talaffuz qiladilar). Tarbiyachi “Ayiqchalar sayr qilib bo`ladilar va inlariga ona ayiq oldiga keladilar” – deydi. Bolalar o`z joylariga o`tiradilar. Kelinglar, bolalar ayiqcha, echki, E’tibor, Rkin bilan qanday voqealar yuz bergenligi haqida hikoya tuzamiz.

Tarbiyachi stol ustiga archa qo`yadi va hikoyani boshlaydi. Kunlardan bir kuch echki o`rmonga sayr qilib yurgan edi. Oldidan ayiqcha chiqib, echkiga “e-e-e” deb qichqirdi. Ayiqcha qanday qichqirdi? Echki qo`rqib ketib “me-me-me” deb qichqirdi. Echki qanday qichqirdi? Shu vaqt Erkin, E’tibor degan bolalar o`rmonda yurishgan eka. Ular echkining ovozini eshtib yugurib kelishdi va echkini ovitishdi. Hamma hursand bo`ldi. Kim hikoyani qaytaradi? Erkin, E’tibor so`zlarida “e” tovushi bormi? Kelinglar, Erkin, E’tibor degan so`zlarni qaytaramiz.

Bolalar bilimini tekshirish va mustahkamlash uchun savollar:

1. Oq ayiqcha haqida kim gapiradi?
2. Qora ayiqcha haqida kim gapiradi?
3. Past archani ko`rsating?
4. Baland archani ko`rsating?
5. Qo`g`irchoqlarning ismi nima ekan?
6. Qo`g`irchoqlar haqida kim gapiradi?

Bolalar san’at markaziga o’tib “mening sevimli o`yinchog`im” mavzusida loy ishi, aplikatsiya va rasm chizishadi.

Bola bilimini aniqlovchi savollar bola javoblarini taxlil qilish va rag`batlantirish.

50-Mavzu: Onalar bayrami

Maqsad: Bolajonlar so`z boyligini oshirish, so`zlarni to`g`ri talaffuz qilishga o`rgatish, ona eng aziz inson ekanligini tushuntirish. Ular farzandi dunyoga keltirishini, umr bo`yi farzand deb yashab o`tishlarini uqitirish. Onalar gapirganda “Labbay”, “Xo`p bo`ladi” deyish, ularga har doim salom berishni kanda qilmaslik, nasixatlarga quloq solish, ularni xurmat bilan o`rnidan turib kutib olishga o`rgatish.

E’tiborga molik jixati” Onalarni suxbatini bo`lmaslik, qilayotgan ishlariga ko`maklashish, ruxsatsiz uzoq joylarga ketmaslik, ularga yolg`on gapirmaslik lozimligini tushuntiriladi.

Kerakli jixozlar: Mavzuga oid suratlar, videoroliklar.

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: onalar bayrami “Ona muqaddas” mavzusida videorolik bilan faoliyatni boshlaydi.

Bolalar, baxor faslida 8-mart “Onajonlar bayrami”, 21-mart “Navro`z” bayramini nishonlaymiz.

Tarbiyachi: To`g`ri bolajonlar, bu bayramlar bizning eng sevimli va milliy bayramlarimiz xisoblanadi. Bugun biz sizlar bilan 8-mar “Onajonlar bayrami” haqida suxbatlashamiz. Bolajonlar biz onajonlarimizni yaxshi ko`ramizmi?

Bolalar: Ha juda yaxshi ko`ramiz

Tarbiyachi: Bolajonlar biz albatta onajonlarimizni, bizni yorug` dunyoga keltirib, oq yuvib, oq taragan, o`z umrini farzandlariga baxshida etib, kechalar allalar aytib, tunlari bedor o`tkazgan munis zotlarni har qancha sevsak, ardoqlasak ham kam. Ularni biz uchun aytgan allari ham yoqimli.

Bola: Yoqimli shirin biram

Onajonim allasi

Dilga baxsh etar orom

Onajonim allasi

Uxla, uxla bolam der

Sen suyangan tog`im der

Gulga to`ldir bog`im der.

Tarbiyachi: Ho`s, bolajonlar, endi bir qo`l bilan dunyoni, bir qo`l bilan beshikni tebratgan mexribonlarimiz haqida nimalar deymiz?

Bolalar: Ona aziz, ona ulug`

Onalar bir qo`li bilan dunyoni, bir qo`li bilan beshikni tebratadi

Ona quyosh ularning mexri, tafti hech qachon sovimapdi.

Onaning achchiq so`zi, farzandning aql ko`zini ochadi.

Dunyo tor bo`lganda ham onaning bag`ri keng.

Ona bilan bola bola gul bilan lola

Bolaning barmog`i og`risa onaning yuragi achishadi.

Tarbiyachi mashq: Barmoqlar yordamida “Oila” mashqi

Tarbiyachi: Bosh barmog`im dadam,

Bolalar: Ko`rsatkich barmog`im onam

O`rta barmog`im akam

Kichik barmog`im opam

Jimjilog`im men, bu mening oilam

Tarbiyachi: Bolajonlar biz onajonlarimizga doimo yordamchi bo`lishimiz kerak. Ular gapirganda “Labbay”, “Xo`p bo`ladi” deyish, ularga salom berishni kanda qilmaslik, nasixatlarga quloq solishimiz, ular kelganda o`rnimizdan turib qarshi olishimiz kerakligini unutmaylik.

Bola: So`zлari bor durdona
Mehnatda eng mardona
Olam ichra yagona
Sizsiz ey aziz ona!

Tarbiyachi: Bolajonlar onalarimiz biz uchun eng aziz mexribon inson. Barchangiz onalariningizni sog`-omon bo`lishini istasangiz kerak to`g`rimi?

Bola: Ona hayot osmoni

Yorqin quyosh bo`lib charaqlar
Farzand uchun kerak bo`lsa u
Xatto cho`g`ni kaftida saqlar
Bormi bu dunyoda onadan aziz
Ona bilan har bir xonadon aziz

Tarbiyachi: Bolajonlar sizlar biron joyda borishda onajonlaringizdan beruxsat bormasligingiz, yolg`on so`zlamasligingiz lozimdir. Biror joyga ruxsatsiz ketsak onajonlarimiz havotirga tushadi, bizni qidiradi, onalarning yuragi bezovtalanadi. Shuning uchun ham ulardan biron joyga boorish uchun ruxsat so`rab borish kerak.

Hozir men sizlarga Salimjon degan bolaning onasiga qanday yolg`on so`zlaganligi haqida videorolikni ko`rsatib beraman.

Bolalarga videorolik asosida savollar berish

1. Bolajonlar Salimjon to`g`ri ish qildimi?
2. Onasiga nima deb yolg`on gapirdi?
3. Salimjon nimka uchun yolg`on gapirdi?
4. Onasi Salimjonni yolg`on so`zlaganini qanday bilib qoldi?
5. Onasi nima uchun Salimjonga siniq xo`rozqand berdi?
6. Agar sizlar salimjonning o`rnida bo`lganizda nima qilgan bo`lardingiz?

Mana bolajonlar onalarimizga yolg`on so`zlashish bizni doim uyaltirib qo`yadi. Biz odobli va tog`ri so`z bo`lsak ota-onamizga doim rahmat olib kelamiz.

O`yin: “Yaxshi va yomon odatlar” o`yini

Boshlovchi: Ona koptokni bolalarga uzatib “Yaxshi odatlar” deydi

Bolalar: Koptokni onaga uzatib mexribon, ona aziz, ularni xurmat qilish, labbay, xo`p bo`ladi deb so`zlarini qaytarmaslik.

Boshlovchi: Ona koptokni bolalarga uzatib “Yomon odatlar” deydi.

Bolalar: So`ziga qulq solmaslik, beruxsat ko`chaga chiqish, to`palon qilish, uy ishlarida yordam bermaslik, yolg`on so`zlashga, gap qaytarishga.

Mana bolajonlar biz ota-onalarimizni doim xurmat qilib odobli, mexribon, to`g`ri so`z bo`lsak ularga raxmat olib beramiz.

Bolalarni rag`batlantirish.

Kelinglar bolalar “Onajonim” ashulasini kuylab olamiz.

51-Mavzu: Baxor havosi, baxorgi yomg`ir

Maqsad: Bolajonlarga yil fasllari haqida tushuncha berish. Baxor faslining xavosi, baxorgi yomg`ir uning tarovati haqida tushuncha hosil qilish.

Kerakli jixozlar va materiallar: Mavzuga oida rasimlar, tarqatmalar.

E`tiborga molik jixat: Bahor fasli haqida bilimlarini oshirish

Faoliyatning borishi: Bolajonlar mana qishning sovuq izg`irinli kunlari ortda qolib, ko`nglimizning yashnatib uyg`onish, yasharish fasli baxor kirib keladi. Bolajonlar baxor faslini hammamiz yaxshi ko`ramiz-a, baxor faslida tabiatimiz uyg`onadi, daraxtlar kurtak chiqaradi, gullaydi. Baxor faslining elchilar bo`lgan binafsha, boychecha, lolaqizg`aldoqlar ochiladi. Bolajonlar sizlarga topishmoqlar aytaman kim chqqonlik va epchillik bilan topar ekan.

Yerda asta unadi

Ilk baxorda kuladi (Boychechak)

Erta baxor qizginam
Tog`da yoydi qizil gilam (Lola qizg`aldoq)

Bor rang-barang to`rt gilam
Xizmatga shay to`rti ham
Navbat bilan toshalar
Qani kim topa olar (Fasllar)

Bolalar bilan birgalikda topishmoqlar javobini topamiz. Baxor faslida tabiatimiz juda o`zgaruvchan bo`ladi, tez-tez yomg`ir yog`adi, momaqaldiroq bo`ladi, chaqmoq chaqadi.

Qora parda sokiladi
Ichidan suv tokiladi (Yomg`ir)

Yorug`i bor, dovrig`i bor
O`zi yo`q ovozi bor (Chaqmoq)

Bolajonlar yomg`ir tinib quyosh chiqqanda so`ng musaffo osmonimizda nima paydo bo`ladi.
Chiziladi ko`kda qalamsiz

Har xil bo`yoq rassomsiz (Kamalak)

Bolajonlar yomg`irni hammamiz yaxshi ko`ramiz, yomg`irdan so`ng xavo toza musaffo bo`ladi, tabiatimiz suvgaga to`yinadi.

Bolajonlar yomg`ir haqida she`rlar yod olganmiz bir eslab olaylik.

Men tomchiman, tomchiman

Bulutlardan tushaman

Osmonimda men sakrab

Yerga o`ynab tushaman

Juda ham quvnoqdirmam

Koptokdayin dumalayman

Yomg`irman yog`ilaman

Tomlardan tomchilayman

Bolajonlar quvnoq tomchining gaplarini eshityabsizlarmi, biz yomg`irni qancha sevsak u bizdan hursand bo`lib yana she`rlar aytib beradi.

Bolajonlar kelinglar endi birgalikda “Yomg`ir va quyosh” o`yinini o`ynaymiz, o`yinda 2-3 marta takrorlab, mashg`ulotda aktiv qatnashgan bolalarni shirin so`zlari bilan rag`batlantirish, mashg`ulotni mustaxkamlab yakunlaymiz.

52-Mavzu: Birinchi boychechaklar

Maqsad: Bolajonlarga erta baxor kelishi bilan kunlar isiy boshlashi natijasida yerlar uyg`onish, qir-adirlarda, ekinzorlarda asta sekin maysalar nish urib, qulog`ini ko`rsatishi haqida tushuncha berish. Baxor faslining o`ziga xos xislariga qiziqish bilan qarashga, tabiat go`zalligidan zavqlanishga va baxor elchisi bo`lgan boychechaklar haqida tushunchalar berish.

Kerakli jixoz va materiallar: Baxor faslini aks ettirgan rasmlar va boychechaklar rasmi va tarqatmalar.

Faoliyatning borishi:

O`ng tomonga sakraymiz

Chap tomonga sakraymiz

Birgalashib hammamiz

Faoliyatni boshlaymiz

Baxor, yashil nafasing

Qizg`aldoqqa aylanar

Boychechak binafshalar

Bitiklarda boylanar
Bugun yoshu keksalar
Ishtiyoqda havasda
Baxor yashil nafasing
Tabiatga payvasta

Tarbiyachi: Bolajonlar biz o`tgan faoliyatimizda baxor fasli haqida suxbatlashganmiz, hozir she'rimizning mazmunidan sezgan bo`lsangiz bugungi mashg`ulotimizda ham baxor elchisi bo`lgan boychechak haqida suxbatlashamiz.

Baxor faslida tabiatda o`zgarish bo`ladi, daraxtlar kurtak chiqaradi, maysalar unib chiqadi, kunlar isiy boshlaydi, dalalarda baxorgi ishlar qizg`in boshlanib ketadi.

Baxor elchisi bo`lgan boychechak, binafshalar ochiladi. Qir-adirlar, lolaqizg`aldoqlar ochilib, atrof olam yamyashil bo`lib go`zal tusga kiradi.

Men maysaman, maysaman
Yerdan bosh ko`taraman
Olamga yozib gilam
Maysalarga burkanaman
Bolajonlar baxor fasli mayramlarga boy fasl.

Bolajonlar: 8-mart “Xalqaro xotin qizlar bayrami” onajonlarimiz bayrami, 21- mart “Navro`z” bayramlari nishonlanadi. Barchamiz bu bayramlarni untiqlik bilan kutamiz.

Tarbiyachi: Bolajonlar baxor elchilaridan yana nimalarni bilasiz.... Ha albatta qushlar, ular ham bahor fasli kirib kelishi bilan o`lkamizga qaytib keladilar, bulardan qaldirg`och, laylaklar.

Ayvonomiga in quradi
Ayri dumli zo`r me`mor
Kuzda uchub janubga
Qaytib kelar har baxor (Qaldirg`och)

Bu topishmog`imizning javobi qaldirg`och-a
Mana bolalar sizlar bilan baxor faslining go`zal fazilatlari haqida suxbatlashdik.
Baxor faslining ilk kunlaridan tabiatga albatta gullar chiroy qo`shib turar ekan.

O`zi qizil go`zal biram
Qirga yozar qizil gilam (Lolaqizg`aldoq)
Ko`klam kelsa unadi

Oftob chiqsa kuladi
U baxorni elchisi
Buni hamma biladi (Boychechak)

Sizlar bilan gullar haqida topishmoqlar o`rganib oldik. Bolajonlar bizlar momaqaymoqni, boychechaklardan, binafsha gullaridan boshlarimizga gulchambarlar qilamiz. Buning uchun bolajonlar muassasamizning bog`iga sayrga chiqamiz. Birgalikda rang-barang gullardan gulchambarlar yasaymiz, gullarni ranglarini aytamiz, Bolalar gullarimizning qanday ranglarda.

To`g`ri sariq, qizil, oq, siyoxrang, pushti rangda ekan
Gullar shakllari ham o`zgacha bo`ladi, gullarimizning rangi, shakli, chiroyiga chiroy qo`shib turadi. Ozining hushbo`y xidlari bilan o`zgacha tarovat taratib turadi.

Kelinglar bolajonlar endi “Gullar va asalarilar” o`ynini o`ynaymiz.

Viz-viz uchamiz

Gul shoxiga qo`namiz

Ox gul xidi

Shundayin yoqimli deb gullarga qo`nib gullarni xidlaymiz.

Bu o`yinda qizlarimiz gullar, o`g`il bolalarimiz asalarilar bo`ladi.

O`yinni 2-3 marta takrorlaymiz.

Bolalar kelinglar endi bog`imizdagи daraxtlarni kuzatamiz. Daraxtlarda ham o`zgarishlar sezyapsizlarmi bolajonlar. Ha to`g`ri daraxtlar kurtak chiqargan, voy mana bu yerda bodom daraxti gullabdi. Yodinglarga tushdimi demak birinchi bo`lib bodom daraxti gullar ekan. Qarang bolalar bodom gullarining qanday chiroyli ekanligini. Bolajonlar bodom daraxtidan so`ng o`rik, gilos, shaftoli va boshqa daraxtlar gullaydi. Bolajonlar gullarimiz go`zal baxor faslimizni tarannum etuvchi she`rlardan aytib beramiz. Kim chiroyli ifodali aytsa Anna shu bolaga sovg`amiz bor.

Muslimaxon she`r aytib berar ekan, bolalar hammamiz birgalikda tinglaymiz.

Lola

Lola bog`chaga chiqib

Kechka qadar gul terar

Etak-etak to`plaid

Har kungidan mo`l terdi

Sochiga gul bog`ladi

Chakkasiga taqdi gul

Yelkalaridan tashlab

Gulag ko`mildi butkul

Tarbiyachi: Endi o`g`il bolalarning navbati, bizga Ixlosbek o`zining Boychechak haqidagi she`rini aytib beradi.

Kun ketidan kun o`tar

Tun ketidan tun o`tar

Keldimi deb Gulbahor

Hamma yo`lga ko`z tutar

Yumshoq yerda yumalab

Tong nuriga cho`milib

Kulib chiqar boychechak

Olqishlarga ko`milib

Tarbiyachi: Juda ham yaxshi Ixlosbek, Muslimaxon ham o`zini she`rini sizlarga aytib berar ekan, birgalikda eshtamiz.

Sitora tom boshida

Nigora yonboshida

Chakkasida qizg`aldoq

Tezroq keeling qizchalar

Ra`no chanqovuz chalar

Buncha yoqimli oxang

Nog`oraga hamohang

Bivjov-bijing, chaqira-chak

Bijov- bijing, taqira-taq

Tarbiyachi: Demak bolajonlar she`rlarni hammangiz chiroyli qilib aytib berdingiz, endi sizlarni bilimlaringizni yana bir sinab ko`raylikchi. Qanday baxor taomlarini bilasizlar.

Bolajonlar: sumalak, ko`k chuchvara, ko`k somsa, ko`k monti, xonimlar tayyorlanadi.

Tarbiyachi: To`g`ri bolajonlar bu taomlar biz uchun foydali vitaminga boy taomlar hisoblanadi.

Keldi Navro`zu ayyomi

Chuchmomalar ta`zimda

Doshqozonda sumalak

Lapar yangrar bazimda

Bolajonlar sumalak baxor taomi ekanligini bilasizlar

Bizning buvijonlarimiz, momlarimiz erta baxorda bug`doy undirib milliy taomimizni sumalakni katta doshqozonlarda tayyorlashadi. Sumalak tayyorlash davomida milliy o`yinlar, laparlar, aytishuvlar, raqslar ijro etiladi. Sumalak haqida ko`pgina she`rlar ashullalar rivoyatlar bor. Hozir bolajonlar men sizlarga sumalak haqida rivoyat aytib beraman.

Qadimda bir onaning uyida farzandlariga berish uchun hech narsasi qolmabdi. Bolalarni qorni juda ham ochib ketibdi. Ular onalaridan ovqat berishlarini so`rabdi. Shunda onasi hozir bolajonlarimiz sizlarga ovqat pishirib beraman deb o`choqqa olov yoqib, qozonga suvni quyib nish urgan bug`doy maysalarini yuvib qozonga solib, qaynata boshlabdi. Suvga 5-6 dona tosh donaklarini solib tong saxargacha kovlab, charchab onasi va bolalar uxlاب qolibdi.

Onasi tonda turib qozonga qarasa ajoyib taom bo`lgan ekan, uni mazasini tatib korsa taom juda ham mazali ekan. Bundan hayratlangan ona taomni bolalariga va qo`shnilariulashibdi. Taom to`yimli, mazali taom bo`lib, sumalak nomi bilan mashhur bo`lib ketibdi.

Tarbiyachi: Bolajonlar aytib bergen rivoyatim sizlarga yoqdimiz.

Bolajonlar bilan faoliyat yuzasidan savol-javob o`tkazib olib, ularni shirin so`zlar bilan rag`batlantiramiz. Shu bilan sayrdagi faoliyatimizni “Yomg`ir va maysa” o`yini bilan yakunlaymiz. Uyda 2-3 marta takrorlanadi.

53-Mavzu: Navro`z bayrami

Maqsad: Navro`z baxor bayrami haqida umumiy ma'lumotlar berish dunyoqarashini kengaytirish, kichkintoylarning suhabatida faol ishtirok etish, o'rtoqlarining javobini bo`lmaslik, bir-biriga o`zaro hurmat hissini tarbiyalash;

E'tiborga molik jixati: Milliy qadryatlarimiz, urf odatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalanadi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Kerakli jixoz va materiallar: Rasm, plakat, multimediyali dastur.

Faoliyatning borishi: **Tarbiyachi:** Bolajonlar, fasllar kelinchagi bo`lmish baxor fasli ham kirib keladi. Bahor fasli uning ob-havosi haqida kim menga aytib beradi. Bahorda havo ochiq, musaffo, iliq, quyoshli va yomg`irli bo`ladi. Yomg`ir yog`ib atrof muhitni yam-yashil maysalar-u gullarga burkaydi. Tabiat uyg`onadi. Daraxtlar kurtak yozib gullaydi.

Tarbiyachi: Bahor faslda birinchi bo`lib qaysi daraxt gullaydi? Bolalar : albatta bodom daraxti aziz bolajonlar. Bahor fasli o`zining salqinligi, shirin tarovati va go`zalligi bilan boshqa fasllardan ajralib tuiradi. Aziz bolajonlar kelinglar fasllarni bir yodga olamiz.

Bolalar: 1) baxor 2) yoz 3) kuz 4) qish

Bahor faslda qanday bayramlarni nishonlaymiz? Albatta bahorning ilk kunlaridayoq “8-mart xalqaro hotin-qizlar” ayollar bayramini nishonlaymiz. Bu bayramda barcha buvijonlarimiz, onalarimiz, opalarimiz va singillarimizni o`z mehrimiz bilan ularni tabriklaymiz.

Yana shunday ulug` bayramlardan biri Navro`z bahor bayramidir. Bu bayramni sevmaydigan, orzuqib kutmaydigan inson bo`lmasa kerak. Hammamiz ushbu bayramni yaxshi ko`ramiz, sababi bu bayram Navro`z yangi kun yangilanish, tug`ilish bayramidir. Navro`z bayrami o`zbekistonliklarni milliy bayramidir. Unda bizning milliy qadryatlarimiz aks etadi. Navro`zda o`z yaqinlarini bayram bilan qutlaydi. Doshqozonlarda sumalaklar pishiriladi, turli ko`k chuchvara, ko`k somsalar tayyorlanadi. Adirlarda turli sayllar boshlanadi, yigit qizlar bobo-buvijonlarimiz yangi kunga yetib keldik deb yaxshi niyyatda turli milliy ta'omlarimizni tayyorlaydilar, barcha yaxshi kayfiyatda bayramni nishonlaydi. O'tganlarni hotirlab ular esga olinadi. Xalqning manbai bo`lgan Navro`z bayrami keng ko`tarinki ruhda nishonlanadi. Qizaloqlarimiz milliy matolarimiz bo`lgan atlas-u adreslarimizdan turli kiyimlar kiyib olib bayramni nishonlaydilar, yigitlarimiz esa turli bahorgi o`yinlar jumladan

Uloq, eshak quvdi, to`p uloqtir, berkinmachoq, marraga yet, varrak uchirish, kim oladiyo shuginaniyo, oq terakmi ko`k terak o`yinlarini o`ynab dam oladilar.

Tarbiyachi: Bolajonlar biz ham milliy o`yinlarimizdan biri “Varrak uchirish” o`yinini o`ynaymiz. Buning uchun bizga ip, turli rangli varraklar kerak bo`ladi. Bolajonlar varrak uchirish musobaqasini o`tkazamiz, Buning uchun o`g`il bolalarimiz avvaldan tayyorgarlik ko`rishgan. Bolalar varrakni tayyorlaguncha men sizlarga Navro`z haqida she`r aytib beraman.

Qizlar gulli ro`mol o`rar
O`zlarini qilib ko`z-ko`z
Zamin yangi ko`ylak kiyar
Kelsa Navro`z, kelsa Navro`z
Navro`z yil boshi
Navro`z yangi kun
Navro`z bu bahor

Yigitlar varraklaeni uchirish musobaqasini boshlashadi. Enf g`olib uzoqqa varragini uchirgan bola rag`batlantiriladi.

Tarbiyachi: Kelinglar bolajonlar endi sizlarni bayram dasturhonimizga taklif etamiz. Bolajonlar qareng shirin hid taralyotgan nima ekan desam, bu bahor taomi sumalak ekan. Sumalak shirin ekan. Bolajonlar tatib ko`radilar. Dasturhonda bahor taomlaridan ko`k chuchvara, ko`k somsa va turli pishiriqlar mavjud. Bolajonlar bahor taomlari sizlarga yoqtimi? Endi siz bilan bahorda o`ynaladigan o`yinlardan “Kim oladiyo shuginaniyo” o`yinini o`ynaymiz. Qizlar bilan esa maysalardan soch yasaymiz.

Bilimlarini mustahkamlash uchun savollar:

- Bolajonlar, Navro`z qanday bayram ekan?
- Navro`zni qachon nishonlaymiz?
- Navro`zda qanday o`yinlar o`ynaladi?
- Navro`zda qanday taomlar tayyorlanadi?

Savollarga javob olgach Faoliyat�akunlanadi.

54-Mavzu: Buyumlar, anjomlar va asboblar

Maqsad: Mustaqil ravishda mashq harakatlarini bajarishni rivojlantirish, soda o`yinlarni tashkil eta olishga o`rgatish. Kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda aloqaga kirisha olishi, o`yin jarayonida tashabbuskorlik ko`rsata olishi va o`z takliflarini bera olishiga o`rgatish, saxnalashtirishda qatnasha olishi, bolalarning atrof olam to`g`risidagi bilimlari haqidagi lug`at boyligini oshirish. Jonsiz tabiat to`g`risidagi tasavvurlarini shaklantirish, mustaqil ravishda o`ntagacha hayvonlar, qushlar, hashorotlar nomlarini aytal olishga o`rgatish.

Kerakli jixoz va materiallar: qog`oz, pame-mashe uchun jixozlar, syujetli rolli o`yinlari uchun jamlanma, asar uchun ishlangan syujetli rasmlar, qum va suv bilan tajriba o`tkazish uchun buyumlar, tasviriy faoliyat uchun konselyariya buyumlari.

Syujetli rolli o`yinlar: “Oila”

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: Bolajonlar qarang xonamiz to`risida ajoyib sirli sandiqcha turibdi. Sandiqchamizda bir qancha buyumlar yashiringan. Sirli sandiqni ustida esa topishmoqlar yozilgan. Agar shu topishmoqlarni to`la olsakgina sandiqchamiz ochiladi. Bu topishmoqlarni sizlarga aytaman:

1-Topishmoq

Ro`parade turibdi

Yuzi dumaloq lo`ppi

Bir qulog`i bor, bir burni

Boshiga kiygan do`ppi

Bolalar javoblari: (choynak)

2-topishmoq. Yana bitta topishmoq aytaman

Ona bola yemas-ichmas

Dasturxon dan nari ketmas

Bolalar javoblari: (choynak, piyola)

Tarbiyachi: To`g`ri bolajonlar mana “Sirli sandiqcha”miz ham ochildi. Qarang uning ichida, choynak, payola, tavoqlar, likopchalar bor ekan. Hozir ular haqida sizlarga aytib beraman.

Shu payt eshikdan Bilmasvoy kirib keladi. Bolalar bilan salomlashadi.

Tarbiyachi: Bolalar guruhimizga mehmon tashrif buyurdi. Uyimizga mehmon kelsa nima qilamiz.

Bolalar: Dasturxon bezatamiz, mehmon qilamiz.

Tarbiyachi: Kelinglar biz ham mehmonlarni dasturxonga taklif etamiz.

Buning uchun nima qilish kerak?

Bolalar: Dasturxon yozib turli xil noz-ne’matlar va choynak payola, shirinliklar qo`yiladi.

Tarbiyachi: Mehmonlarga choy quyib uzatamiz

Bilmasvoy: Ustoz bu idishlar juda ham ajoyib ekan, ular qanday tayyorlangan?

Tarbiyachi: Bolajonlar aytingchi, choynak va payola bizga nima uchun kerak?

Bolalar: Choynak choy damlash uchun, payola esa choy ichish uchun kerak bo`ladi.

Tarbiyachi: To`g`ri aytdingiz ko`p yillardan beri choynak piyolalar bizga xizmat qiladi, choydan tashqari shifobaxsh giyohlarni, dorivor o`simliklarni ham damlab ichamiz. Bu choynak piyolalar turmushimizda juda ko`p ishlataladi. Ularni usta kulollar ona yurtimizning tuprog`idan tayyorlashadi. Tuproqdan loy tayyorlanadi va unga ko`p ishlov beriladi. Unga shakl berilib, maxsus issiqlikda pishirib, chiroyli va bejirim choynak va piyolalar tayyorlanadi.

Bilmasvoy: Ha tushundim, loydan chiroyli idishlar tayyorlansa-ya

Bolalar: Biz mashg`ulotlar davomida har xil idishlar yasaymiz.

Bilmasvoy: Mana bu choynak va piyolani bezagini qarang, qanday chiroyli ekan!

Tarbiyachi: Ha bolajonlarm idishlar kulollar mahsus loydan aylana daskgohdan tayyorlab olovda toplaydilar va serjilo bezaklar berib xalqimizga taqdim etadilar.

Bolajonlar bundan tashqari idishlar metaldan va yog`ochlardan ham tayyorlanadi. Masalan: qoshiq, lagan, choynak shu kabilardir. Shu payt Bilmasvoy qiziqib so`radi idishlar yana qanday turlari bor?

Tarbiyachi: Shisha va plastmassa idishlar ham bor

Bilmasvoy: Bu idishlar qanday tayyorlanadi?

Tarbiyachi: Bolajonlar Bilmasvoy bu idishlarni qanday tayyorlanishini bilmas ekan biz hozir shu haqida gaplashdik, sizlar aytib beringlar.

Bolalar javobi:

Bilmasvoy: Rahmat bolajonlar sizlardan juda ko`p narsani o`rganib oldim. Endi birgalikda bir ajoyib o`yin o`ynasak o`yinimizni “Ajoyib quticha” o`yini shu tarzida olib boriladi. Bilmasvoy quticha ichidagi idishlarni olib bolalardan idish nomlarini so`raydi. Bolalar idish nomlarini aytadilar.

Faol bolalar tarbiyachi va Bilmasvoy tomonidan rag`batlantiriladi. Bolalar va tarbiyachi Bilmasvoy bilan hayrashadi.

55- Mavzu: Buyuk alloma A. Navoiy

Maqsad: Davra suxbati orqali O`zbekiston haqida, unda yashabo`tgan allomalar haqida bilimlarini aniqlash ularni qilgan ishlarini yozgan asarlarini, odob-axloq so`zlari orqali o`z vataniga ota-onasiga do`stlariga mehr muhabbatini o`zbeklarga hos bo`lgan qoidalarni bolalarga shakllantirish.

Bolalar o`zbek xalqining qadimda yashab o`tgan allomalardan hurmat va havas uyg`otish ulardan qolgan me`rosni asrab avaylashga o`rgatish.

E'tiborga molik jixat: Buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanish hissi oshadi.

Kerakli jixoz va materiallar: Ko`rgazmali bezatilgan davra, mavzuga oid rasm

Faoliyatning borishi: Bolalardavra qurib o`tirib ulug` bobolar haqida suxbatlashadi, Shu payit xonaga Alisher Navoiy kirib keladi. A. Navoiy vo ajab ne xolat ushbu lobar qizlar malikalarmu, bu yigitlar shaxzodalarimu Assalomu alaykum

Bolalar: Vaalaykum assalom bobojon

Tarbiyachi: Bobojon davramizga hush kelibsiz

Navoiy: voy bob u bolajonlar qanchalik aqilli suhbatni eshtib qoyil qoldim.

Tarbiyachi: bolalar bobongizni tanidingizmi?

Bolalar: Ha

Tarbiyachi: Alisher bobomizni tanimagan odam yoq. Bobojon siz o`tirib biroz dam oling charchagansiz, nabiralaringiz qanday bilim olayotganini bilasiz.

Navoiy: Mayli bolajonlarim muddaoyim shu edi.

Tarbiyachi: Bobojon biz sizga qalamingizga mansub she'rlarni o`qib beramiz.

1-bola:

Odamiy ersang demagin odamiy

Onim yo`q xalq g`amidin g`ami

2-bola:

Odam borki odamlarning naqshidir

Odam borki hayvon undan yaxshidir

3-bola:

G`urbatda g`arib shodimon bo`lmas emish

El anga shafiqu mexribon bo`lmas emish

Oltin qafas ichra gar qizil butsa

Bulbulga tikondek ashyon bo`lmas emish

Navoiy: Ofarin

4-bola: - Yaxshi odob, yaxshi xulq odamga tuhanmas boylik

5-bola: - Nima zarur odamga hamisha odob bilan andisha

Navoiy: - Barakalla bolalar sizlar juda bilimdon ekansizlar. Qani endi meni savollarimga javob beringlarchi

Savol: Ikki ko`z nega kerak?

Javob: Yaxshiliklarni ko`rish uchun

Savol: Ikki quloq nega kerak?

Javob: Pand nasixat olish uchun

Savol: Yurak nima uchun kerak?

Javob: Yovga qarshi boorish uchun.

Savol: Til nega kerak

Javob: Haqiqatni aytish uchun

Savol: Oyoq nega kerak?

Javob: Qayga borsang ona yurtingga qaytish uchun

Navoiy: - Barakalla bolalar sizlar haqiqatdan ham bilimdob, zukko ekansiz. Sizlarga qoyil qoldim. Sizlarni mana shu qo`limdagi yaxshilikka yetaklovchi kitoblar bilan bir qatorda RIVOYATLAR TO`PLAMI kitobini sovg`a qilaman. Endi menga ruxsat kitobni o`rganib bilimlaringni oshirasizlar degan niyyatdaman. Bolalarim men sizlardan ko`nglim to`ldi hamisha sog` omon bo`ling.

Tarbiyachi: Bolalar hayrlashinglar

Bolalar: Hayr bobojon

Tarbiyachi: Bolalar bilan suhbatlashib turib sizlarni ichingizda ham ana shunday bobolarning izdoshlari chiqishi mumkin.

Har birimiz mahallalarda yashaymiz. Bobomiz Alisher Navoiy Samarqandning bir mahallasida tug'ilgan. Hamma bolalar o'z mahallasini gapirib beradi. Bolalar sizlar ham o'z mahallangiz haqida kitob yozishingiz mumkin.

Bolalar: Ha-ha deb javob berishadi.

Tarbiyachi: Bobomiz orzu qilgan izdosh bolalari sizning mahallangizda yashayapdi. Hozir sizlarga topshiriq har kim o'z kitobini muqovasini rasmini chizish kerak. bu chizilgan rasm sizning kitobingizni muqovasiga qo'yiladi.

Bolalar rangli bo`yoqlardan foydalanib mening kitobim mavzusida mahallasini rasmini chizadilar. Bolalarni rasmini kuzatib borib baxolanadi.

Yakuniy qism:

Kimning, nimaning o`rni o`zgardi o`yinini tashkil qilish.

56-Mavzu: Fan va tabiat markazi. "Qumning hususiyatlari"

Maqsad: Qumning hususiyatlarini biladi, qum quruq van am qumni farqini biladi, quruq qumdan nonchalar yasab bo`lmaydi, nam qum to`kilmaydi, undan nonchalar yasasa bo`lishini o`rganadi, atrof olamga o'z munosabatlarini bildira oladi.

Kerakli jixoz va materiallar: qum, qumdan yasalgan narsalar, rasmlar, suv, qumli qoliplar, maxsus konteynrlar.

Faoliyatning borishi:

1. Bolalar qum, qumdan yasalgan predmetlar va ularni rasmini ko`rish, slayd tomosha qilish, tarqatmalardan foydalanib izohlash.
2. Xo`l qum va quruq qumni farqlash
3. Xo`l qumdan nonlar yasash
4. Qumni hususiyatlarini aks ettiruvchi rasm va tarqatmalar bilan tanishish
5. Tarqatmalarni tartib bilan ketma-ketlikda qo`yish
6. Bolalarni rg`batlantirish.

Qo`shimcha qism:

Sayrda qum bilan o`yinlar, qumdonlarda tajriba takrorlash. Bolalarda faoliyat jarayonida sezgi, idrok, tafakkur faollashadi va kuzatish va xulosa qilishni o`rganish.

E'tiborga molik jixat: Bobolardan va atrof olamga qiziqishni oshirish hamda qum, uning hususiyatlari haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

Tabiat va fan markazida:

Tarbiyachi:

Mening bilimdonlarim rasmdagi nima narsa? (Bolalar jo`r ovozda qum deydilar). Keyingi rasimni ko`rsatib (Bolalar suv deydilar) qarang aziz bolajon suvni qumga quysak biz nima bo`lar qaqaqjon? (Hammalari birligida xo`l qum deydilar). Xo`l qumdan yasaymiz nonchalar, to`g`rimi javob bering bolachalar? (Bolalar to`g`ri deydilar). Quruq qumni sochganda atrofga dumalaydi. Demak unda nonchalar hech ham yasab bo`lmaydi. (Bolalar ha deb tasdiqlaydilar).

57- Mavzu: Butun dunyoda tinchlik

O`zbekiston xalqining milliy g`ururini ko`klarga ko`targan. Uning dunyo saxnasidagi o`nni mustaxkamlashda asosiy omillardan biri bo`lib xizmat qilgan, uzoq asrlar davomida butun ruxiyatiga singib ketgan xissiyot, uning vataniga bo`lgan mehri muhabbatidir. Qalbida

milliy g`urur tuyg`usini go`s sh urish turgan insongina o`z yurti uchun buyuk ishlarga qodir bo`ladi. Yosh avlodni yurtga bo`lgan sadoqati, uning shon-shuxratini dunyo miqyosiga olib chiqish ruxida tarbiyalash, avvalo ota-onaning qolaversa pedagog tarbiyachilarning muqaddas burchidir.

Maqsad: bolalarga butun dunyoda tinchlik tushunchasining mazmun mohiyatini yetkazish mustaqillik buyuk ne`mat ekanligini singdirish bolalar ongiga, mustaqil hikoya tuzish ko`nikmasini shakllantirish. Bolalarda bog`langan nutqni rivojlantirish to`g`ri jumla tuzishni o`rgatish savol javoblar tashkil etish, jamoa bo`lib harakat qilishga o`rgatish. Mashg`ulotda o`zini tutish ko`nikmalarini shakllantirish.

Qiziqarli savol javoblar orqali bolalarni fikrlarini ularning saloxiyatini rivojlantirish.

Kerakli jixozlar: Mustaqillik maydoni, bayramshukuxi tasvirlangan rasmlar, dunyo bolalari aks etgan rasmlar.

Faoliyatning borishi: Tarbiyachi bolalarga butun dunyoda tinchlik bo`lishi haqida hamda O`zbekiston Respublikasi uning mustaqillikka erishgani obod va farovonhayotimiz, diyorimizdagi o`zgarishlar, tinch va musaffo osmonimizhaqida ma'lumot beradi. Shundan so`ng guruhdagi bolalardan mustaqillik, Vatan tushunchalari haqida so`raydi. Bolalar bilganlarini bayon etishadi.

1-bola: Mustaqillik bu yaxshi yashash, erkinlik, hech kimga qaram bo`lmaslik.

2-bola: Vatan bu yuimiz, ko`chamiz, shaxrimiz, obod mahallamiz, obod qishlog`imiz, tug`ilgan joyimiz.

Tarbiyachi: Bolajonlar sizlarning javobinglardan shunday xulosaga kelamiz.

Vatan tug`ilgan joyimiz ona shaxrimiz! Uning obodligi va farovonligi tinchligi uchun barchamiz birdek mas'ulmiz!

Mustaqillik esa eng qimmatbaxo ne`mat uni qadrlash, asrash har birimizning ulkan maqsadimizga aylanishi lozim.

Tarbiyachi: bolalarni guruhlarga ajratib, har bir guruhgaga “Mustaqillik maydoni, tinchlik ramzi” suratini tarqatadi. Tarbiyachi mazkur rasmlarga binoan har bir guruhdagi bolalarga bajaradigan ishlari to`g`risida tushuncha beradi. Bunda bolalardan rasmga qarab xikoya tuzish so`raladi. Har bir guruuh 4-5 nafar boladan iborat bo`ladi. Ularga turli topshiriqlar beriladi.

1-guruuhdan rasmdagi qizlar va o`g`il bolalar soni aniqlash so`raladi.

2-guruuh esa ularning kayfiyatini va harakatlarini aytib berishlari kerak.

3-guruuh esa rasimdagagi bolalar kiyimlarini va ranglarini tasvirlash vazifalari beriladi.

Shundan so`ng tarbiyachi faol ishtirok etgan guruhlarni rag`batlantiradi. So`ng bolalarga buyuk allomalarimizning fikrlarini aytib beradi.

Leonel Messi: Baxtiyor va tabassum qilayotgan bolani ko`rishdan ham ulkanroq quvonch yo`q, bolalarni kulgusi dunyodagi jamiki boylikdan qimmat.

Jaloliddin Rumiy: bolalar dunyoni bilmaganlari undan zerikmaganlari uchun beg`ubordir va o`ynamoq orzusi bilan yashaydilar.

Avgustinus Sanktus: Dunyo kitobdir sayoxat qilmaganlar uning bir saxifasini o`qigan holos.

Alisher Navoiy: Dunyo dorul xavodisdur va anga ko`ngil bog`lamoqqa g`aflat boisdir.

Tarbiyachi: Bolajonlar bilib oldingizmi buyuk allomalarimiz ham dunyoda hamisha tinchlik bo`lishini hohlaganlar, va yuqorida aytib o`tgani fikrlarini bildirganlar.

Shundan so`ng tarbiyachi yana bir karra O`zbekiston Respublikasi mustaqillik bayramini tinchlik osoyishtalik kabi tushunchalari mazmunini yoritib beradi.

Tarbiyachi bolalarga quyidagi savollar bilan murojat qiladi.

1. Vatan deganda nimani tushunasiz?
2. Mustaqillik deganda nimani tushunasiz?
3. Tinchlik nima?

4. Biz qanday yurtda yashaymiz?

Bolalar tarbiyachining savollariga javoban. Bilgan tushungan fikrlarini aytib beradilar.

Faoliyat yakunida ular bilan birgalikda bajarilgan ishlar taxlili qilinadi, va faol ishtirok etgan bolalar rag`batlantiriladi.

55-Mavzu: Koinot sirlari

Maqsad: Bolalarni koinothaqidagi tushuncha va tasavvurlarini kengaytirish. Quyosh sistemasi haqidagi bilimlarini videorolik orqali mustahkamlash, she'r topishmoq, hikoyalar orqali bolalarda mashg`ulotga qiziqish uyg`otish.

E'tiborga molik jixat: Bolalar koinot olami haqida tushunchaga ega bo`ladilar.

Kerakli jixozlar va materiallar: Quyosh, oy, yulduz va turli koinot jismlari surati, koinot haqidagi video lavha.

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: bolalar doira bo`lib turib oladilar. Endi bolalar kichkina mashq qilib olamiz.

Mening quloglarim hamma narsani eshtadi.

Bolalar: quloglarini silaydilar

Ko`zlarim ham yaxshi ko`radi

Bolalar: Ko`zlarini silaydilar

Quyosh taftini his qilamiz

Bolalar: nafas chiqaradilar

Barakalla bolalar endi ko`ra olamiz, eshtamiz, savollarga to`g`ri javob berish va hikoya qilib berishga tayyorsiz.

Guruhga ayiqcha hafa holda kirib keladi.

Tarbiyachi: Salom ayiqcha nima bo`ldi, nega hafasan?

Ayiqcha: Salom bolalar men yotaverib juda ham zerikib kettim hech qachon quyosh chiqmaydiganga o`xshaydi.

Tarbiyachi: Bolalar sizlar ham ayiqchaga achinyabsizlarmi? Kelinglar uni kayfiyatini ko`tarish uchun koinotga sayr qilamiz. Koinot deganda osmon, oy, quyosh, yulduzlarni tushunamiz.

Bolajonlar topishmoq aytaman topasizlar.

Tilla sandiq ochildi

Olamga nur sochildi (Quyosh)

Barakalla bolajonlar bu quyosh edi.

Guruh xonasiga quyosh bobo kirib keladi.

Men quyosh nurlarim bilan

Iliq, issiq, taftlarim bilan

Har tong men ham shoshaman

Yayrab nurim chochaman

Tarbiyachi: Quyosh bobo bilasizmi ayiqcha sizni juda ham sog`ingan u qishning qattiq sovug`idan yotaverib toliqqa. Bolalar bilan qaysi fasllarda butun borliqni qizdirishingizni tushuntirsak.

Quyosh: Men har kuni yer sirtining bir tomonidan chiqib kun bo`yi osmonda harakat qilaman, kechga borib yer sirtining boshqa bir tomoniga boatman. Yer mening atrofimda aylanadi.

Tarbiyachi: Bolajonlar diqqatingizni kompyuterga qarating, yer quyosh atrofida aylanishini kuzatamiz. Quyosh atrofida 8 ta sayyora aylanadi Merkuriy, Venera, Yer, Mars, Jupiter, Saturn, Uran, Neptun

Quyosh: Bolalar men haqimda she`rlar bilasizlarmi?

Bolalar: Oltinquyosh (Miraziz A'zam)

Quyosh chiqdi,

Oltin quyosh

Oltin quyosh ufqda,

Oltin quyosh chiqganini

Kalaytamiz qo`shiqda

Turing qani o`rningizdan

Turing oppoq bolalar

Oltin quyosh chiqqaniga

Qutlamoqda dalalar

Tarbiyachi: Bolalar sizlarga “Shamol va quyosh” hikoyasini so`zlab beraman.

Bir kuni shamol va quyosh baxslashib qolibdi. Ular bu tortishuvni yo`lda keayotgan yo`lovchi yordamida hal qilishga kelishibdi. Kim birinchi bo`lib yo`lda kelayotgan yo`lovchining egnidagi po`stinini yecha olsa o`sha kuchli hisoblanadigan bo`ldi. Shamol o`z navbatidan foydalanib qattiq esa boshlabdi yo`ldagi odam yurishga qiynalib zo`rga qadam tashlabi. Shamol kuchaygan sari yo`lovchi ham kiyimiga mahkamroq o`ranib olibdi qancha harakat qilmasin yo`lovchining kiyimini yecha olmabdi. Navbat quyoshga kelibdi. Quyosh o`zining nurlarini sochibdi keyin esa taftini zo`raytirib yo`lovchini qizdira boshlabdi. Shunda yo`lovchi isib ketganini his qilib p`ostinini yechibdi.

Qissadan qissa shuki ko`p narsaga zo`ravonlik bilan emas oliyjanoblik bilan erishsa bo`ladi.

Tarbiyachi: Bolalar shamol va quyoshning baxslashishidan qanday hulosa chiqardingiz?

Bolalar javobi:

Guruh xonasiga Qimmat tashrif buyuradi.

Qimmat: Uff bu quyosh qizdiraverib jonimga tegib ketti qachon kech tushadiyu va yulduzlarni tomosha qilib yotaman.

Tarbiyachi: Qimmatxon senga topishmoq aytaman topsang quyosh o`z navbatini oy va yulduzlarga beradi, agar topa olmasang quyosh taftidan uhlayolamay yuraverasan.

Qimmat: Kelishdik men albatta topaman

Tarbiyachi: Unday bo`lsa diqqat bilan tingla

Dum dumaloq barkash non

Ko`k yuzida suzadi (Oy)

Tarbiyachi: Bolalar u to`g`ri javob berdimi

Bolalar: Yo`q topishmoqning javobi Oy

Tarbiyachi: Senga yana bir topishmoq aytaman

Tunda ko`rib cho`g deysan

Tongda ko`rib yoq deysan (Yulduz)

Qimmat: Axir bu olovku topdimmi

Tarbiyachi: Sen topishmoqning javobini topa olmading bu yulduz edi. Bolajonlar Qimmatxon kun va tunni farqlay olmas ekan. Kunduzi quyosh charaqlab chiqib bepayon olamga yorug`lik tarqatib turadi. Yerdagi butun tirik tabiat, o`simlik va hayvonlar, insonlar quyosh yorug`ligi tufayli mavjuddir. Tunlari esa osmonda son sanoqsiz yulduzlar ko`rinadi. Yulduzlar bizga mitti bo`lib ko`rinsada aslida ularning har biri juda ulkan. Yulduzlar rang barang ayrim yulduzlar oqish yoki ko`kimir bo`ladi. Bolajonlar Odil Abdurahmonning “Oy allasi” she’rini kim aytib beradi.

Bolalar:

Oy ona emish

Bolasi yulduz

Alla aytarmish

Oppog`im qunduz

Ko`zim nurini

Senga tutdimo

Otangday bo`l deb
Yo`ling kutdimo
Otam qayda deb
So`rama bolam
Otang quyoshdan
Bahramand olam

Tarbiyachi: barakalla bolajonlar qani aytinlarchi oy ona bolasiga yulduzga nimalar haqida so`zladi? Quyosh oy yulduzlar kimgarga o`xshatilgan?

Demak bolajonlar inson tirik tabiatning hayotida bu osmon jismlarining ahamiyati muhim ekan. Ayiqvoy. Quyoshbobo, Qimmatxon kelinglar bolalar bilan birga “kun va tun” o`yinini o`ynaymiz. Guruh ikki jamoaga bo`linib 1-quyosh, 2- yulduzlar Bolajonlar sizlar bilan muassasa atrofiga sayrga chiqamiz. O`yinimizni kunning ikkinchi yarmida davom ettiramiz.

59-Mavzu: Bizning sayyora, fazoga sayoxat, raketa va samolyotlar.

Maqsad: Bolalarga koinot haqida tushuncha berish, koinot transportlari haqida tushuncha berish, bolalarni koinot haqidagi bilimlarini boyitish, o`yin orqali shaxsi hissiy irodaning sifatkarining jamoada ijobiy muhitini yarata olish hissini rivojlantirish.

Kerakli jixozlar: Globus, samolyot, vertalyot, raketa, plakat, sayyoralar chizilgan rasimlar, tarqatma materiallar.

Faoliyatning borishi: Bolalarni mashg`ulotga tayyorlash. Faoliyat topishmoq bilan boshlash.

O`zi o`xshar tarvuzga

Bilim beradi bizga

Tarbiyachi: Qani bolalar bu topishmoqning javobi nima? Bolalar topishmoqni javobini aytadilar. (globus). Rahmat bolajonlar barakalla.

Tarbiyachi: Qani bolajonlar biz hamma transportlarni turlarini bilamiz-a? Kelinglar mena havo transportlarini kim sanab beradi?

1-bola: Ofarin, raketa, samolyot, vertalyot va boshqalar.

Tarbiyachi: Barakalla javobingiz juda ham to`g`ri.

Bolajonlar bugun sizlar bilan havo transportlari haqida suhbatlashamiz.

Men sizlarga turli xil rasimlar ko`rsataman sizlar rasmlarda nimalar tasvirlanganini aytasizlar?

Tarbiyachi: Quyosh, osmon, oy, yulduz, samolyot, vertalyot, raketa rasmlarni ko`rsatadi.

Bolalar: Hammasini juda ham to`g`ri topdinglar.

Tarbiyachi: Endi men sizlarga fazoviy jismlar haqida tushuncha beraman.

Quyosh osmon jismlariga kiradi. U yer yuzini isitib barcha daraxtlar ekinlarga insonlarga issiqlik nurini sochadi. Quyosh nuri bilan barcha meva va sabzavotlar shirin bo`lib pishadi. Oy tunda ko`rinib yo`limizni yoritadi. Yulduz bizdan juda ham uzoqdaligi uchun bizga juda ham mayda bo`lib ko`rinadi, lekin ular ham quyosh hisoblanadi. Quyosh, oy, yulduz osmon jismlari hisoblanib ular bir birlariga uzviy bog`liq.

Endi havo transportlari bilan tashuvchi, qutqaruvchi samolyotlar bo`ladi. Samalyot- juda katta polatdan va temirdan yasalgan bo`ladi. Vertalyot esa samalyotga o`xshash qanoti va varraklari bo`ladi. Raketa esa havoga tik uchuvchi transport bo`lib unda ko`proq fazogirlar uchadi.

Tushundilarmi bolalar.

Tarbiyachi: Qani bolalar hozir men sizlarga yana bir topishmoq aytaman.

Keng fazoni quchadi

Oylab yillab uchadi

Bolalar: Raketa deb javob beradilar.

Tarbiyachi: juda ham to`gri men endi sizlarga raketa haqida tushuncha beraman. Bolalar raketa kosmik kemalarni tepaga olib chiqadi. Ko`slik kema esa osmonda uchib yuradi. Ko`slik kemalarni fazogirlar boshqaradi. Ular osmon jismlarini o`rganib tushadi. Bolalar biz yer sayyorasida yashaymiz. Raketa va samalyotlarda osmonga parvoz qilamiz. Yer sayyorasida insonlar, daraxtlar, hayvonlar, katta kichik jonivorlar, qushlar yashaydilar. Ular nafas oladilar, quyoshdan energiya olib yashaydilar. Bolalar mana bugungi mashg`ulotimizda osmon jismlari, havoda uchuvchi transportlar va ularning turlari haqida suhbatlashdik. Ularni bir birlaridan farqlashni o`rgandik, endi sizlar bilan Oy haqida she'r bilan mashg`ulotimizni yakunlaymiz.

Oy ona emish,
Bolasi yulduz.
Alla aytarmish,
Oppog`im qunduz.

Tarbiyachi: Bolalarni Faoliyat yuzasidan savol javob qilib yaxshi qatnashgan bolalar rag`batlantiriladi.

60-Mavzu: Fazoga sayoxat

Maqsad: Bolalarni koinot haqidagi tushuncha va tasavvurlarini kengaytirish. Quyosh sistemasi haqidagi bilimlarini videorolik orqali mustahkamlash. She'r, topishmoq hikoyalar orqali bolalarda mashg`ulotga qiziqish uyg`otish.

E'tiborga molik jixat: Bolalar quyosh, yer, yulduz, oy, sayyoralar haqida tushunchaga ega boladilar.

Kerakli jixozlar: Quyosh, yer, yulduz, oy tasviri tushurilgan suratlar kompyuter

Faoliyatning borishi: Tarbiyachi bolalar doira bo`lib turib oladilar. Endi bolalar kichkina mashq qilib olamiz.

Mening qulqlarim hamma narsani eshtadi

Bolalar: qulqlarini silyadilar

Ko`zlarim ham yaxshi ko`radi

Bolalar: ko`zlarini silaydilar

Quyosh taftini his qilamiz

Bolalar: nafas chiqaradilar

Barakalla bolalar endi biz ko`ra olamiz, eshtamiz, savollarga to``gri javob berish va hikoya qilib berishga tayyormiz.

Guruhsiga ayiqcha hafa holda kirib keladi.

Tarbiyachi: Salom ayiqcha nima bo`ldi, nega hafasan?

Ayiqcha: Salom bolalar men yotaverib juda ham zerikib kettim hech qachon quyosh chiqmaydiganga o`xshaydi.

Tarbiyachi: Bolalar sizlar ham ayiqchaga achinyabsizlarmi? Kelinglar uni kayfiyatini ko`tarish uchun koinotga sayr qilamiz. Koinot deganda osmon, oy, quyosh, yulduzlarni tushunamiz.

Bolajonlar topishmoq aytaman topasizlar.

Tilla sandiq ochildi
Olamga nur sochildi (Quyosh)

Barakalla bolajonlar bu quyosh edi.
Guruh xonasiga quyosh bobo kirib keladi.
Men quyosh nurlarim bilan
Iliq, issiq, taftlarim bilan
Har tong men ham shoshaman
Yayrab nurim chochaman

Tarbiyachi: Quyosh bobo bilasizmi ayiqcha sizni juda ham sog`ingan u qishning qattiq sovug`idan yotaverib toliqqa. Bolalar bilan qaysi fasllarda butun borliqni qizdirishingizni tushuntirsak.

Quyosh: Men har kuni yer sirtining bir tomonidan chiqib kun bo`yi osmonda harakat qilaman, kechga borib yer sirtining boshqa bir tomoniga boatman. Yer mening atrofimda aylanadi.

Tarbiyachi: Bolajonlar diqqatingizni kompyuterga qarating, yer quyosh atrofida aylanishini kuzatamiz. Quyosh atrofida 8 ta sayyora aylanadi Merkuriy, Venera, Yer, Mars, Yupiter, Saturn, Uran, Neptun

Quyosh: Bolalar men haqimda she'rlar bilasizlarmi?

Bolalar: Oltinquyosh (Miraziz A'zam)

Quyosh chiqdi,

Oltin quyosh

Oltin quyosh ufqda,

Oltin quyosh chiqganini

Kalaytamiz qo`shiqda

Turing qani o`rningizda

Turing oppoq bolalar

Oltin quyosh chiqqaniga

Qutlamoqda dalalar

Tarbiyachi: Bolalan

Bir kuni shamol w

yo`lovchi yordamida

yo`lovchining egnidagi po`stinini yecha olsa o`sha l

navbatidan foydalanib qattiq esa boshlabdi yo`ldagi odam yurishga qiynalib zo`rga qadam tashlabi. Shamol kuchaygan sari yo`lovchi ham kiyimiga mahkamroq o`ranib olibdi qancha harakat qilmasin yo`lovchining kiyimini yecha olmabdi. Navbat quyoshga kelibdi. Quyosh o`zining nurlarini sochibdi keyin esa taftini zo`raytirib yo`lovchini qizdira boshlabdi. Shunda yo`lovchi isib ketganini his qilib p`ostinini yechibdi.

Qissadan qissa shuki ko`p narsaga zo`ravonlik bilan emas olivjanoblik bilan erishsa bo`ladi.

Tarbiyachi: Bolalar shamol va quyoshning baxslashishidan qanday hulosa chiqardingiz?

Bolalar javobi:

Guruh xonasiga Qimmat tashrif buyuradi.

Qimmat: Uff bu quyosh qizdiraverib jonomga tegib ketti qachon kech tushadiyu va yulduzlarni tomosha qilib yotaman.

Tarbiyachi: Qimmatxon senga topishmoq aytaman topsang quyosh o`z navbatini oy va yulduzlarga beradi, agar topa olmasang quyosh taftidan uhlayolamay yuraverasan.

Qimmat: Kelishdik men albatta topaman

Tarbiyachi: Unday bo`lsa diqqat bilan tingla

Dum dumaloq barkash non

Ko`k yuzida suzadi (Oy)

Tarbiyachi: Bolalar u to`g`ri javob berdimi

Bolalar: Yo`q topishmoqning javobi Oy

Tarbiyachi: Senga yana bir topishmoq aytaman

Tunda ko`rib cho`g deysan

Tongda ko`rib yoq deysan (Yulduz)

Qimmat: Axir bu olovku topdimmi

Tarbiyachi: Sen topishmoqning javobini topa olmading bu yulduz edi. Bolajonlar Qimmatxon kun va tunni farqlay olmas ekan. Kunduzi quyosh charaqlab chiqib bepayon olamga yorug`lik tarqatib turadi. Yerdagi butun tirik tabiat, o`simlik va hayvonlar, insonlar quyosh yorug`ligi tufayli mavjuddir. Tunlari esa osmonda son sanoqsiz yulduzlar ko`rinadi. Yulduzlar bizga mitti bo`lib ko`rinsada aslida ularning har biri juda ulkan. Yulduzlar rang barang ayrim yulduzlar oqish yoki ko`kimir bo`ladi. Bolajonlar Odil Abdurahmonning “Oy allasi” she`rini kim aytib beradi.

Bolalar:

Oy ona emish

Bolasi yulduz

Alla aytarmish

Oppog`im qunduz

Ko`zim nurini

Senga tutdimo

Otangday bo`l deb

Yo`ling kutdimo

Otam qayda deb

So`rama bolam

Otang quyoshdan

Bahramand olam

Tarbiyachi: barakalla bolajonlar qani aytinlarchi oy ona bolasiga yulduzga nimalar haqida so`zladi? Quyosh oy yulduzlar kimlarga o`xshatilgan?

Demak bolajonlar inson tirik tabiatning hayotida bu osmon jismlarining ahamiyati muhim ekan. Ayiqvoy. Quyoshbobo, Qimmatxon kelinglar bolalar bilan birga “kun va tun” o`yinini o`ynaymiz. Guruh ikki jamoaga bo`linib 1-quyosh, 2- yulduzlar

Bolajonlar sizlar bilan muassasa atrofiga sayrga chiqamiz. O`yinimizni kunning ikkinchi yarmida davom ettiramiz.

61-Mavzu: Buyuk alloma Z.M. Bobur Andijon farzandi.

Maqsad: Bolalarni buyuk allomalar bilan tanishtirish. Bobolarimiz yaratgan asarlarini bizga qoldirgan ma'naviy merosini qadrlashni o`rgatish va mazmun mohiyatini tushuntirish. Buyuk allomalarimiz asarlaridagi odamiylik, vatanparparlik, adolat, muhabbat, do`stlik, vafo, halollik va mardlik kabi go`zal fazilatlarni bolajonlar ongiga singdirish. Bolalarni zukkolik, tez fikrlash qobilyatlarini shakllantirish, xotira va tafakkurlarini rivojlantirish, buyuk allomalarimizga bo`lgan hurmatini oshirish.

Kerakli jixozlar va materiallar:

Buyuk ollomalar rasimlari, Andijon shahrining hozirgi ko`rinishiga oid rasmlar, qo`chimcha adabiyotlar va ma'lumotlar.

Faoliyatning borishi: Bolajonlar bugun biz sizlar bilan buyuk alloma, shoh va shoir, davlat arbobi Andijon farzandi Z.M. Bobur haqida suhbatlashamiz. Z.M. Boburning rasmi ko`rsatiladi.

Bolajonlar rasmida kimni ko`ryabsiz?

Juda to`gri bu buyuk alloma, shox va shoir, davlat arbobi Z.M. Bobur. Z.M. Bobur 14-fevralda Andijonda tug`ilgan. U buyuk sarkarda A.Temurning beshinchi avlod, Farg`ona hukmdori Umarshayxning farzandi.

Bobomiz Z.M. Bobur yoshligidanoq juda zehni o`tkir, ziyrak bola bo`lgan. Buni biz “Bobur va kabutar” rivoyatidan bilishimiz mumkun.

Kunlardan bir kun Boburning otasi Umarshayx saroy a`yonlari bilan saroya o`tirgan ekan. Bir kabutar uchib kelib ayvon peshtoqiga qo`nibdida “g`ulu-g`ulu” qilaveribdi. Umarshayx a`yonlaridan “kabutar ne deydur” deb so`rabdi. Ular “Oliy hazrat, kabutar qilichlarini qindan sug`urmoq kerak deydur” deb javob berishibdi. Bir chekkada jim o`tirgan Mirzo Bobur “Yoq kabutar unday demaydur, ota u qovun sayliga chaqiribdur. Jonivor hushxabar keltiribdur” debdi. Umarshayx kabutarni tutib keltirishlarini buyuribdi. Kabutarni tutib kelib oyog`idagi mis xalqani olib qarashsa, ichidam bir xat chiqibdi. Xatda “Oliyxazrat, qovun ayni pishdi. Kelib qo`l urib bersalar” deb yozilgan ekan. Mirzo Boburning gapi to`g`ri chiqqanidan hayratga tushgan Umayshayx o`g`lidan “Bunchalik topqirligingni boisi nedur?” deb so`rabdi. Bobur “Ota bu kabutar o`tgan yili qovun sayli hushxabarini habar qilg`on edi, uning o`ng qanotida qora xoli bor edi shundan tanidim” deb javob beribdi. Yosh Boburning hushyorligi, topqirligiga qoyil qolgan Umarshayx a`yonlariga qarab “Qilichini emas, aql-idrokini ishga solmoq lozimdir” deb barchani qovun sayliga otlanishga farmoyish beribdi. Bolajonlar rivoyatdan ko`rinib turibdiki, u o`zining ziyrakligi, sinchkovligi va hushyorligi bilan barchani lol qoldirgan. Shu bilan birga bir beozor qushni hayotini saqlab qolgan. Mirzo Bobur ana shunday xislatlari bilan bir beozor qushni hayotini saqlab qolgan. Mirzo Bobur ana shunday xislatlari bilan bir qatorda ko`p vaqtini kitob oqishga, bilim olishga bag`ishlardi.

U she`r o`qishni, musiqa eshtishni yaxshi ko`rgan. Bobur komondan o`q otish va qilichbozlikdan saboq olgan. Bobur 12 yoshida taxtga o`tirgan. 16 yoshidan boshlab she`rlar yozgan. Keyinchalik o`z yurtini tark etib, Afg`iston va Hindistonga yuz tutganda Bobur she`ryatida Vatan tuyg`usi, Vatan sog`inchi, unga qaytish umidi mav ura boshladi.

Bobur o`zga yurtda shoh bo`lsa ham o`z ona yurtini sog`inib, qumsab yashagan va ushbu ruboyisini yozgan:

Tole yoqki boshimg`a balolig` bo`ldi

Har neyniki ayladim xatolig` bo`ldi
O`z yurtini qo`yib Hind sari yuzlandim
Yo rab netayin, bu ne yuzi qarolig` bo`ldi.

Zaxiriddin Muhammad bobur faqat yirik davlat arbobi va mohir lashkarboshigina bo`lib qolmay, balki shu bilan birga, buyuk shoir, adib, tarixchi olimdir.

Ilm – ma’rifatni qadrlagan va unga homiylik qilgan shoirilm o’z-o’zidan bunyod bo`lmaydi, kishi faqat havas va ishtiyoq bilangina ega bo`la oladi deydi:

Kim yor anga ilm tolibi ilm kerak
Organgali ilm tolibi ilm kerak
Men tolibi ilmu tolibi ilm yo`
Men bormen ilm tolibi ilm kerak

Yaxshi xulq – atvor, kishilarga yaxshilik qilish ezgu xiçlat va olijanob fazilatdir:
Xulqingni rost etgil har sorig` aki borsang
“Ahsanta” der bori el, gar yaxshi ot chiqarsang

Bori elga yaxshilik qilgilki, mundin yaxshi yo`q, kim degaylor dahr aro qoldi, falondi yaxshilig`.
Bobur xalqimizning “qilmish –qidirmish” degan gapiga amal qilib, yaxshi kishi yaxshilik, yomono kishi yomonlik ko`radi mazmunidagi misralarni bitadi.

Shoirning lirikasidagi vatan ishtiyoqi, g`ariblikning hasrat va nadomat motivlari ham bevosita uning murakkab hayoti va kurash yo`li, shodyona va alamli sargushatlari bilan bog`liq.

Bobur temuriylar sulolasining hukmronligini halokatdan qutqarib qolmoqchi bo`ldi, biroq bunga erisholmadi. U Movaraunnahrda yirik mustahkam davlat vujudga keltirmoqchi bo`ldi, biroq orzu-umidlari barbod bo`ldi.

Ko`ngli tilagan murodga yetsa kishi
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi
Bu ikki tuyassar o`lmasa olamda
Boshni olib bir sorig`a ketsa kishi

Bobur Afg`oniston va Hindistonni egallab, katta imperiya qurdi. Biroq u umrining oxiriga qadar tug`ilib o`sgran yurtidan-diyoridan ko`ngil uzolmadi, vataniga qaytish fikridan kecha olmadi. U Afg`onistondaligida yor-do`stlariga yozgan bir ruboiynomasiida:

Beqayd mehu xarobi sim ermasman
Ham mol yig`itirur laim ermasman
Qabulda iqomat qildi Bobur dersiz
Andoq demangizlarki, muqim ermasman, degan edi
Mana shu kayfiyatlarning ifodasi sifatida uning bir qator mungli va alamli she’rlari vujudga keladi. Quyidagi ruboii shular jumlasidandir.

Yod etmas emish kishibi g`urbatda kishi
Shod etmas emish ko`ngili mehnatda kishi
Ko`nglim bu g`ariblikda shod o`lmadi og
G`urbatda sevinmas emish albatta kishi

Bobur yurtini qoldirib chet elga ketishini bir “xatolik”, “yuz qarolik” deb biladi, bu ishidan qattiq pushaymon bo`ladi.

Bobur diyorini-vatanini ishtiyoq bilan sevadi.

Demak bolajonlar bizlar ham o`z ona vatanimizni sevib, e’zozlab, qadriga yetib yashashimiz kerak. Aziz bolajonlar endi buyuk bobomiz Z.M. Bobur ruboyilaridan o`rganamiz va yod olamiz.

1-bola: Har kimki vafo qilsa vafo topqusidir

Har kimki jafo qilsa jafo topqusidur

Yaxshi kishi ko`rmagay yomonlig` argiz

Har kimki yomon bo`lsa, jazo topqusidir

2-bola: Charxning men ko`rmagan jabru jafosi qoldimu

Xasta ko`nglim chekmagan dardu balosi qoldimu

Meni xor etti-yu qildi muddaini parvarish

Dahri dunparvarning o`zga muddaosi qoldimu

3-bola: Tod etmas emish kishining g`urbatda kishi

Shod etmas emish ko`ngilni mehnatda kishi

Ko`nglim bu g`ariblikda shod bo`lmabdi-oh

G`urbatta sevilmas albatta kishi

Mana bolajonlar Bobur ruboiylaridan ham o`rganib oldik. Endi go`zal Andijonimizga sayohat qilamiz. Andijon deganda ko`z oldimizda Bog`ishamoldagi Bog`i-Bobur maskani va u yerdagı Z.M. Bobur hamda muzeyi namoyon bo`ladi.

Andijonda yashab turib bu maskanga bormagan inson bo`lmasa kerak. U yerda sayoxat qilish dam olish va o`ynash uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Bundan tashqari shahrimizda juda katta o`zgarishlar, qurilishlar va obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda.

Shunga javoban biz bolajonlar buyuk ajdodlarimizga munosib avlod bo`lishga, ona yurtimizni asrab-avaylashga harakat qilishimiz kerak.

Yuragimni ardog`isan jon Andijonim

Jannat yurtim ko`ksidagi duru-marjonim

Beshik bo`lding qancha-qancha iste`dodlarga

Ijod chashma bulog`isan ko`hna oshyonim.

Zaxiriddin Muhammad Bobur – andijon farzandi. Shuning uchun ham Andijon xalqi Boburni chuqur hurmat va ehtirom bilan tilga oladi.

Andijonda bobur xotirasini abadiylashtirish uchun Bobur jamg`armasi tashkil etilgan. Unga Z. Mashrabov rahbarlik qiladi. Shaharning qoq markazida Bobur maydoni tashkil etilib unda adib haykali o`rnatilgan.

Bog`ishamol dahasida Bog`I Bobur muzeyi tashkil etilgan. Qobul shahridagi Boburning qabridan tuproq keltirilib, Bog`i Boburda adibning ramziy qabri o`rnatilgan.

Andijon Davlat universiteti, Andijon viloyat markaziy kutubxonasi, ishlab chiqarish korxonalari, ko`plab ko`chalar Z.M. Bobur nomi bilan ataladi.

Shoirlarimiz Bobur dardlarini unga hamohang tarzda kuylashmoqdalar.

Qalbimda firoqing dardi ketmadi

Ohim ko`kka yetdi, senga yetmadi

Tuprog`ingni o`pib, ey Andijonim

Bag`ringda o`lmoq ham nasib etmadi.

62-Mavzu: Buyuk alloma Ibn Sino.

Maqsad: Ibn Sino mevalar va sabzavotlarning shifobaxshligi, hususiyatlaridan bemorlarni davolashga samarali foydalanganligini tushuntirish.

Tarbiyachi: Kelinglar bolajonlar Ibn Sino bobomizning ibratlari so`zlaridan aytamiz.

1-bola: Chang meva yema, sog`liqdan kechma

2-bola: Yeb bo`lib ovqat, yugurma faqat

3-bola: Darsdning og`rig`I bu – tish og`rig`idir

4-bola: Sog`lom bo`lay desang ozoda yur

5-bola: Agar chang va g`ubor bo`lmaganda edi, inson ming yil yashardi.

Tarbiyachi: Ko`rdingizmi bolajonlar ushbu ibratlari so`zlarga amal qilsak hech qachon kasal bo`lmaymiz.

Bundan tashqari Ibn Sino bobomiz o`limi oldidan shogirdlariga shunday degan ekan:
“Men o`zimdan keyin 5 ta shogird qoldiryabman”

Qani bolajonlar ularni navbat bilan aytamiz.

1-bola: birinchisi – tozalik

2-bola: ikkinchisi – parhez

3-bola: uchunchisi – badantarbiya

4-bola: to`rtinchisi va beshinchisi- kayfiyatdir.

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar

Syujetli-rolli o`yinlar va drammalashtirish.

Tarbiyachi: Ibn Sino bobomiz tabiblik qilish bilan birga kitob o`qishni va to`plashni yaxshi ko`rgan. Buni biz “Ibn Sino va kitoblar” rivoyatidan ham ko`rshimiz mumkun.

Kunlarning birida bir Podshoh og`ir betob bo`lib qoladi. Uni davolatish uchun Ibn Sinoning oldiga olib kelishadi

Podshoh: husayn betob bo`lib qoldim. Meni faqat sen davolay olar ekansan.

Ibn Sino: Xo`p bo`ladi podshohim, men harakat qilib ko`ray.

Podshoh: Agar meni davolasang senga istaganingcha boylik beraman.

Ibn Sino: Menga hech qanday boylik kerak emas.

Ibn Sino podshohni turli giyoxlar yordamida davolabdi.

Podshoh: Sen meni davolading, endi tilagingni ayt.

Ibn Sino: Menga qirq tuyaga yuk bo`ladigan nodir kitoblar va bir kutubxona qudirib bersangiz.

Podshoh: Aytganlaringni bajo keltiraman.

Tarbiyachi: Podshoh unga aytgan kitoblarini keltirib. Ibn Sino o`zini kutubxonasini tashkil qilibdi va barcha kitoblarni o`qib yod olibdi.

Bolajonlar qaranglar bobomiz qanchalik bilimli, izlanuvchan, ilmga chanqoq, kitoblarga mehr qo`ygan ekan. Qani bolalar bizlar ham kitob o`qiyimizmi?

Bolalar: Ha

Mana bolajonlar mashhur tabib, buyuk alloma Ibn Sino bobomiz haqida bilib oldik. Endi biz ham o`zimizni namunali xulqimiz, Izlanuvchanligimiz va bilimli bo`lishimiz orqali buyuk ajdodlarimizga munosib avlod bo`lishimiz kerak.

63-Mavzu: “Men, sen, u, ular bitta oila”

Rivojlanish soxalari bo`yicha maqsadlar. Jismoniy rivojlanish va sog`lom turmush tarzining shakllanishi, bolalarga o`rtoqlari bilan odob axloq qoidalari asosida o`zaro munosabatda bo`lishiga o`rgatish.

Ijtimoiy xissiy rivojlanish: O`rtoqlariga oilasiga nisbatan qiziish. Oila a'zolarining bilishi malakalari, nutqi va muloqot suratda ko`rgan narsalarni aytib berish. Kattalarning turli savollariga javob bera olish. Bilish jarayonini rivojlanish predmetlarini nomlash va bilish jonli va jonsiz narsalarga qiziqish.

Katta va kichkina farqlash. Ijodiy rivojlanish. O`zlarini kiyimlari, o`yinchoqlarini, ranglarini faqlash.

Rivojlanish markazlari. Talim-tarbiya faoliyati

Resurslari: ilovalar erkin faoliyat syujetli roli o`yinlar va drammalashtirish.

Syujetli roli o`yin "Mehmon-mehmon o`yini" uchun jixozlar. Nutq va til, "Men, u, ular, bitta oila" ona-dada, buva, bobo, aka, uka, opa-singil.

Dasturlar mavzusidagi suratlar, ilm fan va tabiat, slaydlar, san'at markazi o`yinchoqlari va xakozo oila mavzusi haqida kartochkalardan foydalaniladi.

Rasm: choynak va payola, loy ishi, do`stigma sovg`a. Matematik shakllardan foydalanish. Umumiy guruh bo`lib ishslash. Aprel oyining haftasi.

Hafta mavzusi: "Men, sen, u, ular bitta oila" ilm fan va tabiat markazi "Men, sen, u, ular bitta oila"

Maqsad: Bolalarga atrof olam va oila a'zolari haqida o`zi va o`rtoqlari haqida ma'lumotlarni bilish. Insoniylik ruhida tarbiyalash, oilani nutqida tariflab berishga o`rgatish. She'rlar orqali bir-biriga bo`lgan mehrini uyg`otish.

Kerakli jixozlar va materiallar: O`yinchoqlardan oazandachilik, milliy qadryat burchagidan foydalanish.

Qo`shimcha qism: Mehmon-mehmon o`yini, do`kon-do`kon o`yinini taklif etish.

E'tiborga molik jixat: Bolalarni bir-biriga bo`lgan mehrini oshirish, ilm fan tabiat markazida tarbiyachi video rolikda she'riy tariff bo`yicha slaydlar namoyish etadi.

Oila-otam onam

Oila-bobom, buvim

Oila- akam va ukam

Oila- men va singlim

Oila- sen va do`stlarim

Oila- u va ular

Buvijonim so`zlari oila desam biri tan

Biri jondek ko`rinar

Mo`jazgina mustaxkam

Men ulardan o`zimni

Tasavvur etaman ayyor

Oila-kichik vatanim

Men jilg`aman u daryo

Tarbiyachi: Bolajonlar she'rni eshitdingizmi

Bola: ha eshitdik

Tarbiyachi: kim o`zi men, sen, u, ular haqida gapirib beradi.

Bola: 1 bola men, sen, u, ular bu bari bitta oila. 2 bola men, bu men, sen akam yoki ukam u singlim yoki do`stim ular bu bobom, buvim do`stlarim.

Tarbiyachi: to`g`ri bolajonlar

Men, sen, u, ular bitta oila sen degani bu do`stiga va akasiga, ukasiga murojati. Ular esa-do`stlariga va bobo, buvilariga murojat.

Bola: Mening oilamda dadam, onam, bobom, buvim va ukam bor.

Tarbiyachi: Voy bolajonlarim gulu rayxonlarim, bizning mehribon buvimiz jonkuyar onajonimiz bor. Mexnatsevar opamiz, jajji ukamiz bor. Kelinglar onamiz haqida she'r yod olamiz.

Onajon

Bizlarni oq yuvib oq taragan
Sal kechiksak yo`llar qaragan
Olloxdan baxtimiz tilagan
Onajonim mexribonimsiz

Buvijon

Ovqatlari qaymoqli
Oilada ardoqli
Ertaklari maroqli
Buvijonim buvijon

Tarbiyachi: voy bolajonlarim yuzlari shirmoylarim bizning xona ozoda kirib keldi Xonzoda. Xonzoda kim o`zi u

Bolalar: Xonzoda bizga mexmon

Tarbiyachi: Kelinglar Xonzodani tariflaylik bir mudom

Bola: Xonzoda juda chiroli qiz

Bola: Xonzodani ko`ylagi bor

Bola: Xonzodani do`ppisi bor

Bola: Xonzodani jingalak sochi, ko`zi, qoshi, qo`li, oyoqlari bor

Bola: Xonzodani tuflisi bor

Mexmon qiz Xonzodani tariflaganligidan keying xolati bilan tanishish

Qo`srimcha qism: Mexmon-mexmon o`yinini taklif etish.

Xonzodani ko`ylagi
Juda chiroli tuflisi
Boshida bor do`ppisi
Sochlardir qo`ng`iroq
Mexmon bo`ldi Xonzoda
Juda odobli ozoda.

Bola: Xonzodaning chiroli ozoda qizligidan hursandmiz. Kelinglar hozir maqol aytamiz.

Bir kecha bor mexmon kelsa eshikdan
Risqi kelar teshikdan

Kelinglar bolalar san'at markaziga sayl qilamiz. San'at markazida choynak payola rasmini chizamiz.

Tarbiyachi:

Biz bog`chaga kelamiz

Bir xonaga kiramiz
Ertalabdan kechgacha
Bir oiladek yashaymiz

Faoliyat yakunida bolalar rag`batlantiriladi.

64-Mavzu: Baxorgi tomchilar

Maqsad: Ta'limiy: Bolalarga atrof-olam haqidagi bilim va tasavvurlarini boyitish ularning mantiqiy tafakkurini lug`aviy boyligini oshirish, tabiat xodisalari va ularni mexnatidagi axamiyati haqidagi qiziqishlarini oshirish, sayoxat va o`yinlar orqali bilimlarini mustaxkamlash.

Tarbiyaviy: Bolalarga suxbatda faol ishtirok etish, tinglash, o`rtoqlari javobini bo`lmaslik, bir-biriga o`zaro xurmatini tarbiyalash.

Kerakli jixozlar: Baxor fasliga oid rasmlar, tabiat xodisalari aks ettirilgan rasmlar, tabiat mo`jizalari haqidagi video roliklar, rag`bat tasmalar

Qo'llaniladigan usul: ko`rsatish, tushuntirish, savol-javob orqali mustaxkamlash, o`yin rag`batlantirish.

Mashg`ulotning borishi: Bolalarni mashg`ulotga tayyorlab olish.

Tarbiyachi: Bolalar o`lkamizga qaysi fasl tashrif buyurdi?

Bolalar javobi:

Tarbiyachi: Baxor faslida kunlar qanday bo`ladi

Bolalar javobi

Tarbiyachi: Baxor faslida qanday bayramlar nishonlanar ekan

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar

Bolalar baxor fasli kelishi bilan dalalarda dexqonlar mexnati boshlanadi. Baxorning ilk kunlaridan boshlab dehqonlarimiz yerga ishlov berib, milliy boyligimiz bo`lgan paxta ekini, sabzavot ekinlarini ekish uchun xozirlik ko`radilar. Qishning qorlari yerdan baxorning tafti kelishi bilan eriy boshlaydi.

Tarbiyachi: Bolalar baxor haqida kim she'r aytadi.

1-bola:

Tezroq baxor kelsaydi
Binafshani ko`rsaydim
Tezroq baxor kelsaydi
Momaqaymoq tersaydim

2-bola:

Keldi baxor, gul baxor
Erib ketdi oppoq qor

Tarbiyachi: Bolajonlar raxmat sizlarga endi sizlar bilan sayoxatga chiqamiz. Sayoxatda sizlar bilan baxorgi dala hayotini dexqonlar mehnatini kuzatamiz. Sayoxatga boorish uchun tez yurar poyezdni yordamga chaqirganman. Hozir bizni ko`z ochib yumguncha manzilimizga olib borib keladi. Qani bo`lmasa yo`lga otlanamiz.

Tarbiyachi: Vatanimiz dalalari go`zalligi, chirolyi manzaralarini kuzatishim uchun qishning qorlaridan to`yingan yerlarni ko`rish uchun bog`ga kimning yordami kerak bo`ladi.

Bolalar: Sexgar momo

Tarbiyachi: Sexgar momo deyishi bilan sexgar momo xozir bo`ladi. Katta ekran orqali dexqonlarni baxordagi mehnatlarini, tabiatimizdagи baxorgi o`zgarishlar aks ettirilgan videorolik taqdim etiladi. Bolalar vedeorolik orqali kattalar mexnatini qadrlashga, mehnat

qilishga o`rgatish, shuningdek baxordagi uyg`onish davri haqida tabiat xodisalari haqida bilimlar berishga erishish.

Tarbiyachi: Namoyish etilgan lavhalarni tushuntirib beradi.

Tarbiyachi: Bolajonlar baxor fasli va mehnati haqida ko`plab maqollar o`rganganmiz, keeling hozir shularni eslab olamiz.

Bolalar:

1. Vatani borning baxti bor
Mehnati borning taxti bor
2. Bir boshdan bir savat non
3. Daraxt ildizi bilan kuchli
Odam do`siti bilan
4. Daraxtdan meva olaman desang
Nixolligida parvarish qil

Tarbiyachi: Ofarin bolajonlar sizlarni chiroyli maqol va she`rlaringiz juda ham yoqdi. Sexrgar momoga ham juda yoqdi. Endi guruhimizga qaytish uchun sexrgar momodan yana yordam so`raymiz.

Sexrgar momo: Bolalar sizlarga yordam beraman. Avval meni shartimni bajaringlar.

Bolalar: Bajaramiz

Sexrgar momo: Men sizlarni hammangizni baxorgi gullardan beraman, siz menga baxordagi tabiat hodisalarini aytishingiz kerak bo`ladi.

Bolalar: Biz tayyormiz

Shamol,yomg`ir, do`l, chaqmoq,momaqaldiroq, sariq qor, quyoshbobo,

Sexrgar momo: Barakalla bolalar sizlar juda bilimdon ekansiz.

Tarbiyachi: sexrgar momo shartingizni bolalar bajardimi, endi guruhga qaytsak.

Sexrgar momo: Bolalar bizning o`lkamizda dalalar, bog`lar bilan birgalikda yana nimalar ko`p.

Bolalar: Tog`lar, adirlar, yaylovlar.

Sexrgar momo:Baxorda ular qanday o`zgaradi.

Bolalar: yerdagi qorlar erib, o`t-o`lanlar, lolalar yerdan chiqadilar va juda ham chiroyli bo`ladilar.

Sexrgar momo: Juda ham yaxshi, deb yana tog`lardan oqayotgan suvlar, gullarga burkangan qir adirlar aks ettirilgan video rolikni qo`yib beradi va bolalarni guruhga yetkazib qo`yadi.

Tarbiyachi: Bolalar mana sayoxatimiz juda ham maroqli o`tdi. Sayoxat ta`surotlarini o`rtoqlaringizga aytib berasiz. Endi charchoqlaringizni yozish uchun bir o`yin o`ynaymiz. Boxor tomchilari.

Mazmuni: Bolalar 2 guruhga bo`linadilar, 1-guruh tomchilar, 2-guruh maysalar

Maysalar yerda o`tiradilar, tomchilar ko`zlarini yumib borib maysalarni ushlab oladi. Kim maysani ushlay olmasa o`yindan chetlatiladi. Ushlagan tomchilar o`yini davom etiradi. O`yin so`ngida yaxshi ishtirok etganlar rag`batlantiriladi.

San`at faoliyat markaziga o`tib bolalar ihtiiyoriy bahoriy ko`rinish va tomchi aks etgan rasmlarni chizashadi va ko`rgazma tashkil qilinib faoliyat yakunlanadi.

65-Mavzu: “Qumning xususiyatlari”

Maqsad: Qumning xususiyatlarini biladi, qum quruq va nam qumni farqini biladi, quruq qumdan nonchalar yasab bo`lmaydi, nam qum to`kilmaydi, undan nonchalar yasasa bo`lishini o`rganadi, atrof-olamga o`z munosabatlarini bildira oladi.

Kerakli jihoz va materiallar : qum, qumdan yasalgan narsalar, rasmlar , suv, qumli qoliqlar, maxsus konteynerlar.

Faoliyatning borishi:

1. Bolalar qum, qumdan yasalgan predmetlar va ularni rasmini ko`rish, slayd tomosha qilish, tarqatmalardan foydalanib izohlash.
2. Xo`l qum va quruq qumni farqlash.
3. Xo`l qumdan nonchalar yasash.
4. Qumni xususiyatlarini aks ettiruvchi rasm va tarqatmalar bilan tanishtirish.
5. Tarqatmalarini tartib bilan ketma-ketlikda qo`yish.
6. Bolalarni rag`batlantirish

Qo`shimcha qism : Sayrda qum bilan o`yinlar, qumdonlarda tajribani takrorlash. Bolalarda faoliyat jarayonida sezgi, idrok, tafakkur faollashadi va kuzatish va xulosa qilishni o`rganadi.

E'tiborga molik jixati: Bolalarga tabiatga va atrof-olamga qiziqishini oshirish. Hamda qum, uning xususiyatlari haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

Tabiat va fan markazida tarbiyachi

Mening bilimdonlarim rasmdagi nima narsa ? (Bolalar jo`r ovozda qum deydilar) Keyingi rasmni ko`rsa (Bolalar suv deydilar) Qarang aziz bolajon, suvni qumga quysak biz nima bo`lar qaqajon ? (Hammalari birligida xo`l qum deydilar) xo`l qumdan yasaymiz nonchalar, to`g`rimi javob bering bolachalar ? (Bolalar to`g`ri deydilar) quruq qumni sochganda, atrofga dumalaydi. Demak undan nonchalar yasab bo`lmaydi. (Bolalar ha deb tasdiqlaydi)

66-Mavzu : To`kiladigan jismlarni hajmini o`lchash.

Maqsad : To`kiladigan jismlar xaqida tushunchaga ega bo`ladi, to`kiladigan jismlarni hajmini biladi, to`kiladigan jismlarning hajmini o`lchay oladi. O`lchov asboblarini bilib oladi, o`lchash usullarini o`rganadi, tabiat narsa va predmetlarga o`z munosabatini bildiradi.

Kerakli jixozlar va materiallar : shakar, krupalar, tarqatmalar, rasmlar, shartli o`lchovlar.

Faoliyatning borishi :

1. To`kiladigan jismlar xaqida tushunchaga ega bo`lish.
2. To`kiladigan jismlarning hajmini o`lchash.
3. O`lchash usullari va asboblarini o`rganish.
4. Rasmlar va tarqatmalar bilan tanishtirish.
5. Rasmlar va tarqatmalarini ketma ketlikda qo`yish.
6. Bolalarni rag`batlantirish.

Qo`shimcha qism : Og`irlikni o`lchaydigan va tarozi haqida ma`limotga ega bo`lish. Bolalarda faoliyat jarayonida sezgi, idrok, tafakkur faollashadi va kuzatish va xulosa qilishni o`rganish.

Tabiat va fan markazida tarbiyachi

Mening bilimdonlarim rasmdagi nima narsa ? (Bolalar jo`r ovozda shaker deydilar) Keyingi rasmni ko`rsa (Bolalar tarozi deydilar) Qarang aziz bolajon, shakarni qanchaligin qanday bilay qaqajon ? (Hammalari birligida tarozida o`lchab deydilar) tarozida nelar bor aytib bergen Saidjon (Saidjon: deydi – “ikki pallasi bordur sotuvchiga dastyordur” deydi) tarbiyachi bolajonlarga “Taroziniboshi har bir ishining boshi” deb aytadi (Bolalar bu momolar o`giti deydi bilag`on bolalar)

67-Mavzu : “Yong`in xavfsizligi” mavzusida suhbat

Maqsad : Bolalarni yong`in xavfsizlik qoidalari bilan tanishtirish va insonlarni xavfsatarlardan muhofaza qilayotgan tashkilotlari haqida tushuncha berish. Kishilarning hayotlari, mol-mulkulari xavf ostida qolishiga nimalar sabab bo`lishi haqidagi tushunchalarga ega bo`lish. O`t o`chirishda zamonaviy asbob-uskunalar, ularning bevosita vazifalari bilan tanishtirish. Hayot xavfsizligi haqidagi tushunchalarni takomillashtirish.

Kerakli jihozlar: Mavzuga oid rasmlar, suv, qum va yomg`ir xavfsizligi bo`yicha tarqatma materiallar.

Markazlar : Fan va tabiat markazi.

Faoliyatning borishi :

Tarbiyachi : Aytinglarchi bolajonlar yong`in xavfsizligi deganda nimalarni tushunasiz.

Bolajonlar javobi :

Tarbiyachi : bolalar olov deganda nimani tushunasiz ?

Bolalar javobi:

Tarbiyachi : to`g`ri bolajonlar olov issiqlik, yorug`lik demakdir. Shu bilan birga olov xalokat, kulfat, hamdir. Ota-bobolarimiz olov bilan extiyotkorlik bilan foydalanishga harakat qilishgan. Lekin olov har doim ham insonlarga itoat qilmagan ularning boshiga kulfatlar solgan. Keyinchalik yong`in saqlash hizmatlari tashkil qilingan. O`t o`cherish xizmati uchun “01” raqami joriy qilingan. Hozirda zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihoxlangan. Men sizlarga o`t o`chirish modulini ko`rsataman. Bolalarning e`tiborini uning rangiga, asbob-uskunalariga qaratadi. Yoritgich, o`t o`chirish shlangni nima uchun kerakligi haqida tushuntirib beradi.

Tarbiyachi : bolalar o`yinchoq mashinasini ko`rib chiqqandan so`ng o`t o`chiruvchi hodimning, maxsus kiyimda turgan suratini ko`rsatadi. Bolalar o`t o`chiruvchining ust-boshiga diqqat bilan qarashini taklif etadi. O`t o`chiruvchilarning ustidagi po`lat qalpog`idan qaysi vaqtida qanday foydalanishlari haqida tushuntirib beradi.

Tarbiyachi: bolalar sizlar nima deb o`ylaysizlar yong`in nimalardan kelib chiqadi.

Bolalar javobi: kattalarni e`tiborsizligidan, gugurt o`ynashdan, gazlarni ochiq qolishidan.

Tarbiyachi: to`g`ri bolajonlar. Shuning uchun bor imkoniyatimizni ishga solib yong`in chiqishkarini oldini olaylik. Endi sizlarga “O`t o`chiruvchi” she`rini aytib beraman.

Eshiting o`g`il-qizlar,
Judayam yaxshisizlar.
O`ynamanglar o`t bilan,
O`ynamanglar gugurt bilan.
Degan gaplarni eslang,
Tag`in bir so`z bor sizga.
Tushuray esingizga,
“01” ga qilsak habar.
U bola mard bo`ladi,
Ko`pning ko`ngli to`ladi.
Tilagi omonlikdir,
Ashi qahramonlikdir.

Niyyatimiz eng katta,
Ko`pga ma'qul albatta.
Obod bo`lsin keng jahon,
Yoqilmasin hech qachon.
Urushlarning olovi
Topilsin yo`l qolovi

Endi bolajonlar sizlar bilan “O’t o`chiruvchi mashq” da harakatli o`yinini o`ynaymiz. O`yin o`ynatib Faoliyat yuqunlanadi. Mashg`ulotda faol ishtirok etgan bola rag`batlantiriladi.

68-Mavzu: o`yinchoqlar va ularning ishtirokchilari

Maqsad: o`yinchoqlar haqida tarbiyalanuvchilarga tushuncha berish. Qadimgi va xozirgi o`yinchoqlarni ixtirochilari haqida bolalarni bilimini shakllantirish. Bolalarda o`yinchoq va uning ixtirochilari hurmat va havas uyg`otish ularni qolgan merosni asrab avaylashga o`rgatish.

Maqsad: o`yinchoqlarning nomini, ularning rangi va kattaligini to`g`ri aytishga o`rgatish.

Vazifalar : Qarama-qarshi ma’noli so`zlardan malakasini shakllantirish. (Baland-past) otlar va sifatlar to`g`ri gramatik shakllarda qo`llashga o`rgatish “E” tovushini to`g`ri talaffuzini aniqlash va mustahkamlash. (alohida tovush birikmalarida, so`zlarda)

Mashg`ulotning borishi:

Bugun sizlar bilan o`yinchoq va uning ixtirochilari haqida gapirib o`tamiz. O`yinchoqlar qadim zamonlarda Hamri buvi tomonidan yaratilgan o`yinchoqlar bo`lgan. Hozirgi ma'lumotlarga qaraganda yer yuzidagi eng ko`p tayyorlanadigan o`yinchoqlar xitoy zimmasiga to`g`ri keladi. Yanada aniqroq aytadigan bo`lsak million o`yinchoqlarni tayyorlash uchun qancha ishchi kuchi kerak ekanligini tasavvur eta olasizmi?

Balki cheksiz ishlab chiqarilish jarayonida qandaydir texnologiya yoli robotlar ishtirok etadi deb o`ylashingiz mumkin. Ammo bunday emas. O`yinchoqlarning barini odamlar qiladi. Ularning hammasi qo`l mehnatida bajariladi.

Tarbiyachi xonaga o`yinchoq solingen yuk mashinasini olib kiradi. (ayiqchalar, echki, qo`g`irchoqlar, archalar solingen).

Qaranglar mashinada qanday o`yinchoqlar olib kelibman ?

(bolalar javobi) To`g`ri, ayiqchalar, echkini va archalarni olib keldim. Siz bu o`yinchoqlarni o`ynashni yaxshi ko`rasizmi? Bular nima? To`g`ri ayiqchalar/ bitta ayiqcha qanday rangda (oq). Boshqa ayiqchaqanday raqngda? (qora) ayiqchalar qanday qichqiradi (eeeeee) Said oq ayiqcha qanday qichqiradi ko`rsat-chi? (Tarbiyachi o`yinchoqni bolaning qo`liga beradi) qora ayiq qanday qichqiradi? Mana bular nima ? (archalar). Qaranglarchi hamma archa bir hilmi? Mana bu archa baland, bular-chi qanday? To`g`ri ular past. Keyin tarbiyachi ikki bolani chaqiradi va bittasiga stul ustiga bakand archalarni, ikkinchisiga esa past archalarni qo`yishini buyuradi. So`ngra tarbiyachi o`g`il va qiz qo`g`irchoqlarni oladi va “Qizning ismi E’tibor” deydi. Qizning ismi nima ekan ? (umumiy va yakka-yakka javoblar).

Qaranglar-chi, mashinada qanday o`yinchoq kelibdi? (echki). Echki qanday ma’raydi? (mee). Keyin tarbiyachi bolalarning uylarida qanday o`yinchoqlar borligini so`raydi. Kam faol bolalarni faollashtirish uchun ularga savollilar bilan murojaat qiladi. Doniyor sen qaysi

o`yinchoqlar bilan o`ynashni yaxsho ko`rasan? Lola sening o`yinchog`ing qaysi? O`yinchoqlar nima uchun kerak? va H.K

Tarbiyachi bolalarga o`ynashni taklif qiladi/ sizlar hammangiz ayiqchalar bo`lasiz, men ona ayiq bolaman. Mana ayiqchaalr inlaridan chiqib sayr qilishga ketdilar. Ular o`rmonda yuradilar va (eee) deb qichqiradilar. (bolalar xona bo`ylab yuradilar va “e” tovushini talaffuz qiladilar). Tarbiyachi ayiqchalar sayr qilib bo`ldilar va inlariga ona-ayiq oldiga keldilar deydi. Bolalar o`z joylariga o`tiradilar. Kelinglar, bolalar ayiqcha, echki, E'tibor, Erkin bilan qanday voqealar yuz bergenligi haqida hikoya tuzamiz. Tarbiyachi stol ustiga archa qo`yadi va hikoyani boshlandi. Kunlardan bir kun echki o`rmonda sayr qilib yurgan edi. Oldidan ayiqcha chiqib, echkiga “eee” deb qichqiradi. Echki qanday qichqirdi? Echki qo`rqib ketib “me me me” deb qichqirdi. Echki qanday qichqirdi? Shu vaqt Erkin, E'tibor degan bolalar o`rmonda yurishgan ekan. Ular echkini ovozini eshitib yugurib kelishdi va echkini ovutishdi. Hamma hursand bo`ldi. kim hikoyani qaytaradi? Erkin, E'tibor so`zlarida “e” tovushi bormi? Kelinglar Erkin, E'tibor so`zlarini qaytaramiz. Bolalar bilimini tekshirish va mustahkamlash uchun

Savollar:

1. Oq ayiqcha haqida kim gapiradi ?
2. Qora ayiqcha haqida kim gapiradi ?
3. Past archani ko`rsating
4. Baland archani ko`rsating
5. Qo`g`irchoqlarning ismlari nima ekan?
6. Qo`g`irchoqlar haqida kim gapiradi?

Bola bilimini aniqlovchi savollar bola javoblarini taxlil qilish va rag`batlantirish

69-Mavzu: “Bizning yaxshi ishlarimiz” (Bolalar ijodidan)

Maqsad: Bolalarni tevarak-atrof haqida bilimlarini kengaytirish, qilinayotgan yaxshi ishlar haqida umumiy tushuncha berish. Bajargan ishlariga ijobiy munosabatda bo`lishga, birlik va ko`plik qo`shimchalari, savollarga aniq va to`liq javob berishga o`rgatish. Topishmoqlarni sezgirlik bilan topib, javoblarini to`g`ri talaffuz qilishga o`rgatish.

Kerakli jihozlar: Mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, bolalar ijodiga ishlardan na'munalar.

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: Assalomu alaykum bolajonlar. Bugungi mashg`ulotimizda sizlar bilan oy mavzusi asosida yaxshi ishlarimiz haqida suhbatlashamiz.

Bilasizlarmi bolajonlar yerdagi barcha transport (turl) vositalari svetafor bilan boshqariladi. Hozir men sizlarga rasm ko`rsataman, sizlar esa uning nomini aytasizlar. (poyezd, samalyot, mashina, avtobus rasmlari ko`rsatiladi)

(Bolalar javobi)

Tarbiyachi: barakalla bolajonlar sizlar transport vositalarining nomlarini yaxshi bilib olibsiz. Endi ularning qanday vazifa bajarishini so`rayman.

-Poyezd qaysi yo`lda harakatlanadi?

Bola javobi-poyezd maxsus temir yo`lda harakatlanadi.

Kelinglar birgalikda poyezd ovozini o`xshatamiz.

(Bolalar jo`r bo`lib poyezd ovozini taqlid qilishadi)

Tarbiyachi : Avtobusda o`zimizni qanday tutushimiz kerak ?

1-bola : Avtobusda ko`p kulish, haydovchiga halaqit berish mumkin emas

2-bola : yugurib yurish oynasidan bosh chiqarish mumkin emas

Tarbiyachi : Kim menga havo transportlarini nima ekanligini aytib beradi?

1-bola : samolyot, vertalyot, raketa.

Tarbiyachi : samolyot qanday harakatlanadi? Qani kim ko`rsatib beradi?

(Bolalardan biri samolyot uchganidek qo`llarini harakatlantiradi.)

Tarbiyachi : Endi kim menga suvda harakatlanadigan transportlarni aytadi?

1-bola : poroxod, kema, qayiq.

Tarbiyachi : Topishmoq aytaman javobini toping!

1.Navkar otim gup etdi

(raketa)

2.Keng fazoni quchadi

Oylab, yillab uchadi

(raketa)

3.Uchganda yengil qushim

Qo`nganda og`ir qushim

(samolyot)

Tarbiyachi : Bolalar Faoliyatdavomida nimalarni rasmini chizdingiz?

Bolalar : Samolyot rasmini chizdik

1-bola : Plastilindan samolyot yasadim

2-bola : Rangli qog`ozdan kema yasadik

Tarbiyachi : sizlar yasagan kema bir-biridan chiroyli

Tarbiyachi: ko`chain kesib o`tayotganimizda nimaga e'tibor berib o'tishimiz kerak?

Bolalar : Svetaforning chirog`iga qarab o'tishimiz kerak

Tarbiyachi : Svetaforning nechta chirog`i bor ?

Bolalar : 3 ta qizil, sariq, yashil.

Tarbiyachi : yo`lni kesib o`tganda qaysi chiziqni bosib o`tamiz ?

Bolalar : Zebra chig`ini bosib o`tamiz.

Tarbiyachi : Vatanimizda qanday avtomashinalar ishlab chiqariladi?

Bolalar javoblari (mashinalar turlarini sanashadi)

Tarbiyachi: bolalar kim mashina haqida she'r aytib beradi?

Bola: G`ir-g`ir yurar mashinam

Viz-viz yurar mashinam

Vintini burab qo`ysam

Yurib ketar mashinam

Tarbiyachi: Barakalla bolajonim. Kim katta bo`lsa shafyor bo`ladi?

Bola javobi

Tarbiyachi: bolalar kimlar shoshilinch xizmat ko`rsatadi?

Bolalar : Shifokor, o`t o`chiruvchilar

Tarbiyachi: Barakalla bolalar. Shifokorlar qanday hizmat ko`rsatadi?

Bolalar javobi: Birinchi tez tibbiy yordam beradi.

Tarbiyachi : o`t o`chiruvchilar qanday xizmat ko`rsatadi?

Bolalar javobi: Yong`inni bartaraf etadi.

Tarbiyachi : Faoliyatdavomida nimalarni o`rgandingiz ?

1-bola : Tez yordam mashinasini rangli qog`ozdan yasashni o`rgandik.

2-bola : Tez yordam mashinasini rasmini chizdik

Tarbiyachi : Kim shofokor bo`lmoqchi ?

Bolalar javobi

Tarbiyachi : shifokor nimalar bilan shug`ullanadi?

1-bola : tishimiz og`risa davolaydi.

2-bola : issig`imizni o`lchaydi.

Tarbiyachi: Bolajonlar biz sizlar bilan transport turlari bilan tanishdik va ular haqida bilimlarga ega bo`ldik. Piyodalar harakati, shoshilinch harakat xizmatlari haqidagi tushunchalarga ega bo`ldik.

Tarbiyachi : Kelinglar bolajonlar endi shifokor o`yinini o`ynaymiz.

70-mavzu: O`zbek xalq idishlari

Maqsad: bolalarni xalq amaliy san`ati bilan tanishtirish, milliy naqshlar haqidagi bilimlarini boyitish bilan birligida qo`l matorikasini yaxshilash ijodkorlik ruhini shakllantirish, ro`zg`ordagi idishlar bilan tanishtirish, jamoa bo`lib ishlashga , o`zi bajargan ishlardan zavqlana olish hissini uyg`otish. O`zbek milliy san`atiga nisbatan mehr-muhabbatinin oshirish, to`g`ri va to`lqinsimon naqsh turlarini chizish malakasini mustahkamlash.

Kerakli jihozlar: idish rasmlari, turli naqshlar na`munasi

Mashg`ulotning borishi:

Tarbiyachi : Bugun sizlarga topishmoq aytaman.

Ro`parade turibti

Yuzi dumaloq lo`ppi

Bir qulog`I bor, bir burni

Boshiga kiygan do`ppi

Bolalar javobi : (Choynak)

Tarbiyachi : yana bitta topishmoq aytaman

Ona – bola yemas-ichmas

Dasturxonidan nari ketmas

Bolalar javobi: (Choynak piyola)

Shu payt eshikdan Zumradoy va Qimmatoylar kirib keladi.

Bolalar salomlashadi

Tarbiyachi : Bolalar guruhimizga mehmonlar tashrif buyurdilar uymizga mehmon kelsa nima qilamiz?

Bolalar :

Tarbiyachi: kelinglar biz ham mehmonlarni dasturxonga taklif etamiz buning uchun nima qilish kerak?

Bolalar : Dasturxon yozib choy idishlari, qandlar qo`yiladi.

Tarbiyachi : mehmonlarga choy quyib uzatamiz.

Qimmatoy : ustoz bu piyola qanday tayyorlangan?

Tarbiyachi: Bolajonlar aytinchchi choynak va piyola bizga nima uchun kerak?

Bolalar : choynak coyni damlash uchun, piyola esa choyni ichish uchun kerak bo`ladi.

Tarbiyachi: To`g`ri topdingiz ko`p yillardan beri choynak piylalar bizga xizmat qiladi choydan tashqari shifobaxsh giyohlarni, dorivor o`simliklarni ham damlar ichamiz. Bu choynak , piylalar turmush hayotimizda juda ko`p ishlatiladi. Ular ona yurtimizning

tuprog`idan tayyorlanadi. Tuproqdan tayyorlanadi va unga ko`p ishlov beriladi. Unga shakl berilib maxsus issiqlikda pishirib, chiroli va bejirim choynak va piyolalar yasaladi.

Qimmatoy: Ha tushundim, loydan shunday chiroli idishlar tayyorlansa-ya

Bolalar: biz loy mashg`ulotlarida xar xil idishlar yasaganmiz.

Zumradoy: Qimmatoy mana bu choynak va piyolani bezagini qara qanday chiroli ekan.

Tarbiyachi: Ha bolajonlar idishlar maxsus issiqlikdan chiqqandan so`ng naqqoshlarimizning ishi boshlanadi.

Qimmatoy : nashq nima ?

Tarbiyachi: naqsh milliy san`at turlaridan biri bo`lib gazlamalarga yog`ochlarga va chinni idishlarga tovoqlarga bezak sifatida ishlatiladi. Milliy naqshlardan yurtimizning tarixiy obidalarida juda ko`p foydalanilgan. Ular go`lzalligi, betakrorligi sababli umrboqiy hisoblanadi. Naqshlardan milliy hunarmandchilikda, o`ymakorlikda ko`p foydalaniladi. Naqshlar to`g`ri va to`lqinsimon chiziqlardan tashkil topadi va ko`pgina buyumlarga bezak berishda foydalaniladi. Masalan mana bu sochiqlar, sochiqlarning chetlari to`lqinsimon, to`g`ri va doira shaklda bezatilgan. Idishlar ularni paxta gulli atlas nusxada mayday gulli idishlarni tarbiyachi bniloan birgalikda kuzatadi. Bu naqshlarda milliy boyligimiz paxta atlas aks ettirilgan.

O`yin : Sherigini top

O`yinning borishi: bolalar ikki guruhga bo`linadi quti ichida oshxonasi jihozlari va idish tovoqlar saralab oladi. So`ng so`ng tayyor piyola shaklli bolalarga tarqatib beriladi. Bolalar o`z hohishiga ko`ra naqshlar bilan bezatadilar. Idishlar jamlanmasini Zumradoy va Qimmatoya sovg`a qilinadi. Zumradoy bolalarning ishlardan hursandligini bildirib hayrlashadi.

71-Mavzu “Mening chiroli kemacham haqida suxbat”

Maqsad: Bolalarga suv transportlari haqida tushuncha berish. Mavzuni mustahkamlash, nutq madaniyatini oshirish, lug`at boyligini kengaytirish.

Kerakli jihozlar: mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, bolalar ijotidagi ishlardan namunalar.

Markazlar: bolalar kutubxonasi, tasviriy faoliyat qurish yasash, o`yin va o`yinchoqlar markazi.

Faoliyatning borishi :

Tarbiyachi: Bolalar bugun biz sizlar bilan atrof olami mashg`ulotida “Mening chiroli kemacham” mavzusida suhbatlashamiz. Bolalar suv usti transportlariga qaysilar kiradi? Ularning nomlarini menga kim sanab beradi?

1-bola: kema, qayiq, paravoz.

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar bu transportlarning nima uchun yer usti transportlari deb ayatmiz?

2-bola: chunki hammasi suvda yuradi.

Tarbiyachi : to`g`ri bolajonlar men hozir sizlarga “Hazrat Nuxning” kemasi va to`fon hodisasi ibratli hikoyasini o`qib beraman. Bolalar endi ushbu hikoya asosida savol – javob o`tkazamiz.

Tarbiyachi : Bolalar sizlarga bir topishmoq aytaman va javobini topasizlar, keyin bo`g`inlarga ajratamiz.

Qanoti bor ucholmaydi
Quruq yerni qucholmaydi.

Bolalar : Kema

Tarbiyachi : endi kema so`zini ajrataylik!

1-bola : Ke-ma ikki bo`g`indan iborat .

Tarbiyachi : Barakalla, endi bolajonlar hammamiz birgalikda kema rasmini chizamiz. Chizish uchun bizlarga nimalar kerak bo`ladi ?

Bolalar : oq qog`oz va qalamlar.

Tarbiyachi : Barakalla kim chizgan kema chiroyli chiqar ekan. Kemani chizishda biz qanday shakldan foydalanamiz ?

Bolalar : yarim doira shaklidan.

Tarbiyachi : raxmat. Bolalar qayiq, kema, paravozlardan nimalar uchun foydalanamiz qani kim menga yatadi ?

1-bola : qayiqdan o`tirib baliq tutish uchun

2-bola : kemadan katta-katta yuklarni tashish uchun.

3-bola : paravozda sayrga chiqishda, atrofni kuzatishda.

Tarbiyachi: to`g`ri bolajonlar bizga suv osti transportlari ham juda kerak ekan. Bolalar kelinglar endi birgalikda lego o`yinchoqlarimizdan foydalanib qayiqcha yasaymiz. Tarbiyachi birgalikda qayiqcha yasaydilar mashg`ulotga faol qatnashgan bolalarni rag`batlantiradilar.

72-Mavzu: Maktabga ekskursiya

Qo`llash usullari : kuzatish, ko`rsatish, tushuntirib borish, savol-javob

Kerakli jihozlar : mavzuga oid predmetli hamda ko`rgazmali rasm

Rivojlanish soxalari bo`yicha maqsadkar:

1. Jismoniy rivojlanish va sog`lom turmush tarzini rivojlantirish, bolalarda tevarak-atrofga bo`lgan axloqiy sifatlarini shakllantirish

2. Ijtimoiy hissiy rivojlanish:

Jamoatda bolalarni shu jamoa a`zosi kabi shaxsiy sifatlarini shakllantirish. Guruhda bolalar o`rtasidagi do`stona munosabatlarni shakllantirish jamoada jipslikni ta'minlash. Bolalarda o`zini va o`zgalarga bo`lgan emotSIONAL hissiy holatlarni ko`rsata olish.

3. Nutq, muloqot, o`qish va yozish malakalari. Yo`l harakati qoidalari haqida tasavvurlarini kengaytirish. Fikrlash faolligini kuzatish qobiliyatini taxlil qilish va xulosa chiqarishni shakllantirish bolalar so`z boyligini oshirish.

4. Bilib jarayonini rivojlanish :

Bolalarga yo`l harakati belgilaringning ma`nolari bilan tanishtirishni davom ettirish bolalarda favqulotda xolatlarda o`zini tutish ko`nikmalarini shakllantirish.

Havf keltirib chiqarish mumkin.